


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**O'ZBEKISTON PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY TADQIQOT
INSTITUTI**

**S.T.TURG'UNOV, B.X.DANIYAROV, M.A.UMARALIYEVA,
SH.S.SHODMONOVA, SH.M.TURG'UNOVA, H.M.TOJIBOYEVA**

**O'QITUVCHILARNING KASBIY MAHORAT
VA KOMPETENTLILIGINI
RIVOJLANTIRISH**

“Sano-standart” nashriyoti
Toshkent – 2012



UDK: 371.13/16

KBK: 74.204

O'97

Maxtabdunyo
S.T.Turg'unov, B.X.Daniyarov, M.A.Umaraliyeva, Sh.S.Shodmonova,
Sh.M.Turg'unova, H.M.Tojiboyeva

O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish.

– Toshkent: "Sano-standart", 2012. – 172 bet.

ISBN 978-9943-4106-2-6

UDK: 371.13/16

KBK: 74.204

Mas'ul muharrir:

pedagogika fanlari doktori, professor

R.X. Djurayev

Taqrizchilar:

pedagogika fanlari doktori, dotsent

Sh.Q. Mardonov,

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent


I.A.Rahimov,

pedagogika fanlari nomzodi

Q.O. Shodmanov

Mazkur qo'llanmada ta'lim muassasasi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi va uning komponentlari, pedagogik kompetentlik ko'rsatkichlari va baholash mezonlari, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlari, metod, vositalari, kasbiy mahorat va kompetentlikni rivojlantirish jarayonida motivlashtirish, o'qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning korporativ asoslari, pedagogik innovatsion faoliyat, uzluksiz malaka oshirish jarayoni modeli kabi masalalar yuzasidan so'z yuritiladi.

Qo'llanma uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar, pedagogik faoliyati bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar, mutaxassislar va pedagogika oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun mo'ljallangan.



HD 44606
394
© "Sano-standart" nashriyoti, 2012 yil

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, ta'lim muassasalarida yaratilayotgan shart-sharoitlar, yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj va talabning o'sib borishi umumiy o'rta ta'lim muassasalari (UO'TM) o'qituvchilari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning innovatsion faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirib borishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va mavjud muammolarni bartaraf etish yo'nalishlarida o'ziga xos qator talablarni belgilaydi.

Bu o'z navbatida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlariga ijodiy yondashuvni talab qilmoqda. Ya'ni, o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari, tajribasi, mahorati, omilkorligi asosida pedagogik jarayonlardagi mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishi, pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashi, pedagogik jarayon sub'yektlari (o'qituvchi va o'quvchilar) faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlaridagi qarorlarni qabul qilishda mavjud vaziyatlarni, sub'yektlarning moyilligi, ehtiyoji va qiziqishini o'rganishi, ta'lim muassasasida tarbiyaviy munosabatlar jarayonining pedagogik jarayon sifatida mavjudligi hamda ko'p qirrali hisoblangan mazkur jarayonda bevosita hamda bilvosita ta'sir mavjudligini e'tiborga olishi zarur.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri sifatida ta'lim muassasasida uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish zaruriyatini keltirish mumkin. Ilmiy asoslarda tashkil etilgan uzluksiz malaka oshirish jarayonlarining ilmiyligi – yangiliklarni izlash, o'rganish va ularga asoslanish hamda ilmiy asoslangan ma'lumotlardan foydalanish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini o'zlashtirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga innovatsion yondashuv texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalarni belgilaydi.

Ta'lim tizimini rivojlantirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar barcha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarishda fan-texnika yutuqlariga asoslangan o'qitish metodlarining eng samarali hisoblangan innovatsion metodlaridan foydalanish zaruratini belgilagan holda o'qituvchilardan pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni talab qiladi.

Pedagogik tajribalardan ma'lumki, pedagog faoliyati o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, u o'qituvchidan nafaqat oliy ma'lumotga, balki yetarli kasbiy tayyorgarlikka, pedagogik va kasbiy tayyorgarlik yo'nalishida bilim, ko'nikma va malakalarga, shuningdek, ma'lum tajribaga ham ega bo'lishni talab etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarning eng asosiy va muhim ahamiyat kasb etuvchi funksiyalarini amalga oshirish jarayoni bir qancha vazifalarning bajarilishini, ya'ni pedagogik jarayon sub'yektlariga zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, shuningdek, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari bilan qurollantirish kabi qator vazifalarni ham amalga oshirishni nazarda tutadi.

Shunday ekan, UO'TM o'qituvchilari pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlarida vujudga keladigan muammoli vaziyatlarda vaziyatli yondashuvni amalga oshira bilishi, ta'limiy muhitda mavjud bo'lgan sun'iy to'siq va muammolarni hal etishda ob'yektiv bo'lishi, turli yo'nalishlarda qarorlar qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etishi, ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish yo'nalishida o'zaro bevosita ta'sirlar mavjudligini e'tiborga olgan holda faoliyat ko'rsata olishi zarur. Shu ma'noda ular o'z bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam rivojlantirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida UO'TM o'qituvchilarini ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning jahon miqyosidagi yutuqlarini va

yangiliklarini tatbiq etish, pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish va uni loyihalashtirish, innovatsion ta'limiy muhitni shakllantirish yo'nalishlarida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish asosida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirib borishga turli yangi vazifalarni yuklaydi.

Zamonaviy shart-sharoitlarda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, ya'ni ularning professionalligi, o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashda kompetentli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki pedagogik jarayonlarni ilmiy asoslarda tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi zamonaviy talablar o'qituvchilarning o'z bilimlari, ko'nikma va malakalarini uzluksiz rivojlantirib borishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida, o'qituvchilar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishni nazarda tutadi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim muassasalari o'qituvchilari muntazam ravishda o'zining kasbiy bilimi, ko'nikma va malakasini rivojlantirib borishi, boshqaruv yo'nalishidagi tushunchalarini kengaytirishi, fan va texnika yutuqlarini, zamonaviy pedagogik va yangi axborot texnologiyalarini o'zlashtirib borishi zarur.

O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLILIGI VA UNING KOMPONENTLARI

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta'lim tizimining eng asosiy bosqichlaridan biri sifatida kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bosqichi keltirilgan bo'lib, ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlarida pedagog xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonlari ishtirokchilariga zaruriy va yetarli darajada shart-sharoitlarni yaratib berilishidan asosiy maqsad har tomonlama rivojlangan, yangilanish va rivojlanish jarayonlariga moslashuvchan, yuksak ma'naviy va pedagogik madaniyatga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil fikrlash va innovatsion faoliyat ko'rsata olish mahoratiga ega bo'lgan, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan o'qituvchi shaxsini tarbiyalashdan iborat.

Ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlarida qisqa vaqt ichida amalga oshirilayotgan o'zgartirishlar va yangiliklar asosida pedagog xodimlarga belgilanayotgan zamonaviy talablar ta'lim va yoshlar to'g'risidagi hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunib yetadigan hamda targ'ibot qiladigan; o'z fanini chuqur biladigan, pedagogik jarayonlarda o'quvchilarning sub'yektivligini va faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratadigan; o'zaro do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lgan; pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, o'quvchilar va pedagoglar hamkorligini shakllantirish va muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda motivlashtirish, refleksiv faoliyat jarayonlarini tashkil etish asosida refleksiv ta'limiy muhitni shakllantirish yo'nalishlarida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi shaxsini shakllantirishni taqozo etadi.

Shunday bo'lsada, ta'lim muassasalari o'qituvchilarining aksariyati pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda

o'qituvchining asosiy vazifalari ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va nazorat qilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga o'rganilishi rejalashtirilgan mavzu bo'yicha zaruriy axborotlarni yetkazib berishdan iborat deb hisoblaydilar.

Bizning fikrimizcha, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonida o'qituvchilar tomonidan o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi quyidagi vazifalar bajarilishi zarur:

- o'quv dasturida o'rganilishi rejalashtirilgan mavzuga mos ravishda ta'lim jarayonining ta'lim-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini belgilash;

- maqsadga muvofiq ko'zlangan natijalarga erishish uchun vazifalar belgilash va belgilangan vazifalarni bajarish yo'nalishida tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini va qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni tanlash;

- vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra o'quvchilarning imkoniyatlarini oldindan aniqlashtirish va vujudga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni oldindan bashorat qilish asosida bajariladigan vazifalarni imkoniyatlarga ko'ra taqsimlashni rejalashtirish;

- ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash;

- pedagogik jarayonda o'quvchilarning sub'yektivligini ta'minlash va faolligini oshiruvchi texnologiyalarni tatbiq etish jarayonlarini loyihalashtirish;

- pedagogik jarayonda foydalaniladigan didaktik vositalarni tanlash va oldindan tayyorlash;

- pedagogik jarayonlarning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlovchi chora-tadbirlarni belgilash;

- maktab, oila va mahallaning o'zaro aloqasini ta'minlash;

- pedagogik jarayonlarda ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilish;

- DTS talablarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borish;

- o'quvchilar o'rtasida anketa so'rovlari va suhbat o'tkazish asosida axborotlar to'plash va tahlil qilish;

- o'quvchilar faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida belgilangan vazifalarni qayta ko'rib chiqish, yangilash;

- DTS asosida mustaqil ta'lim jarayonlarini tashkil etish;

- o'quvchilarning mustaqil ta'lim jarayoni natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag'batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish;

- o'quvchilarning o'quv, mehnat va o'yin faoliyatlarini nazorat qilish va muvofiqlashtirish.

Demak, ta'lim muassasalari o'qituvchilarining o'z funksional vazifalarini amalga oshirish jarayoni pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga yo'naltirilgan vazifalarni amalga oshirish jarayoni bo'lib, pedagogik jarayonlarda ko'zlangan natijalarga erishish uchun belgilangan maqsadlar yo'nalishidagi sub'yekt (o'qituvchi-o'quvchi)lar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, pedagogik jarayonlarda bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatish orqali sub'yektlarning faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

Shunday ekan, ta'lim muassasalari o'qituvchilarining funksional vazifalaridan biri pedagogik jarayonlarda maqsadga erishish uchun ta'lim jarayoni sub'yekti sifatida o'quvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish va faolligini oshirishdan iborat bo'lib, ular o'z navbatida o'zini-o'zi, o'z faoliyatini, bir so'z bilan aytganda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqaradilar, mazkur faoliyat o'z navbatida o'qituvchilar va o'quvchilarning do'stona munosabatlarga asoslangan o'zaro hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini ifodalaydi.

Mazkur jarayonda do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini tashkil etish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon bu pedagogik jarayonning ta'lim-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari bo'lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, bajariladigan vazifalarni taqsimlash, belgilangan maqsadga

erishish uchun tashkil etiladigan jarayon ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish o'qituvchidan o'ziga xos bilim, ko'nikma va malaka, pedagogik va kasbiy mahorat, kasbiy tajriba va qobiliyat talab etadi.

Do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini tashkil etish jarayoni ta'lim-tarbiya jarayoni sub'yektlari hisoblangan o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatiga tegishli bo'lgan jarayon bo'lib, pedagogik jarayonlarda ko'zlangan natijalarga erishishda mazkur jarayonning samaradorligi o'qituvchining kasbiy kompetentligi darajasiga bog'liq bo'ladi. Lekin, ko'pchilik mutaxassislar ta'lim-tarbiya jarayoni hamda mazkur jarayon sub'yektlari faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining qancha muddat pedagogik faoliyat bilan shug'ullanganiga, ya'ni o'z pedagogik faoliyati jarayonida orttirgan tajribasiga bog'liq deb hisoblaydilar.

Bizning fikrimizcha, pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini barqaror rivojlantirishda o'qituvchilarning faoliyati samaradorligi asosan ularning pedagogik jarayonlar va ularni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatleri, shuningdek, qobiliyatlari, mahorati va kasbiy tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Chunki o'qituvchi shaxsi pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish hamda o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirishda boshqaruvchi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, o'qituvchi pedagogik jarayonlarni ham boshqaruvchisi, ham ishtirokchisi sifatida tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lish zaruriyati bejiz belgilanmagan.

Bu o'rinda biz, adabiyotlarda keltirilgan rahbar shaxsi va uning shaxsiy xususiyatlari hamda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlariga xos quyidagi talablarni pedagogik jarayonlarning boshqaruvchisi sifatida o'qituvchilarning shaxsiga ham tegishli deb hisoblaymiz.

Amir Temurning "Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega kishilardan bo'lishlari lozim: birinchisi – asillik, toza nasllilik; ikkinchisi – aql, farosatlilik; uchinchisi – sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalilik; to'rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik", deb aytgan fikrlarida o'qituvchi shaxsi va uning shaxsiy xususiyatlari hamda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlariga ham talablar qo'yilganligi o'z ifodasini topgan¹.

I.A.Karimovning "Barcha bo'g'inlarda insofli, diyonatli, bilimdon, tajribali rahbar boshchilik qilmas ekan, mustaqil mamlakatimizning obro'si, uning manfaati uchun mardlik, jonkuyarlik bilan ishlamas ekan, ishlarimiz ko'ngildagidek bo'lmaydi"², degan fikrlari ham pedagogik jarayonlarning samaradorligi o'qituvchilarning pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi bilimi, ko'nikma va malakalariga, ularning shaxsiga, kasbiy va shaxsiy sifatlariga bog'liqligini isbotlaydi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asosanib aytish mumkinki, o'qituvchining pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi bilimi, ko'nikma va malakalari, qobiliyati va imkoniyatlaridan ta'lim-tarbiya jarayonlarini boshqarishda, o'qituvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirishda qanday darajada foydalana olishi, qulay ta'limiy muhit darajasi va uning natijaviyligi, o'qituvchilarda shakllangan o'quv motivlari va qiziqish darajasi, refleksiv ta'limiy muhitning shakllanganligi ularning kasbiy kompetentligiga bog'liq bo'ladi.

Shunday ekan, ta'lim muassasasi o'qituvchilarining pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarish hamda qulay ta'limiy muhitni shakllantirishi uchun boshqaruvning turli xil zamonaviy usullarini bilishi va ularga asoslanishi, rivojlantiruvchi g'oyalar yo'nalishini aniqlay olishi, ilg'or tajribalarni va fan-texnika yutuqlarini muntazam o'rganib

¹ Temur tuzuklari / So'z boshi muallifi va mas'ul muharrir Muhammad Ali, forschadan tarj. A.Sog'uniy va H. Karomatov. – Toshkent: Sharq, 2005. – B.89-90.

² Karimov I. A. Inson baxt uchun tug'iladi. – Toshkent: "Sharq", 1998. – B. 39

borishi, ularni o'z faoliyatida tatbiq etishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish asosida ularning sub'yektivligi va faolligini oshira olishi zarur hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'quvchilarning faoliyatlarini takomillashtirish va ta'lim-tarbiya jarayonlarining samaradorligini oshirishning eng asosiy shartlaridan biri o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini tashkil etish zaruratidir. O'qituvchilarning innovatsion faoliyati -- yangiliklarni izlash, o'rganish va ularga asoslanish hamda ilmiy asoslangan ma'lumotlardan foydalanish, pedagogik, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy yangiliklarni o'zlashtirish asosida ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv texnologiyalarini joriy etish orqali pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlashdir.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'quvchilarning faollik darajasi va ta'lim-tarbiya jarayonlarining samaradorligi ko'p jihatdan pedagogik tizim komponentlarining o'ziga xos xususiyatlari va mazkur tizimni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha belgilangan vazifalar hamda pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va uning huquqiy asoslari, o'quvchilar jamoasining faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, boshqaruv faoliyati va uning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogika va ta'lim menejmentining asosiy tushunchalari va tamoyillari kabi yo'nalishlar bo'yicha ta'lim muassasasi o'qituvchilarining bilim, ko'nikma va malakalari darajasiga bog'liq.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, ta'lim muassasasi o'qituvchilari pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarishda innovatsion yondashuvlarga asoslanishi, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi, ixtiyoriy vaziyatlarda o'zini-o'zi nazorat qila olishi, shuningdek, ta'lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borishi, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanishi zarur bo'lib, bular o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini ifodalaydi.


Demak, kompetentlilik ta'lim muassasasi o'qituvchilarining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini tasvirlaydi. Mazkur salohiyatni ta'lim muassasasi o'qituvchilari pedagogik faoliyati jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular tomonidan tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

Shunday ekan, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda kompetentlilik o'qituvchining pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari darajasi, uning individual qobiliyatlari va malakasi, o'zini-o'zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida tashkil etilgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlanadi.

Mazkur fikrlar o'qituvchilar pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda tizimli yondashuv texnologiyasini tatbiq etish; pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish; pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish funksiyalari va vositalarini tanlash; pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini bilish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish; rahbarlik uslublari va ulardan oqilona foydalanish; ta'lim menejmenti asoslari; innovatsion faoliyatni tashkil etish; axborot texnologiyalari va kommunikatsion vositalardan foydalanish; ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asoslarda tashkil etish va boshqarish; davlat ta'lim standartlari va ularni amaliyotga tatbiq etish; axborotlar to'plash va ulardan foydalanish kabi yo'nalishlar bo'yicha zaruriy tushunchalarga ega bo'lishi zarurligini tasdiqlaydi.

O'qituvchilarga qo'yilayotgan talablar va keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini bir necha komponentlardan iborat tizim sifatida, ya'ni o'qituvchilarda shakllanishi zarur bo'lgan tushunchalar, bilim, ko'nikma va malakalar, qobiliyat va mahorat, kasbiy ahamiyatga

ega bo'lgan shaxsiy sifatlar hamda umuminsoniy xislatlar orqali ifodalash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Kasbiy kompetentlilik komponentlari

Demak, kompetentli o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish yo'nalishida zaruriy tushunchalarga ega bo'lgan, yosh davrlar psixologiyasini yaxshi biladigan, boy va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq eta oladigan, tegishli ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligi bor, yuksak pedagogik mahorat va boy kasbiy tajribaga ega bo'lgan pedagog shaxsini ifodalaydi.

O'z kasbining sirlarini chuqur biladigan, o'z kasbining ustasi bo'lgan, dunyoviy va diniy bilimlarga ega, omilkor va tadbirkor,

tashkilotchi va fidoiy, vatanparvar va mehribon, bag'rikenglik va xayrixohlik xislatlariga ega bo'lgan, bilganlarini boshqalarga o'rgatishga va muhtojlarga yordamini ayamaydigan shaxslar haqida gapirilganda "u mahoratli va mehribon" degan so'zdan foydalaniladi.

Mahorat – arabcha so'z bo'lib, mohirlik, ustalik, epchillik degan ma'nolarni anglatadi¹.

Mahoratli – arabcha so'z bo'lib, katta mahoratga ega va mohir, usta degan ma'nolarda qo'llaniladi².

Demak, ma'lum bir kasbga oid mahorat haqida fikr bildirilganda kasbiy mahorat atamasidan foydalaniladi. O'qituvchining kasbiy mahorati haqida fikr bildirilganda, uning pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, mazkur jarayon ishtirokchilarini faoliyatini muvofiqlashtirish, faolligini ta'minlash bo'yicha malakasi darajasini tushunish mumkin.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligi ta'lim muassasasi faoliyatini ilmiy asoslarda tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalar darajasi, uning tashkilotchilik, tadqiqotchilik, boshqaruvchilik va pedagogik qobiliyati va ko'nikmasi, uning o'zini-o'zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish, unda o'quvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari orqali aniqlanadi.

Demak, ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish, o'quvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, o'zini-o'zi va o'z faoliyatini o'zi tahlil qiladigan va ob'yektiv baholay oladigan, boy falsafiy va ma'naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. / Begmatov E., Madvaliyev A. va boshqalar.; A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 2-jild. B. 375.

² O'sha manba.

tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo'lgan, shuningdek, axborotlar to'plash, tahlil qilish, ob'yektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta'lim oluvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligiga va o'quvchilar faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko'rish ko'nikmalariga ega bo'lgan hamda ta'lim-tarbiya jarayoni sub'yektlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish, faolligini ta'minlash yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan pedagogni kompetentli o'qituvchi deyishimiz mumkin.

PEDAGOGIK KOMPETENTLILIK KO'RSATKICHLARI VA BAHOLASH MEZONLARI

O'qituvchilar ta'lim muassasasida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarish hamda qulay ta'limiy muhitni shakllantirishi uchun o'qitishning turli xil zamonaviy usullarini bilishi va ularga asoslanishi, rivojlantiruvchi g'oyalar yo'nalishini aniqlay olishi, ilg'or tajribalarni va fan-texnika yutuqlarini muntazam o'rganib borishi, ularni o'z faoliyatida tatbiq etishi, yangiliklarga asoslangan o'z innovatsion faoliyatini tashkil eta olishi zarur hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning faoliyatlarini takomillashtirish va o'quv jarayonini rivojlantirishning eng asosiy shartlaridan biri o'qituvchilarning pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etishining zarurligidir. Pedagogik jarayonlarning ilmiyligi – yangiliklarni tatbiq etish va innovatsiyalarning o'ziga hos xususiyatlariga asoslanish hamda ilmiy asoslangan ma'lumotlardan foydalanish, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning pedagogik, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini o'zlashtirish, shular qatori pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayoniga innovatsion yondashuv

texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalarni belgilaydi.

Pedagogik jarayonlarda o'qituvchilar tomonidan o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi quyidagi vazifalar bajarilishi zarur: belgilangan maqsadga erishish uchun vazifalar belgilash va belgilangan vazifalarni bajarish yo'nalishida tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, qaror qabul qilish; vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra ijrochilarni tanlash va bajariladigan vazifalarni taqsimlash; ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy ilmiy-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash; ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilish; DTS talablarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borish; o'z fani bo'yicha ta'lim jarayonining rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlash uchun o'quvchilar o'rtasida anketa so'rovlari va suhbat o'tkazish asosida axborotlar to'plash va tahlil qilish; ta'lim jarayonini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida belgilangan vazifalarni qayta ko'rib chiqish, yangilash; o'quvchilarning innovatsion faoliyat natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag'batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish.

Bizning fikrimizcha, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish faoliyatini tashkil etuvchi o'qituvchilar nafaqat pedagogik tajribaga, balki pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish funksiyalari va ularning vazifalari, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish metodlari va ulardan foydalanish, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish algoritmi va uning mohiyati, rahbarlik uslublari va ularni qo'llash kabi qator tushunchalarga ham ega bo'lishi zarur.

Amaliyotda ko'pchilik, o'qituvchilarning pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan uning o'z fanidan qancha muddat, ya'ni necha yildan beri dars o'tayotganligiga, ya'ni pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonida orttirgan tajribasiga bog'liq deb hisoblaydi. Aslida esa, o'qituvchilarning pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish faoliyati samaradorligi asosan ularning

pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalari darajasiga, bir so'z bilan aytganda, pedagogik kompetentligiga bog'liq bo'ladi.

Shunday ekan, o'qituvchi har qanday vaziyatlarda ham o'zini tuta olishi, tashabbuskor bo'lishi, har qanday vaziyatlarda o'quvchilar faolligini ta'minlay olishi, taraqqiyot bilan barobar qadam tashlashi, pedagogik jarayonlarda o'quvchilar bilan hamkorlik, hamjihatlik, hamijodkorlik bilan ish yuritishi, kasbiy-uslubiy mahorat egasi bo'lishi, ijodkor, bunyodkor va yaratuvchan bo'lishi, talabchan va mehribon, vaqtning qadriga yetadigan, xushmuomala inson bo'lishi kerak.

Shuningdek, o'qituvchi birinchi navbatda davlat siyosatini, ta'lim sohasiga oid bo'lgan me'yoriy hujjatlarni, ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish qoidalarini chuqur bilishi hamda ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va mazkur tizimni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha belgilangan vazifalar hamda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va uning huquqiy asoslari, o'quvchilar jamoasining faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish faoliyati va uning o'ziga xos xususiyatlari, asosiy tushunchalari va tamoyillari kabi qator tushunchalarga va ularni o'z faoliyatida qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur.

O'qituvchining kasbi ixtiyoriy boshqa kasblar kabi professional faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxsga nisbatan o'ziga xos talablar belgilaydi. O'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablarning eng asosiylaridan biri pedagogik kompetentligi, ya'ni ta'lim jarayonida innovatsion jarayonlarni tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq funksiyalarni bajarish va mavjud bo'lgan muammolarni o'quvchilar bilan birgalikda, kollegial hal qilishni tashkil etish faoliyatini takomillashtirib rivojlantirishdan iborat.

Demak, o'qituvchilar pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda innovatsion yondashuvlarga asoslanishi, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi, ixtiyoriy vaziyatlarda o'zini-o'zi nazorat qila olishi, shuningdek, ta'lim

muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borishi, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanishi zarur bo'lib, bular ham o'z navbatida o'qituvchining pedagogik kompetentligi komponentlarini ifodalaydi.

Pedagogik kompetentlik o'qituvchilarning ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini tasvirlaydi. Pedagogik kompetentlik o'qituvchining pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari darajasi, uning individual qobiliyatlari va malakasi, o'zini-o'zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida ta'limiy jarayonlarni boshqarish imkoniyatlari orqali aniqlanadi.

Shunday ekan, o'qituvchi boshqaruv yo'nalishidagi hamda pedagogik tushunchalarni o'zlashtirmasdan pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish faoliyati bilan shug'ullanishi maqsadga muvofiq emas, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda pedagogik kompetentlik ikki asosiy: boshqaruv va pedagogik komponentlarini o'z ichiga oladi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish komponentlarining asosiy ko'rsatkichlari sifatida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish funksiyalarini bajarishda zamonaviy metod va vositalardan foydalanish; pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish metodlari va rahbarlik uslublaridan foydalanishda tashqi muhitning o'zgarishlarini inobatga olish; pedagogik jarayon sub'yektlari hayotiy faoliyatini mavjud vaziyatlarga mos ravishda ta'minlash; pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalaridan foydalanish; pedagogik jarayon sub'yektlari faoliyatini boshqarishda ta'lim menejmenti asoslarini amaliyotga tatbiq etishni hamda pedagogik komponentlarning asosiy ko'rsatkichlari sifatida ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va zamonaviy ilmiy-metodik

mahsulotlar bilan ta'minlash; davlat ta'lim standartlarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borish, o'quvchilar o'rtasida anketa so'rovlari va test sinovlari o'tkazishni keltirish mumkin.

Demak, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, o'qituvchi kasbiy tayyorgarligining asosi bu uning kompetentligidir, kasbiy kompetentlik – bu kasbiy bilim, ko'nikma va malakalari darajasining yuqoriligi bo'lsa, pedagogik kompetentlik – qator zaruriy umuminsoniy sifatlarga ega bo'lishidir deb aytish mumkin.

Kasbiy kompetentlik o'qituvchidan qator yo'nalishlar bo'yicha, ya'ni pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda tizimli yondashuvni tatbiq etish; pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish funksiyalari, vositalari, metodlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini va ularni amalga oshirish usullarini bilish; rahbarlik uslublari va ulardan oqilona foydalanish; o'quv-me'yoriy hujjatlar bilan ishlash; ta'lim menejmenti asoslarini bilish; axborot texnologiyalari va kommunikatsion vositalardan foydalanish; ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish masalalarini; davlat ta'lim standartlari va ularni amaliyotga tatbiq etish mezonlarini; axborotlar to'plash metodlari va ulardan foydalanishni bilishi va mazkur yo'nalishlar bo'yicha zaruriy tushunchalarga ega bo'lishi zarur.

O'qituvchilar pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, pedagogik jarayon sub'yektlarini kasbiy va shaxsiy jihatdan rivojlantirish, ma'naviy boyitish hamda intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan qulay ta'limiy muhitni barqarorlashtirish zaruriyatidan kelib chiqib, o'qituvchilarning kompetentligini kichik uch tizim, ya'ni bilishi zarur bo'lgan tushunchalar, o'zlashtirishi zarur bo'lgan ko'nikmalar va ularda shakllantirilishi zarur bo'lgan kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlar orqali ifodalash mumkin:

- ta'lim oluvchilar faoliyati samaradorligini tahlil qilish va ob'yektiv baholashga xizmat qiluvchi reflektiv ko'nikmalar;

- ta'lim oluvchilarning xatti-harakatlarining natijalarini hamda o'rganilishi rejalashtirilgan mavzuni o'zlashtirishga tayyorgarligini oldindan his etish ko'nikmalari;

- ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko'rish ko'nikmalari;

- pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta'lim oluvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmasi;

- pedagogik jarayonlarda samaradorlikka va o'quvchilar faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash ko'nikmasi;

- o'quvchilarda ijobiy o'quv motivlarini shakllantirish va vaziyatlarga ko'ra o'qituvchilik uslublaridan oqilona foydalanish ko'nikmasi;

- o'quvchilar bilan o'zaro til topishish, ya'ni muloqotga oson kirishish ko'nikmasi;

- pedagogik jarayonlarda o'quvchilarni faolligini ta'minlash, ularni hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga undash ko'nikmasi;

- axborotlar to'plash, tahlil qilish, ob'yektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish ko'nikmasi

- turli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatishdan iborat bo'lgan, o'quvchilar o'rtasidagi shaxsiy va texnologik axborotlarning almashuvini tashkil etuvchi axborotlar bilan ishlash funksiyalari va ulardan foydalanishni bilishi;

- dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi;

- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi;

- ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

- insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlarni qabul qila olishi;

- tegishli yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tasavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chinqirtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish;
- ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ilg'or pedagogik tajribalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish, innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarishni bilishi;
- xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta'limning barcha turlari mazmunini, ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligini, uzluksiz ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta'minlash;
- shaxslararo va tabiat bilan bo'lgan munosabatlarda faol va adolatli hamda muhabbatli bo'lish;
- o'zligini anglash, o'zini va boshqalarni hurmat qilish, o'zini-o'zi boshqara olish va o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- shaxsiy manfaatlarini umummilliy manfaatlar bilan uyg'un holda ko'ra olish;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish jarayonlarida faol ishtirok etish;
- mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarida faollik ko'rsatish;
- milliy an'ana, urf-odatlar va qadriyatlarimizni asrab-avaylash, yosh avlod qalbi va ongiga, ona-yurtga muhabbat, istiqbolga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirishga intilish;
- ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'

rikenglik kabi tamoyillarning mazmun-mohiyatini o'quvchilarga tushuntirishda prinsipiiallik;

- tizimli fikrlash, keng dunyoqarash va refleksiv tafakkurga ega bo'lish;

- tadqiqotchilik va tahliliy faoliyatga, ilg'or tajribalarni o'rganish, pedagogik mahoratni oshirish, mustaqil ta'lim olish va o'zini-o'zi rivojlantirishga, innovatsion jarayonlarga va yangiliklarga moyillik;

- oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, o'zgaralar muvaffaqiyatini oqilona baholash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishda adolatlilik.

O'qituvchining pedagogik kompetentligi yo'nalishida qo'yilayotgan eng asosiy talablardan biri ona-yurtga muhabbat va sadoqat, Vatan va vatanparvarlik tuyg'ularini o'quvchilar qalbi va ongiga singdirish, o'quvchilarda mustaqil O'zbekiston ramzlarining mazmun va mohiyati, milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar va rasm-rusumlar, mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati yo'nalishidagi tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq funksiyalarni bajarish yo'nalishidagi tashkilotchilik, tadqiqotchilik va ijodkorlik qobiliyatlari hamda muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarning shakllanganlik zaruratlarini o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar, davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlaridan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlariga moslashuvchan, o'zini-o'zi rivojlantiruvchi, keng dunyoqarashga, erkin va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, o'tmish saboqlari va avlod-ajdodlarimizning bebaho boyligi hamda umumbashariy qadriyatlarga tayanadigan ma'naviy boy va iymon-e'tiqodli, Vatanga, ota-onaga, aka-uka, opa-singil va yoru do'stlariga sodiq, muxtasar qilib aytganda, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan, moslashuvchanlik va tezkorlikni

ta'minlovchi takomillashgan ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish zaruriyatini belgilamoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish yo'nalishida qo'yilayotgan zamonaviy talablar o'qituvchilarda shakllantirilishi va rivojlantirilishi zarur bo'lgan muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarning quyidagi ko'rsatkichlarini nazarda tutadi:

- Vatanni sevish, ona yurtiga, ota-onasiga va yoru do'stlariga sadoqatli bo'lish va e'tiqod qilish;

- mustaqil respublikamiz konstitutsiyasi va qonunlari, davlatimiz ramzlari, milliy urf-odatlar va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va rivojlanishlar hamda ularning natijalariga qiziqish va e'tiborli bo'lish;

- tinchlik, mustaqillik, erkinlik va bag'rikenglikning ahamiyati va zaruriyatini tushunib yetish;

- tarixni bilish va vaziyatlarga ko'ra o'tmishni va bugungi kundagi taraqqiyotni ob'yektiv baholash;

- mustaqillik davrida yashayotgan bugungi kunning qadriga yetish va faxrlanish, kelajakka ishonch bilan yashash va ijod qilish;

- shaxslararo va tabiat bilan bo'lgan munosabatlarda faol va adolatli hamda muhabbatli bo'lish;

- o'zligini anglash, o'zini va boshqalarni hurmat qilish, o'zini-o'zi boshqara olish va o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;

- shaxsiy manfaatlarini umummilliy manfaatlar bilan uyg'un holda ko'ra olish;

- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish jarayonlarida faol ishtirok etish;

- mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarida faollik ko'rsatish;

- milliy an'ana, urf-odatlar va qadriyatlarimizni asrab-avaylash, yosh avlod qalbi va ongiga, ona-yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirishga intilish;

- ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning mazmun-mohiyatini o'quvchi-yoshlarga tushuntirishda prinsipiiallik;

- tizimli fikrlash, keng dunyoqarash va reflektiv tafakkurga ega bo'lish;

- Vatan va kelajak oldidagi burchini anglash;

- tadqiqotchilik va tahliliy faoliyatga, ilg'or tajribalarni o'rganish, pedagogik mahoratni oshirish, mustaqil ta'lim olish va o'zini-o'zi rivojlantirishga, innovatsion jarayonlarga va yangiliklarga moyillik;

- oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, o'zgarlar muvaffaqiyatini oqilona baholash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishda adolatlilik.

Mazkur ko'rsatkichlarga asosan o'qituvchilarda shakllantirish va rivojlantirish zarur bo'lgan qobiliyatlar, shaxsiy sifatlar, tushunchalar, bilim, ko'nikma va malakalarga ko'ra pedagogik kompetentlilikni baholash mezonlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin (1-jadval):

Pedagogik kompetentlikni baholash mezonlari

Pedagogik kompetentlik komponentlari	Bilim	Ko'nikma va malaka	Tajriba
Tashkilotchilik	Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish	Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirishga tizimli yondashuvni joriy etish; fanlararo bog'liqlik va aloqadorlikni ta'minlash, o'quvchilarga milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar va rasm-rusumlar haqida tushunchalar berish;	Ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanilayotgan va foydalanish uchun tayyorlanayotgan fan dasturlari, ma'ruza matnlari, ilmiy-metodik qo'llanma va tavsiyalar tayyorlash; xalq pedagogikasi manbalari, sharq mutafakkirlarining g'oyalari va qarashlari hamda Prezident I.A.Karimov asarlaridan foydalanish.
	Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish	O'quvchilarda mustaqil O'zbekiston ramzlari, milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar va rasm-rusumlar, mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati yo'nalishlarida tushunchalarni shakllantirish.	Pedagog xodimlar va o'quvchilar o'rtasida mustaqillik, uning mazmun-mohiyati va zaruriyati yo'nalishlarida davra suhbatlari, o'quv seminarlari, konferensiyalar va yozma ishlar tanlovini o'tkazish, g'oliblarni rag'batlantirishni tashkil etish.
	Ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish	O'qituvchilar hamda o'quv laboratoriya va o'quv ustaxonalari mudirlari, mashq maydonchalariga birlashtirilgan mutaxassislariga metodik yordam ko'rsatish;	O'quv-metodik birlashma va fan uyushmalari faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish; ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi uchun zarur me'yoriy va uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish va

			takomillashtirib borish; fanlar bo'yicha o'tkaziladigan olimpiadalarga hamda ko'rik tanlovlarga o'quvchilarni tayyorlash bo'yicha metodik tavsiyalar tayyorlash.
	O'quvchilar faoliyatini tashkil etish	O'quvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini o'rganish asosida ularning o'quv faoliyatini takomillashtirish, madaniy-ommaviy tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga, ijodkorlik ko'rgazmalarida qatnashishga o'quvchilarni jalb qilish va ularning faolligini ta'minlash.	O'quvchilarning darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini tashkil qilishga, qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan to'garak mashg'ulotlarini olib borish.
	Me'yoriy hujjatlar bilan ishlash	Ta'lim va yoshlar to'g'risidagi hukumat tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunish hamda targ'ibot qilish; me'yoriy hujjatlarni o'rganish va ular asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.	O'quvchilarga DTS talablari asosida bilim berish va ularning o'zlashtirish ko'rsatkichlari monitoringini olib borish.
	Ta'lim menejmenti asoslari	Pedagogik jarayonlarni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash	Pedagogik jarayonlar ishtirokchilari faoliyati va o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish hamda ularda o'quv motivlarini shakllantirish.

Tadqiqotchilik	Axborotlar to'plash	O'quvchilar uchun zarur va qulay bo'lgan shart-sharoitlarni yaratuvchi ijodiy muhitni vujudga keltirishga xizmat qiladigan axborotlarni to'plash.	Axborotlarni o'rganish va tahlil qilish asosida ularning yangiligi va ishonchligini ob'yektiv baholash.
	Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari	Ta'lim-tarbiya jarayonlarida axborotlar va kommunikatsion vositalardan keng foydalanish.	Diniy ekstremizm va fundamentalizmning asl mohiyatini va uni AKT orqali tarqalish zararlarini o'quvchilarga uqtirish.
	Tarbiyaviy munosabatlar	O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarda o'quvchi shaxsi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlarning ob'yektiv holatini aniqlash.	Pedagogik jarayonlarda tarbiyaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda shaxsga yo'naltirilgan ta'sirni vujudga keltirish.
	Refleksiv yondashuv	Milliy urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va rasm-rusumlarni o'rganish bo'yicha o'quvchilarning ijodiy guruhini tuzish va unga rahbarlik qilish.	Refleksiv yondashuv asosida o'quvchilarda Vatanga muhabbat va sadoqatni rivojlantirish.
	Pedagogik jarayonlarning samaradorligi	Pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash; o'quvchilar faolligi va mustaqil faoliyatining ahamiyatini aniqlash; o'quvchilarning mustaqil faoliyati, ya'ni mustaqil ta'lim olishlari uchun motivlashtirish.	O'quvchilarni ilm olishga, ularning faolligini ta'minlashga, mustaqil o'rganishga, mustaqil ta'lim olishga va o'zini-o'zi tarbiyalashga yo'naltiruvchi motivlar va vositalarni tanlash.
Ijodkorlik	Ijodiy yondashuv	O'rganilishi rejalashtirilgan mavzular bo'yicha o'quvchilarning boshlang'ich tushunchalarini aniqlash, maqsadga	O'quvchilar uchun teng va yetarli darajada shart-sharoitlar yaratish hamda ularning faolligini ta'minlovchi

		erishish uchun eng qulay bo'lgan vositalarni tanlash asosida ijodiy yondashuvni joriy etish; o'quvchilarni ijodkorlik ishlariga jalb etish; o'quvchilarning ijodiy ishlarini bajarishida ularga yaqindan yordam ko'rsatish.	ijodiy ta'limiy muhitni vujudga keltirish. to'garaklar va o'quvchilarning turli ijodiy ishlarini tashkil etish uchun qo'llanmalar tayyorlash.
	Tashkilotchilik	O'rganiladigan mavzuga o'quvchilarning qiziqishini rivojlantirish orqali faolligini ta'minlash, turli mavzularda mushoira, tanlov va bellashuvlar tashkil etish.	Ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'quvchilarni hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish asosida ularning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish.
	Motivlashtirish	Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning adabiyotlar va turli manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'quv jarayonida mavzular bo'yicha adabiyotlar tanlash, belgilangan maqsadlarga erishish rejalarini tuzish, topshiriqlar yo'nalishidagi muammolarni aniqlash va yechimni topish ishlariga o'quvchilarni jalb etish.	
	Pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish	Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning innovatsion modellarini ishlab chiqish; o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantiruvchi vaziyatlarni vujudga keltiruvchi, moslashuvchan metodlar va texnologiyalarni o'rganiladigan mavzular mazmuniga ko'ra aniqlash;	Qulay ta'limiy muhitni vujudga keltirishda samarali hisoblangan metodlar, tizimli, vaziyatli, texnologik, refleksiv, tadqiqiy, integrativ, milliy-hududiy, shaxs-faoliyat, etnik, innovatsion yondashuv texnologiyalari va zamonaviy talablar asosida ta'lim-

		o'quvchilarning ehtiyojlari, boshlang'ich tushunchalari, qiziqishlari hamda mustaqil ta'lim jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni inobatga olgan holda mavzularni ma'lum bir izchillikda o'rganilishini ta'minlash.	tarbiya jarayonini loyihalashtirish;
Shaxsiy sifatlar	Vatanparvarlik	Vatanni sevish, ona yurtiga, ota-onasiga va yoru do'stlariga sadoqatli bo'lish va e'tiqod qilish; mustaqil respublikamiz konstitutsiyasi va qonunlari, davlatimiz ramzlari, milliy urf-odatlar va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;	Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va rivojlanishlar hamda ularning natijalariga qiziqish va e'tiborli bo'lish; tinchlik, mustaqillik, erkinlik va bag'rikenglikning ahamiyati va zaruriyatini tushunib yetish.
	Insonparvarlik	O'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o'z imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish; oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, o'zgalar muvoffaqiyatini oqilona baholash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishda adolatlilik.	Shaxslararo va tabiat bilan bo'lgan munosabatlarda faol va adolatli hamda muhabbatli bo'lish; o'zini va boshqalarni hurmat qilish, o'zini-o'zi boshqara olish va o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;

	Fidoyilik	Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish, ota-bobolarimiz qoldirgan madaniy meroslarni to'plash, o'rganish, avaylab saqlash va targ'ib qilish.	Xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish jarayonlarida faol ishtirok etish; mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarida faollik ko'rsatish.
	Prinsipiallik	Tarbiyaviy munosabatlar jarayonida insoniy omillarga asoslanish, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning mazmun-mohiyatini o'quvchi-yoshlarga tushuntirishda prinsipiallik; pedagog shaxsiga xos xatti-harakatlarni namoyon etish.	Ehtiroslarga berilmaslik; vaziyatlarga mos ravishda o'quvchilarning hissiyotga berilish holatlarini muvofiqlashtirish asosida ularda mehribonlik, qo'llab-quvvatlash, mehr-oqibat, o'zaro hurmat va ishonch tuyg'ularini shakllantirish.

Mazkur jadvalda keltirilgan ma'lumotlar pedagogik kompetentlilik – bu tashkilotchilik, tadqiqotchilik, ijodkorlik qobiliyatlari va muhim ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni o'z ichiga oluvchi o'zaro bog'liq bo'lgan komponentlar majmui ekanligini ifodalagan holda pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, mazkur jarayon ishtirokchilariga zaruriy sharoitlarni yaratib berish yo'nalishlarida o'qituvchining shaxsiy imkoniyatlarini ifodalaydi.

Shuningdek, UO'TMda pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va uni samarali boshqarish barcha o'qituvchilardan mukammal shakllangan va yuqori darajada rivojlangan pedagogik qobiliyatni talab etadi. Chunki, o'qituvchi faoliyati samaradorligi ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan suhbat, tushuntirish va ko'rsatmalar berish, motivlashtirish asosida ularning faolligini oshirish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda munosabatda bo'lish hamda innovatsion faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish jarayonlarida o'z ifodasini topadi.

Shunday ekan, UO'TM o'qituvchilari faoliyati samaradorligi ularning tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ijodiy, kommunikativ va boshqa ko'nikma va malakalari qatori pedagogik qobiliyatlariga ham bevosita bog'liq hisoblanadi.

UO'TM o'qituvchisi faoliyati samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblangan ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni takomillashtirish negizi boshqariladigan ob'yekt va boshqaruvchi sub'yekt tizimlaridan tashkil topadi. Bu tizim o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlari hamda pedagogik jarayon (ob'yekt)dagi faolligining bog'liqligi va aloqadorligidan tashkil topadi.

Shunday qilib, UO'TM o'qituvchisi faoliyati o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar ishtirokchilari faoliyatini tashkil etish va boshqarishdan iborat bo'lib, ular o'z navbatida ta'lim jarayonini va didaktik vositalarni boshqaradilar. Demak, UO'TM o'qituvchisi faoliyati samaradorligi ta'lim jarayonidagi intizom, o'quvchilar faolligi, ta'lim jarayoni samaradorligi va o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari darajasi orqali ifodalanadi va bu o'z navbatida o'qituvchining pedagogik kompetentligiga bog'liq bo'lib, ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'quv faoliyatida chorasizlik va majburiylik o'rnini ijodiy yondashuvlar egallashiga xizmat qiladi.

Intellectual faollik, sabrlik va chidamlilik, ijodkorlik va yaratuvchanlik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik, notiqlik va talabchanlik, nazoratga moyillik va kuzatuvchanlik, ishonтира olish

va xotirada saqlab qolish, tarbiyaviy munosabatlarda faollik va o'rnak bo'lish hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish va liderlik xususiyatlarini shakllanganligi va yuqori darajadagi rivojlanganligini UO'TM o'qituvchisining pedagogik kompetentligi komponentlari deb aytishimiz mumkin.

Demak, o'z pedagogik faoliyatida o'qituvchi uchun eng zarur bo'lgan xususiyatlardan biri pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish va mazkur jarayon ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish yo'nalishidagi notiqlik va talabchanlik, nazoratga moyillik va kuzatuvchanlik, ishonтира olish va xotirada saqlab qolish, tarbiyaviy munosabatlarda faollik va o'rnak bo'lish kabi xislatlarini uning pedagogik kompetentligi deb hisoblab, pedagogik kompetentlikning tashkiliy tizim sifatida uning komponentlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

O'qituvchining ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyatini tashkil etish, boshqarish va muvofiqlashtirish, turli vaziyatlarda ko'zlangan maqsadning mazmun va mohiyatini, unga erishish yo'llarini va mazkur yo'nalishdagi vazifalarni barcha o'quvchilarga aniq va ravshan, tushunarli tarzda yetkazish, ularda mazkur vazifalarni bajarishga qiziqishini shakllantirish va motivlashtirish, shuningdek maqsadga erishishda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va ongli intizomni vujudga keltirish yo'nalishidagi imkoniyati, ya'ni tasavvuri, tushunchalari, bilim, ko'nikma va malakasi, tajribasi va faolligini uning didaktik qobiliyati komponentlari sifatida keltirish mumkin.

Kasbiy ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlar sifatida didaktik qobiliyatning mazkur komponentlari shakllangan o'qituvchilarda turli vaziyatlarda, ya'ni muammoli vaziyatlarda ham vaziyatli yondashuvni samarali tatbiq etish, maqsadli-motivlashtirish funksiyalaridan o'z vazifasiga ko'ra to'g'ri foydalanish, o'quvchilar fikrini o'rganish, tahlil qilish va ob'yektiv baholash ko'nikmalari shakllangan bo'ladi. Bular asosida o'quvchilarning psixologik xususiyatlariga mos doimiy yo'naltirish yotadi va bunday qobiliyat egasi bo'lgan pedagog o'z

o'quvchilarining bilimi, ko'nikma va malakasi, dunyoqarashini, qiziqishlarini, ta'lim jarayonida o'zaro bevosita ta'sirlar mavjudligini tasavvur qila oladi.

O'qituvchining o'quvchilar ichki dunyosiga kira bilishi, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchilarning vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog'liq nozik tomonlarini tushuna bilishi, ularning turli vaziyatlardagi xatti-harakatlari, ya'ni turli xil topshiriqlarni bajarish jarayonida yorqin ifodalanadigan, o'quv faoliyati jarayonida tashqi hamda ichki dunyosida yuzaga keladigan o'zgarishlarni ko'ra bilishi uning perseptiv qobiliyatining rivojlanganlik darajasini belgilaydi.

Qulay ta'limiy muhit shakillangan pedagogik jarayonlarda o'quvchilar o'qituvchini tinglamay, balki eshitishi va tezda oson tushunishi zarur. Shunday ekan, berilayotgan topshiriqni o'quvchilar tomonidan o'z vaqtida ko'ngildagidek bajarilishi uchun ularga topshiriqning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunarli tarzda yetkaza olishi uning notiqlik qobiliyati bo'lib, bunda o'qituvchining nutqi jonli, obrazli, aniq-ravshan, intonatsiyali va ifodali, emotsiyaga boy, dona-dona hamda stilistik va grammatik jihatdan bexato bo'lishi lozim.

O'qituvchining turli vaziyatlarda (dars, suhbat, maslahat, nasihat jarayonlari) o'z fikrini, his-tuyg'ularini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berishi hamda pedagogik jarayon sub'yektlari hisoblangan o'quvchilarning o'quv faoliyatini ma'lum yo'nalishda tashkil qilish yoki kerakli yo'nalishda o'zgartirishga bilvosita ta'sir ko'rsata olishi nutq qobiliyatining rivojlanganlik darajasini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning hamjihatligini uyushtira bilish, ya'ni o'quvchilar o'rtasida ahillik, birdamlik va hamkorlikni vujudga keltirish, ularni jipslashtira olish hamda o'z faoliyatini to'g'ri rejalashtirishi va to'g'ri tashkillashtira olishi, ya'ni, o'quvchilarning imkoniyatiga ko'ra to'g'ri topshiriqlar berish, topshiriq ijrosini nazorat qilish va bajarilishini ta'minlash,

o'quvchilar faoliyatini ob'yektiv baholash o'qituvchining tashkilotchilik qobiliyati ifodasidir.

UO'TM o'qituvchisining o'quvchilar bilan ijobiy muloqotda bo'lishi, pedagogik muloqotini to'g'ri tashkil etishi, o'quvchilar ko'ngliga to'g'ri yo'l topa bilishi, ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashi, pog'onaviylikni minimal darajada bo'lishi hamda unda pedagogik taktning mavjudligi kommunikativ qobiliyati darajasini ifodalaydi.

Pedagogik takt o'qituvchining vaziyatga ko'ra pedagogik jarayon sub'yektlarini rag'batlantirish, jazolash, pand-nasihat qilish holatlarini va uning natijasini oldindan his eta bilish qobiliyati hisoblanadi. Pedagogik taktga ega bo'lgan o'qituvchi pedagogik jarayon sub'yektlariga yoki ma'lum hodisa yoki voqelikning ishtirokchilari (sababchilari)ga e'tibor berib ziyorlik bilan qaraydi, ularning individual psixologik xususiyatlari bilan hisoblashadi, eng muhimi – o'quvchilarga ta'sir etishning eng qulay usullaridan oqilona foydalanishni biladi, tarbiyaviy ta'sirni qo'llashda maqsadga muvofiq pedagogik choralarga e'tibor beradi, o'quvchi shaxsining psixologik xususiyatlari va uning imkoniyatlarini hamda mazkur pedagogik holatlarning natijaviyligini oldindan hisobga olib faoliyat yuritadi.

Shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va boshqa xislatlari tug'ma, ba'zilari keyinchalik shakllangan bo'lib, ularning takomillashish jarayoni rivojlanishni ifodalaydi. Demak, rivojlanish shaxsning mehnat faoliyati, o'yin faoliyati yoki o'quv faoliyati jarayonida amalga oshadi.

Shunday ekan, insonga xos buyuklik, salohiyatlilik, jiddiylik, bosiqlik, moslashuvchanlik, madaniyatlilik, odoblilik, tabiiylik, odillik, oddiylik kabi umuminsoniy xislatlar; odamiylik, qanoatlilik, jonkuyarlilik, mehribonlilik, oliyjanoblik, oliy himmatlilik, baynalminallik, sodiqlik, kechirimlilik, andishalilik, shaxsiy manfaatdan ijtimoiy manfaatdorlikni yuqori qo'ya olishlik kabi axloqiy xislatlar; tirishqoqlik, mas'uliyatlilik, halollik, chaqqonlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, chidamlilik, sabr-toqatlilik,

bardoshlilik, tejamkorlik, extiyotkorlik, saxiylik, mardlik, ziyraklik, ijodkorlik, tanqidiylik, diqqatlilik, bilimdonlik, saviyalilik, hozirjavoblilik kabi pedagoglarga xos kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy xislatlar o'qituvchilarda shakllangan bo'lishi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik kompetentlilik o'qituvchilarning tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalarida ko'rinmaydi, balki ulardan foydalanish jarayonlarida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, pedagogik kompetentlilikning shakllanganlik va rivojlanganlik darajasi o'qituvchilarning tajribasiga, ya'ni kasbiy tajribasiga bog'liq holda pedagogik mahoratiga asoslanadi.

O'qituvchi tomonidan ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va ularni pedagogik faoliyatida qo'llashni ta'minlab beruvchi ko'nikmalar tizimi kasbiy tajriba bo'lib, bu o'qituvchining o'z faoliyati davomida fan-texnika yangiliklariga, ilg'or tajribalarga tayanishi hamda mazkur tajribalar asosida o'zining ko'nikma va malakalarini rivojlantirib borishi asosida pedagogik mahoratning vujudga kelishidir.

Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini tushunish, ularning ichki kechinmalarini his qilish, o'zini-o'zi boshqara olishi, hissiyotlarga berilmaslik, vaziyatlarga ko'ra o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtira olish pedagogik mahoratning asosiy komponentlaridan bo'lib, pedagogik kompetentlilikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligi ularning o'ziga va o'z ishiga nisbatan talabchanligi, o'z ishini ustasi bo'lishi, o'z sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilishi, o'zini-o'zi rivojlantiruvchi hamda o'z qobiliyati va imkoniyatlarini to'la ishga sola bilishi, ta'lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligini yo'lga qo'ya olish darajalari bilan belgilanadi deb aytish mumkin.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda zamonaviy o'qituvchi shaxsi tuzilmasi ishlab chiqildi (2-rasm).



2-rasm. Zamonaviy o'qituvchi shaxsi tuzilmasi

O'QITUVCHILAR KASBIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING KORPORATIV ASOSLARI

Ajdodlarimiz bizga inson mehnatining minglab ajoyib namunalari, san'at, fan, adabiyotga doir jahonga mashhur asarlarni qoldirganlar. Ular azaldan yosh avlod ta'lim-tarbiyasini o'zlarining eng muhim vazifalari sifatida ko'rganlar. Asrlar mobaynida insonga ta'lim-tarbiya berishning asosiy tamoyillarini hisobga olgan xalq pedagogikasi rivojlanib va takomillashib kelgan. Yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, Vatanga muhabbat va o'zaro hurmat ruhida tarbiyalash xalq pedagogikasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi olimlari yaratgan o'lmas asarlar dunyo fani va sivilizatsiyasiga qo'shilgan mislsiz hissadir. Ular orasida Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Ali ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Saolibiy, Abu Abdulloh Iloqiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy va boshqalarning asarlarida saxovatlilik, insonparvarlik, halollik, do'stlik, Vatanga muhabbat, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabat, mehnatsevarlik, sabr-qanoatlilik, xushmuomalalik, mardlik, e'tiqodlilik, adolatlilik, sadoqatlilik, ijodkorlik, zukkolik, poklik, to'g'rilik kabi sifatlarni yoshlarda tarbiyalash ta'lim-tarbiyaning asosiy yo'nalishlari sifatida keltirilgan.

O'qituvchilarning malakasini oshirishga belgilangan davlat talablarining mazmun-mohiyati hamda bugungi kundagi ahamiyati o'qituvchilar pedagogik faoliyati samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari bilim, ko'nikma va malakalardan iborat ekanligini tasdiqlaydi hamda uzluksiz malaka oshirish jarayonlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish zaruriyatini belgilaydi.

Mazkur talablarning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, malakaviy darajasi bakalavr bo'lgan pedagoglar nafaqat

o'qituvchi, baiki turli lavozimlarda, ya'ni ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, guruh rahbari, tarbiyachi yoki to'garak rahbari vazifalarida faoliyat ko'rsatishi mumkinligi va unda o'quvchilarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi ma'naviy va ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishi va boshqarishi hamda turli tadbirlarni tashkil etish uchun zarur bo'lgan tushunchalarni shakllantirish zaruriyati inobatga olinganligini ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlariga qo'yiladigan talablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari ta'lim muassasasining ma'naviy-ma'rifiy ishlarini, tarbiyaviy jarayonni boshqarishi, yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy g'urur, yuksak axloq va buyuk ajdodlar ma'naviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishi va bajarilishini ta'minlashi, o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini tarbiyaviy ishlar bilan birgalikda olib borishi;

- xalqimizning boy ma'naviy-madaniy merosi, sharqona va umumbashariy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni, millatlararo do'stlik, hamjihatlikning ahamiyatini, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, mintaqamizda yashayotgan millatlarning madaniy, ma'rifiy, ma'naviy taraqqiyot ildizlari mushtarak ekanligini targ'ib qilishi, diniy ekstremizm va fundamentalizmning asl mohiyatini o'quvchilarga ochib berishi;

- o'quvchilarda sog'lom dunyoqarash va siyosiy madaniyatni shakllantirishga rahbarlik qilishi, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari tizimi uchun zarur me'yoriy va uslubiy hujjatlarni, tadbirlarni ishlab chiqishi va tarbiya jarayonini boshqarishni takomillashtirib borishi uning lavozim vazifalariga belgilangan talablar sifatida keltirilgan.

Tarbiyachi o'quvchilarning darsdan tashqari ta'lim-tarbiya, ijtimoiy foydali va madaniy hordiq chiqarish ishlarini pedagog va ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etishi hamda o'tkazishi, mazkur jarayonda o'quvchilarda yuksak madaniyatni, axloqiy

sifatlarni, o'qish, mehnat qilish ko'nikmalarini shakllantirishi; O'zbekiston xalqining boy milliy madaniy-tarixiy an'analari, urf-odatlari, rasm-rusumlari va qadriyatlari haqida o'quvchilarga ma'lumotlar berish, ularga mustaqil O'zbekiston ramzlarining mazmun va mohiyatini, mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini tushuntirish asosida ularni vatanparvarlik, insonparvarlik va demokratik ruhda tarbiyalashi uning lavozim vazifalariga belgilangan talablar sifatida keltirilgan.

Shuningdek, lavozim vazifalariga belgilangan talablarda to'garak rahbari yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy g'urur, yuksak axloq, buyuk ajdodlar merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga, qiziqishlarini qondirishga, darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini tashkil qilishga qaratilgan to'garak mashg'ulotlarini olib borishi uning funksional vazifalari sifatida keltirilgan.

Shunday ekan, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida ular o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etishi va boshqarishi, o'quvchilar sog'ligini mustahkamlash, ularning jismoniy, intellektual qobiliyatlarini, tafakkurini rivojlantirish, ularni ma'naviy jihatdan barkamol shakllantirish jarayonlarida mas'ul shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishi, mustaqillikning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini o'quvchilarga aniq va asosli tarzda tushuntirish, Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, yosh avlod qalbi va ongiga, ona-yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish jarayonlarida faollik ko'rsata olishining zaruriyatini inobatga olinishi muhim ahamiyatga ega.

I.A.Karimov ta'kidlaganidek, jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy jihatdan poklanishi, islohotlarning taqdiri, xalqimizning farovonligi birinchi navbatda rahbar kadrlarning malakasiga, fidoiyligiga, yurtparvarligi va iymonu e'tiqodiga bog'liq¹.

¹ Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2000. – B.38.

Ma'naviy boylikni, ma'naviyatni yuksaltirishga doimiy intilmasdan turib biz o'z oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarga erishish mumkin emas¹.

Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha, qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi².

Mazkur fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, yoshlar ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash va Vatanimiz ravnaqiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish pedagog xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, ularning ichki dunyosi, tafakkuri, dunyoqarashi, ma'naviy barkamolligiga bog'liqligi o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarning barcha jabhalarini qamrab olishi zarurligini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan pedagog xodimlarining lavozim vazifalariga belgilangan talablarda rahbar va pedagog xodimlar tomonidan birinchi navbatda davlat siyosatini, ta'lim sohasiga oid bo'lgan me'yoriy hujjatlarni, ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish qoidalarini chuqur bilishiga va o'z faoliyatida qo'llash ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Pedagoglar faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lgan lavozim vazifalariga belgilangan talablar va ularning kasbiy tayyorgarligi yo'nalishidagi manbalar bo'yicha o'tkazilgan nazariy tahlillar hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasi amaliyoti pedagoglar (bakalavr) faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lgan yo'nalishlar va ularning o'quvchilarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishidagi funksional vazifalarini aniqlashga imkoniyat yaratdi.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.172.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.116.

Pedagoglar (bakalavr) faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lgan
lavozimlar va ularning funksional vazifalari

№	Lavozimi	Funksional vazifalari
1	<p>Ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari</p>	<p>Ta'lim muassasasida o'quvchilarni Vatanga sadoqat, milliy g'urur, yuksak axloq va buyuk ajdodlar ma'naviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va bajarilishini ta'minlash; xalqimizning boy ma'naviy-madaniy merosi, sharqona va umumbashariy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni, millatlararo do'stlik, hamjihatlikning ahamiyatini, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, mintaqamizda yashayotgan millatlarning madaniy, ma'rifiy, ma'naviy taraqqiyot ildizlari mushtarak ekanligini targ'ib qilish, diniy ekstremizm va fundamentalizmning asl mohiyatini o'quvchilarga ochib berish; o'quvchilarda sog'lom dunyoqarash va siyosiy madaniyatni shakllantirishga rahbarlik qilish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi uchun zarur me'yoriy va uslubiy hujjatlarni, tadbirlar rejalarini ishlab chiqish va takomillashtirib borish; pedagog xodimlar o'rtasida, shuningdek o'quvchilar o'rtasida mustaqillik, uning mazmun-mohiyati va zaruriyati yo'nalishlarida yozma ishlar tanlovini tashkil etish va h.k.</p>
2	<p>Direktorning o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari</p>	<p>O'quv ishlarini tashkil etish, o'qituvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish; fanlar bo'yicha uslubiy birlashmalarning ishini tashkil etish; ta'lim jarayonida foydalanilayotgan va tayyorlanayotgan fan dasturlari, ma'ruza matnlari, ilmiy-metodik qo'llanma va tavsiyalar mazmunida o'quvchilarda mustaqillik tafakkurini rivojlantirish asoslarining shakllanganlik darajasini o'rganish, tahlil qilish, baholash va takomillashtirish; o'quvchilar bilimining sifatini va reyting tizimi asosida ob'yektiv</p>

		baholanishini tashkil etish va nazorat qilishda ularda Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy g'urur, yuksak axloq va buyuk ajdodlar ma'naviy merosiga hurmat kabi sifatarning shakllanganlik darajasini inobatga olish va h.k.
3	O'qituvchi	O'zi dars beradigan fanlar bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o'quvchilarni nazariy va amaliy mashg'ulotlar jarayonidagi faoliyatini boshqarish; DTS talablarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borish; o'qitishda fanlararo bog'liqlik va aloqadorlikni ta'minlash asosida o'quvchilarga mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati bo'yicha tushunchalar berish; o'quvchilarga milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar va rasm-rusumlar haqida tushunchalar berish, ta'lim-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasi manbalaridan keng foydalanish va h.k.
4	Uslubchi	O'quvchilarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlarida ochiq darslar, seminar-treninglar tashkil etish; ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish va targ'ib qilish; o'quv-metodik birlashma va fan uyushmasi raislari hamda ARM xodimlari bilan hamkorlikda davra suhbatlari, o'quv seminarlari va konferensiyalar tashkil etish; o'qituvchi va o'quvchilarga fanlar bo'yicha olimpiadalarga tayyorlanishda amaliy yordam ko'rsatish va h.k.
5	To'garak rahbari	To'garak ishlarini tashkil qilish va boshqarish; yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy g'urur, yuksak axloq, buyuk ajdodlar merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga, qiziqishlarini qondirishga, darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini tashkil qilishga qaratilgan to'garak mashg'ulotlarini olib borish; o'quvchilarning qiziqishlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etishda guruh rahbarlari, tarbiyachilar, axborot resurs markazi xodimlari, ota-onalar va boshqa

		tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish; madaniy-ommaviy tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish, o'quvchilarni ijodiy ko'rgazmalarda qatnashishga jalb qilish va h.k
6	Tarbiyachi	O'quvchilarning darsdan tashqari ta'lim-tarbiya, ijtimoiy foydali va madaniy hordiq chiqarish ishlarini pedagog, psixolog va ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etish hamda o'tkazish, mazkur jarayonda o'quvchilarda yuksak madaniyatni, axloqiy sifatlarni, o'qish, mehnat qilish ko'nikmalarini shakllantirish; O'zbekiston xalqining boy milliy madaniy-tarixiy an'analari, urf-odatlar, rasm-rusumlari va qadriyatlar haqida o'quvchilarga ma'lumotlar berish, ularga mustaqil O'zbekiston ramzlarining mazmun va mohiyatini, mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini tushuntirish asosida ularni vatanparvarlik, insonparvarlik va demokratik ruhda tarbiyalash va h.k.
7	Guruh rahbari	O'quvchilarga ta'lim va yoshlar to'g'risidagi hukumat tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirish hamda targ'ibot qilish; o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash; ota-onalar bilan hamkorlikda tadbirlar tashkil etish; tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchilarda mustaqil O'zbekiston ramzlari, milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar va rasm-rusumlar, mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati yo'nalishlarida tushunchalar shakllantirish va rivojlantirish

Mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini, mustaqillikning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlar, rasm-rusumlar, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, ona-yurtga muhabbat va sadoqat, Vatan va vatanparvarlik tuyg'ularini o'quvchi-yoshlar ongiga singdirish hamda mazkur maqsadlarda turli tadbirlarni tashkil etish yo'nalishidagi funksional vazifalarni samarali amalga oshirish pedagoglarga o'ziga xos mas'uliyat yuklash bilan bir qatorda,

faoliyat yo'nalishlari bo'yicha zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar talab etadi.

Pedagog xodimlarning funksional vazifalarini amalga oshirish samaradorligi ta'lim-tarbiya jarayonining natijaviyligini ifodalashini inobatga olib, pedagoglar faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish samaradorligiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- o'quvchilarni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy g'urur, yuksak axloq va buyuk ajdodlar ma'naviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish;

- o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini tarbiyaviy ishlar bilan birgalikda olib borish;

- yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, mintaqamizda yashayotgan millatlarning madaniy, ma'rifiy, ma'naviy taraqqiyot ildizlari mushtarak ekanligini targ'ib qilish;

- diniy ekstremizm va fundamentalizmning asl mohiyatini o'quvchilarga asosli tarzda tushuntirish;

- o'quvchilarda sog'lom dunyoqarash va siyosiy, huquqiy va ekologik madaniyatni shakllantirish yo'nalishidagi tadbirlarni tashkil etish;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlar, tadbirlarni tashkil etish uchun zaruriy me'yoriy va ilmiy-metodik mahsulotlarni tayyorlash va takomillashtirib borish;

- ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari bo'yicha maxsus kurslarning yuqori saviyada o'qitilishini va o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini nazorat qilib borish;

- ta'lim jarayonida va darsdan tashqari vaqtda ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ta'lim muassasasining rahbarlari, pedagog va psixologlar bilan hamkorlikda uchrashuvlar, kechalar, bahs-munozara, suhbat, konferensiya va ko'rik tanlovlar tashkil etish;

- shahar (tuman), viloyat, Respublika hamda xalqaro o'quv yurtlararo bo'lib o'tadigan ko'rik tanlovlar, bellashuvlar va fan olimpiadalarga o'quvchilarni tayyorlash;

- o'quvchilarning huquqiy, siyosiy, ma'naviy va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishida tashkil etiladigan tadbirlarga ota-onalar, mahalla, huquq-tartibot organlari xodimlari va jamoatchilikni keng jalb qilish;

- yurtimizda bo'lib o'tadigan ommaviy xalq sayillari, rasmiy bayramlarni ta'lim muassasasida keng nishonlash;

- o'quvchilarning o'zini-o'zi boshqarish yo'nalishidagi faoliyatini, ular tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarni muvofiqlashtirib borish;

- iqtidorli yoshlarni aniqlab, fanlar, turli kasblar va sport kabi ular qiziqqan yo'nalishlar bo'yicha to'garaklar tashkil etish;

- to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy g'urur, yuksak axloq, buyuk ajdodlar merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga, ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish;

- xalqimizning boy ma'naviy-madaniy merosi, sharqona va umumbashariy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni, millatlararo do'stlik, hamjihatlikning ahamiyatini tushuntirish.

Bular o'z navbatida pedagoglar o'z amaliy faoliyatida ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va boshqarishning turli xil zamonaviy usullarini bilishi va ularga asoslanishi, o'quvchilarning huquqiy, siyosiy, ma'naviy va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishida turli tadbirlarni tashkil etish uchun xalqimizning boy ma'naviy-madaniy merosi, sharqona va umumbashariy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalar yo'nalishini aniqlay olishi, o'quvchilarni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy g'urur, yuksak axloq va buyuk ajdodlar ma'naviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalash yo'nalishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan mavjud manbalardan keng foydalana olishi zarur ekanligini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida o'qituvchilarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yaratilayotgan yangiliklar va rivojlanishlar bo'yicha tushunchalar berib borish asosida ularda kasbiy kompetentlilikni muntazam rivojlantirib borishning korporativ asoslarini inobatga olishni taqozo etadi.

Korporativ so'zining lug'aviy ma'nosi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "ko'pchilikka, umumga tegishli" deb ko'rsatilgan¹.


Shunday ekan, yoshlarga Vatanimiz tarixi va madaniyati, qadimiy urf-odatlarimiz, mustaqillikning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati yo'nalishida tushunchalar berish, ularda o'zligini anglash, o'zini va o'zgalarni hurmat qilish, Vatanim sevish, umummilliy qadriyatlarni, milliy urf-odatlarini hurmat qilish, ajdodlarimiz yaratgan bebaho ilm-hunar xazinasini imkon qadar egallash va ularni asrash hamda boyitish, mustaqillikning ahamiyati va zaruriyatini anglash hamda uni qadrlash va mustahkamlash yo'lida faollik ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish eng asosiy korporativ vazifalar deb aytishimiz mumkin.

Demak, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy g'urur, yuksak axloq va buyuk ajdodlar ma'naviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalash yo'nalishidagi mavjud talablar, DTS talablari, Davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlari, zamonaviy talablar, OT DTS talablari, UO'TM rahbar-xodimlariga qo'yilayotgan talablar, pedagoglar faoliyati yo'nalishlari hamda funksional vazifalarini amalga oshirish jarayonida ulardan talab etiladigan bilim, ko'nikma va malakalar o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni muntazam rivojlantirib borishning korporativ asoslari sifatida inobatga olinishi zarur.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, yaratilayotgan yangiliklar va rivojlanishlar, yoshlarga e'tibor va yaratilayotgan shart-sharoitlar,

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. / Begmatov E., Madvaliyev A. va boshqalar.; A.Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 2-jild. B.408

ularning intellektual salohiyatining o'sib borishi, rivojlanib borayotgan davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlari, taraqqiyotga bog'liq holda kun sayin o'zgarib, yangilanib va rivojlanib borayotgan zamonaviy talablarni inobatga olib, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni muntazam rivojlantirib borishning korporativ asoslari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin (3-rasm):



3-rasm. O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning korporativ asoslari

Ta'kidlash joizki, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida ularda kasbiy kompetentlikni muntazam rivojlantirib borishning korporativ asoslari sifatida yuqorida keltirilgan talablarni inobatga olinishi muhim ahamiyatga ega.

Korporativ asoslar o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni muntazam rivojlantirib borish zaruriyatini aniqlovchi omil sifatida xizmat qiladi. Korporativ asoslar o'qituvchilarda kasbiy

kompetentlikni muntazam rivojlantirib borish zaruriyati yo'nalishidagi mavjud talablar tizimini ifodalaydi. O'qituvchilarda shakllantirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar va muhim ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlar yo'nalishida belgilanadigan talablar uning komponentlari hisoblanadi.

Korporativ asoslar o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni muntazam rivojlantirib borishda uzluksizlik va uzviylikni ta'minlash, xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tabiiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish, ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash, ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy etish, kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash, ta'lim mazmunini, ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligini, uzluksiz ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta'minlashni nazarda tutadi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni muntazam rivojlantirib borish jarayonlarida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash uchun o'qituvchilarda milliy an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillar hamda mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati yo'nalishlaridagi tushunchalarni boyitish zarur.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni muntazam rivojlantirib borishda UO'TMda faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarning faoliyat yo'nalishlari, funksional vazifalarini amalga oshirishda talab etiladigan bilim, ko'nikma va malakalar hamda ularda rivojlantirilishi zarur bo'lgan muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarni inobatga olinishi o'ziga xos ahamiyatga ega. Bular o'z navbatida, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni muntazam rivojlantirib borish jarayonlarini tizimli yondashuv asosida takomillashtirish zaruriyatini belgilaydi.

O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENTLILIKNI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta'limga qaratilayotgan e'tibor barcha o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda o'quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, ta'lim sohasiga yosh mutaxassislar kelib qo'shilishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o'z navbatida o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yo'nalishlarida yanada yangi vazifalar qo'yadi.

Ma'lumki, inson har doim o'sish va rivojlanishdadir. Shunday ekan, inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik jamoa rahbarlari to'g'ri tushinishlari lozim. Har bir o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatini turli xil sharoitlarda va jamoa tashkilotchilari hisoblangan insonlar ta'sirida amalga oshiradi.

O'qituvchining faoliyatiga ta'lim muassasidagi bugungi sharoit hamda jamiyat uchun foydali va zarur maqsadlarni amalga oshirishda shaxs rivojiga va shakllanishiga kuchli ta'sir qiladigan odamlar guruhi bo'lgan pedagogik jamoadagi shakllangan ta'limiy muhit o'z hukmini o'tkazadi. Jamoa jamiyatning bir bo'lagi sifatida uning barcha xususiyatlarini qamrab oladi. G'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy, axloqiy-ma'naviy va boshqa jabhalar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda ixtiyoriy pedagogik jamoani ma'lum bir saylab qo'yilgan yoki tayinlangan rahbar boshqaradi. Rahbarlik – odamlarga maqsadli ta'sir o'tkazishga qaratilgan, ularning xulqini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan boshqaruvning tarkibiy qismidir. Shuning uchun ham rahbar yosh o'qituvchining o'zi tanlagan kasbga mehr qo'yishi, o'qituvchilik kasbining sirlarini mukammal o'rganishi va unda o'z kelajagiga nisbatan ishonch tuyg'ulari rivojlanishiga ko'p qirrali ta'sir qiladi, deyishimiz mumkin.

O'z navbatida rahbar jamoada o'z o'rniga ega bo'lib, u bilimi,

muomalasi, ilmiy dunyoqarashi, o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlar, maqsadga intilish, ijtimoiy xulq va boshqalarda namuna bo'lishi zarur, bundan jamoaning har bir a'zosi o'ziga xos ta'sirlanadi. Rahbar boshqaruv faoliyatida o'zaro ta'sirning ikki yo'nalishini, o'qituvchining jamoaga va jamoaning o'qituvchiga ta'sirini va bu o'zaro ta'sir ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkinligini hisobga olishi zarur.

O'qituvchining jamoaga ta'siri uning obro'si, bilimi, dunyoqarashi, o'zi tanlagan kasbga qiziqishi va qobiliyati, o'z fanini puxta bilishi, o'quvchilar bilan munosabati, o'z ustida ishlashi, tashkilotchilik qobiliyati, peshqadamlik qilishi va tashabbuskorligi singari ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Uning obro'si deganda o'qituvchining mutaxassis sifatida jamoa tomonidan tan olinishi, sub'yektiv sifatlarining jamoa faoliyatining ob'yektiv talablariga mos kelishi tushuniladi. Bunda o'qituvchining bilimi, ko'nikma va malakasi, tajribasi, kasb mahorati, uddaburonligi, tadbirkorligi va ijodkorligi uning boshqalardan ko'ra ko'proq ko'zga tashlanishiga va obro' o'rttirishiga sabab bo'ladi.

Obro'ga ega bo'lgan o'qituvchi shaxslararo munosabatlarda yuqori mavqega ega bo'ladi, jamoada uning fikr-mulohazalariga quloq soladilar, undan maslahat so'raydilar, uning nuqtai nazari bilan hisoblashadilar.

Ammo obro' o'rttirishda shaxsiy sifatlarning o'zigina yetarli bo'lmay, u yoki bu o'qituvchi haqidagi jamoatchilik fikri ham sabab bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchining jamoatchilik fikri bilan hisoblashmay iloji yo'q, bu esa jamoaning o'qituvchiga bo'lgan ta'siridir. Ya'ni, jamoa o'qituvchining ayrim sa'y-harakatlarini rad etishi, qabul qilmasligi, aksincha bundan saqlanishga intilishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, jamoa bilan o'qituvchining o'zaro ta'siri ikki xil, ya'ni ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin, bunda rahbarning roli yaqqol namoyon bo'ladi. Ijobiy ta'sirni vujudga keltirishda rahbar pedagogik jamoa va ta'lim muassasasining

manfaatlari bir-biriga mos kelishini istagan holda, o'qituvchilarning muvaffaqiyati hamda kayfiyatlari bilan qiziqishi, tabassum bilan muomala qilishi, o'qituvchining ismini hurmat bilan aytib murojaat qilishi (har kimga o'z ismini boshliqdan eshitish yoqimli bo'lishini esda tutishi) zarur.

O'qituvchiga nisbatan diqqat-e'tiborli bo'lish, suhbatdoshini o'zi haqida gapirishga ruhlantirish, oshkora axborot almashishdan cho'chimaslik, o'qituvchiga uning jamoa uchun kerakli ekanligini sezdirish, har bir o'qituvchining kamchiliklarini qayd qilganda, albatta, uning muvaffaqiyatlarini ham e'tirof etish kabi rahbarlikning eng maqbul uslublarini o'z faoliyatiga tatbiq etishi zarur.

Ta'lim muassasasida turli dunyoqarash va madaniyatga ega, fe'l-atvori, aqlu zakovati turlicha bo'lgan, ishga layoqati alohida namoyon bo'ladigan o'qituvchilar mehnat qiladi. Bu hol ularning mehnati va funksional vazifasiga bo'lgan munosabatida ham ifodalanadi.

Ta'lim muassasasiga yangi kelgan yosh o'qituvchilar jamoadagi tajribali o'qituvchilarning faoliyatini, ularning o'z funksional vazifasiga bo'lgan munosabatini va u yerdagi shart-sharoitlarni to'la o'rganishgunga qadar turlicha tasavvurga ega bo'ladilar.

"Qush inida ko'rganini qiladi" deganlaridek, yosh o'qituvchining ta'lim muassasasidagi shart-sharoitlarni, mazkur ta'lim muassasasida o'qituvchiga qo'yilayotgan talablarni hamda yuklatilayotgan vazifalarni bajarish uchun qay darajada bilim, ko'nikma va malakalar zarurligini, kadrlar salohiyatini va ularning o'z ishlariga bo'lgan munosabatlarini, rahbarlarning mavqei hamda qo'l ostidagilar bilan munosabatlarini o'rganib, tahlil qilib, ijobiy xulosa chiqargan holda o'z ustida ishlashi, izlanishi, tajriba orttirib borishi uchun mazkur ta'lim muassasasida qulay ta'limiy muhit hukmron bo'lishi zarur, aksincha holatlarda yosh o'qituvchilar loqayd bo'lib qolishi mumkin.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, ko'pgina yosh o'qituvchilar

ancha vaqtgacha ta'lim muassasasidagi mavjud shart-sharoitlarga psixologik jihatdan moslashishga qiynalmoqdalar, ayrim moslasha olmaganlari qobiliyatli bo'lishlariga qaramay pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishdan voz kechib, boshqa turli sohalarda faoliyat ko'rsatishmoqda.

Buning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Ayrim ta'lim muassasalarida jamoaning yosh o'qituvchilar bilan o'zaro ta'siri salbiy xususiyatlarga ega bo'lib, rahbar va uning qo'l ostidagi xodimlar yosh o'qituvchiga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lmasligida namoyon bo'ladi.

Yosh o'qituvchining izlanishi, bilimi, o'z faniga bo'lgan qiziqishi tufayli pedagogik jamoa va o'quvchilar o'rtasida tez obro' topayotganidan xursand bo'lish hamda uni rag'batlantirish o'rniga uning yoshligini ro'kach qilib, turli xil arzimmas sabablarni bahona qilib yig'ilishlarda uyaltirish, obro'sini tushirish uchun qilingan xatti-harakatlar ta'lim muassasasidan bezib ketib qolishlarga sabab bo'ladi.

Yana bir sababi, ta'lim muassasasiga yangi kelgan yosh o'qituvchi yetarli tajriba, ko'nikma va malakaga ega bo'lmaganligi uchun jamoaga tez kirishib ketishga qiynaladi. Yosh o'qituvchilarga rahbarlar yoki tajribali o'qituvchilar tomonidan o'z vaqtida metodik yordam ko'rsatilmasligi, unga berilgan o'quv yuklamlarining kamaytirilishi yoki olib qo'yilishi hamda berilishi zarur bo'lgan metodik yordamlar o'rniga tez-tez berilgan tanbehtar yosh o'qituvchilarning o'z fani bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lsa-da, o'zi tanlagan kasbga nisbatan ko'ngli sovib ketishiga olib keladi.

Har bir yosh o'qituvchi ma'lum kasbiy ijodiy imkoniyatlar potentsialiga ega bo'lib, u yoki bu aniq bir mehnat jamoasi sharoitida pedagogik faoliyatini boshlaydi. Shuning uchun ham rahbarlar har bir o'qituvchining shaxsiy fazilati, kasbiy layoqati, ishga munosabatini hisobga olib, turlicha yondashishi, jamoa bilan yosh o'qituvchilarning o'zaro munosabatlarini to'g'ri tahlil qilgan holda, mukammal tuzilgan o'qituvchilar bilan ishlash

rejasiga ega bo'lishlari va shu reja asosida muntazam faoliyat olib borishlari zarur.

Bir qator tadqiqotlarga asoslangan holda, rahbarlarning yosh o'qituvchilar bilan ishlash rejalarini tuzishlarida quyidagilarni inobatga olishlarini tavsiya etamiz:

- oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari bilan uchrashuvlar tashkil etish;

- yosh o'qituvchilarning ta'lim muassasasi sharoitiga psixologik moslashuvini tezlashtirish uchun seminar va uchrashuvlar tashkil etish;

- yosh o'qituvchilarning o'z mutaxassisliklari bo'yicha o'quv yuklamalari bilan ta'minlashga erishish;

- yosh o'qituvchilarning yo'nalishlari bo'yicha ilg'or pedagogik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilarga birlashtirish;

- barcha yosh o'qituvchilarning ilmiy-amaliy konferensiya va o'quv seminarlariga muntazam ravishda ishtirok etishlarini nazoratga olish;

- yosh o'qituvchilarning oliy ta'lim muassasalari va malaka oshirish institutlarining o'qituvchilari bilan muntazam aloqalarini yo'lga qo'yish;

- yosh o'qituvchilarning darslarga tayyorgarligi va dars o'tish metodlarini kuzatib, alohida tahlil qilib borish;

- yosh o'qituvchilarning o'z darolarini ilmiy asosda tashkil etishlari uchun dars jarayonida zarur bo'ladigan texnik vositalar bilan ta'minlash;

- yosh o'qituvchilarning ilmiy-metodik jurnal va gazetalarda maqolalar bilan ishtirok etishlarini nazoratga olish va rag'batlantirib borish;

- yosh o'qituvchilarni ochiq darslarga muntazam ravishda jalb etish;

- yosh o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi va boshqa ta'lim muassasalari bilan tajriba almashishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

- yosh o'qituvchilarning fanlar bo'yicha olimpiadalar va turli xil tanlovlarda doimiy ishtirok etishlariga erishish;

- yosh o'qituvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlariga qiziqtirish, ijodiy faoliyat olib borishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish;
- yosh o'qituvchilarning o'z fanlari bo'yicha yaratgan yangiliklarini ommalashtirish va rag'batlantirib borish.

Ta'lim muassasalari o'qituvchilari malakasini oshirish – bu nafaqat pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga ularning tayyorgarligini rivojlantirish, balki ularning o'zini-o'zi rivojlantirish va professional kompetentlik yo'nalishidagi ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan uzluksiz jarayon, ya'ni qo'shimcha ta'lim tizimida sub'yektlarning shaxsiy ahamiyat kasb etuvchi o'zaro ta'sir jarayoni sifatida tashkil etilishi zarur.

PEDAGOGIK MAHORAT VA KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARI

Inson shaxsini rivojlanishida uning mustaqil faoliyati, ya'ni mustaqil ta'lim va mustaqil ma'lumotlar olishi hamda o'zini-o'zi tarbiyalashi muhim ahamiyatga ega bo'lib, pedagogik jarayonlarda o'qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosi sifatida ta'lim – mustaqil ta'lim, tarbiya – o'zini-o'zi tarbiya, ma'lumot-mustaqil ma'lumot va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur.

Insonga tug'ma ravishda xatti-harakatlarning hech qanday, na ijtimoiy, na noijtimoiy dasturlari berilgan emas. Har bir inson uchun, shaxs sifatida fazilatlarining shakllanish jarayoni amalda noldan boshlanadi. Shuning uchun ham ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarning maqsadi, mazkur jarayonda yaratiladigan shart-sharoitlar inson shaxsini shakllantirishning umumiy qonuniyatlarini inkor etmaydi.

Insonning rivojlanishida u yashayotgan muhit, unga ta'lim-tarbiya berishda ta'lim muassasasi jamoasi munosabatlari, vujudga kelayotgan ta'limiy muhit va pedagogik jarayon ishtirokchilarining shaxsiy sifatlari, xatti-harakati, dunyoqarashi, tajribasi, bilim, ko'nikma va malakalari muhim ahamiyat kasb etadi.

“Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”¹, deb aytilgan fikrlarga asoslanib, ta’lim va tarbiya tushunchalarini o’zaro bog’liqligi va aloqadorligini, ya’ni yaxlit holda tushunish zaruriyatini inobatga olgan holda ularning mazmun-mohiyatiga to’xtalib o’tamiz.

Tarbiya – shaxsning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo’lib, bir avlodning ijtimoiy tajribasini keyingi avlodlar tomonidan o’zlashtirilishi va ularning ijtimoiy hayotga qo’shilishlarini ta’minlab beruvchi zaruriy faoliyat, u shaxsning tarbiyalanganlik darajasi mezoni sifatida shaxsiy xislatlarni shakllantirish bilan bog’liq holda tarixan shakllanib kelgan pedagogik tushuncha.

Uning yordamida shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga tashqi muhitning ta’sirini fan va amaliyot isbotlab beradi. Inson butun umri davomida hayotda kimningdir tajribasiga tayanadi hamda unga asosan o’zining ko’nikma va malakalarini shakllantirib boradi. U faqat o’tmish merosxo’ri sifatida ijtimoiy hayotga qo’shib boradi va kelajak uchun tayyorlanadi.

Tarbiyaviy jarayon – rivojlanib borayotgan avlodning katta yoshdagilar tajribasini egallab borish jarayoni bo’lib, u insonlar rivojlanishini boshqarish hamda ularning shaxsiy xislatlari shakllanishiga zarur shart-sharoitlar yaratib beradi.

Ayrim hollarda ta’lim, tarbiya va rivojlanish o’rtasida o’zaro bog’liqlik yo’qdek tuyulsa-da, aslida ular o’rtasida bog’liqlik juda murakkab va ahamiyatlidir. Inson shaxsi ta’lim-tarbiya jarayonida rivojlanib boradi, rivojlanish darajasi uning shaxsiy xislatlariga ijobiy ta’sir ko’rsatadi ya’ni o’zgartiradi, shakllantiradi.

Ilmiy asoslarda tashkil etilgan ta’lim-tarbiya jarayoni shaxsning rivojlanish darajasini tezlalashtiradi va shakllangan shaxsiy xislatlar, dunyoqarash, tushuncha, bilim, ko’nikma va malakalar, shuningdek unda shakllangan qobiliyat yana ta’lim-tarbiya jarayoniga qayta ta’sir ko’rsatadi. Shu tarzda insonning

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B.62.

butun hayoti davomida bu ta'sir va aks ta'sirlar o'zaro bir-birini to'ldirib, ta'minlab boradi.

Hayotda "tarbiya" tushunchasi juda keng qo'llaniladi. Tajriba o'rgatish, tarbiyalash ommaviy axborot vositalari yordamida, san'at orqali hamda ma'naviy va ma'rifiy ishlarni tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bularni amalga oshirishda mas'ul shaxsning ma'lumoti muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumot shaxsning tushunchasi, dunyoqarashi, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini ifodalovchi tushuncha bo'lib, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, inson shaxsining rivojlanishini ta'minlovchi, maxsus tashkil etilgan tizimda shakllantiriladi. Maxsus tashkil etilgan ma'lumot beruvchi tizim – bu ta'lim-tarbiya muassasasida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar bo'lib, ular maxsus dasturlarga asosan tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Ma'lumot aniq bir yoshdagi shaxslarda bilim, iqtidor va ko'nikmalarning o'zlashtirilganligini, intellektual qobiliyati o'sganligi va ular asosida ilmiy dunyoqarash, shaxsiy sifatlar shakllanganligini, intellektual salohiyati va qobiliyatlarining qay darajada rivojlanganligini anglatadi. Qachonki, inson ma'lumoti to'g'risida gapirilganda uning ma'lumotlilik tushuniladi.

Ma'lumotlilik – shaxsiy sifat ko'rsatkichi, ya'ni shaxsning rivojlanish darajasi, uning tajribasi, bilim, ko'nikma va malakalarni qay darajada o'zlashtirganligi va ulardan foydalanish hamda ular yordamida yangi bilim-ko'nikmalarni egallab, to'ldirib borish qobiliyatlari tushuniladi.

Ma'lumotli shaxsni shakllantirishda nafaqat tarbiya jarayoni, balki shaxsda bilim, ko'nikma va malakalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari mavjud bo'lib, bu jarayonlarni tashkil etish negizida ta'lim jarayoni o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida ta'lim va tarbiyaning o'zaro birligini ifodalaydi.

Ta'lim – tajribalar almashinish jarayoni bo'lib, rejali ravishda amalga oshiriladigan "o'qituvchi-o'quvchi" muloqoti, uning

natijasida ma'lumot, tarbiya va rivojlanish amalga oshadi. Ma'lumot olish tizimida ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi, ya'ni ularning o'zaro birligi asosiy rol o'ynaydi.

Maqsadiga ko'ra u ikki asosiy qismdan iborat: tajribalarni o'rgatish (o'qitish) va uni o'rganish (o'qish). O'qitish – milliy qadriyatlarni, hayotiy tajribalarni, fan va texnika sohasidagi yutuqlarni yosh avlodlarga o'rgatishni ta'minlaydi.

O'qish – milliy qadriyatlarni, fan-texnika sohasidagi yutuqlarni, tajribalarni o'rganish, tushunish, tafakkurning rivojlanishi, mustaqil fikrlash va ulardan hayotda foydalanish uchun ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

O'qitish – pedagogik faoliyat (ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari, pedagoglar faoliyati), o'qish – o'quvchi-o'qituvchi (o'rganuvchi, tarbiyalanuvchi, o'qituvchi) faoliyati.

Pedagogika fani "o'zini-o'zi tarbiya", "mustaqil ma'lumot", "mustaqil ta'lim" tushunchalari orqali insonning tug'ma iste'dodi, qobiliyati, his-tuyg'ulari hamda ichki dunyosining shaxsiy rivojlanishidagi ahamiyatini yoritib beradi.

Rivojlanish ob'yektiv jarayon bo'lib, tashqi va ichki boshqariluvchi omillar tomonidan miqdor va sifat jihatidan fiziologik va ma'naviy shakllanish, ya'ni, shaxsning fazilatlarini, sifat va xulqlarining shakllanishi, tushunchalarning chuqurlashishi, kengayishi, osondan – qiyinga, oddiydan – murakkabga, mavhumdan – bilishga, oddiy hayot kechirish shakllaridan – oliy faoliyatga o'tish jarayonidir.

O'zini-o'zi tarbiya ichki tuyg'ular yordamida milliy qadriyatlarni, inson hayotidagi yutuq va muammolarni, tajribalarni o'rganish, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ya'ni mustaqil rivojlanish jarayonidir. Ta'lim-tarbiya jarayoni qanday tashkil etilmasin, mustaqil ta'lim va o'zini-o'zi tarbiyalashsiz uning samaradorligini ta'minlab bo'lmaydi.

Mustaqil ma'lumot avlodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'z ichki tuyg'ulari asosida mustaqil o'rganishga qaratilgan harakatlar majmuining natijasi bo'lib, insonning shaxsiy

qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Mustaqil ma'lumot inson shaxsi rivojlanishida, tajribalarni egallashida qulayliklar yaratsa, mustaqil ta'lim esa ta'lim olishga asos sifatida xizmat qiladi.

Mustaqil ta'lim – bu insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida avlodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy xatti-harakatlari jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati asosiy rol o'ynaydi. Bir hadisda "So'zda sehr, she'rda hikmat bor" deyilganidek, bu haqda she'riyatda shunday hikmatli misralar bor:

*Kimki ololmasa hayotdan ta'lim,
unga o'rgatolmas hech bir muallim.*

Demak, pedagogik jarayonlar samaradorligi nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga, balki mustaqil ta'limni yo'lga qo'yish, o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida ularda o'zini-o'zi tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning refleksiv faoliyatini hamda o'zaro ta'sir jarayonini tashkil etish zarur.

Ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etishda shaxslararo munosabatlar, o'qituvchining kasbiy kompetentligining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlar jarayonining mavjudligi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ham inobatga olinishi zarur.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda mazkur jarayon ishtirokchilari, ya'ni professor-o'qituvchilar o'zaro ma'lum bir belgilangan munosabatda bo'ladilar, bu munosabatlarni iqtisodiy, siyosiy va boshqa munosabatlardan farqli ravishda tarbiyaviy munosabatlar deb ataymiz.

Tarbiyaviy munosabatlar insonlarning o'zaro tajriba almashinishi, tajribalarni o'zlashtirishi, qo'llashi, ular o'rtasidagi doimiy munosabat, ya'ni aloqalar tizimi bo'lib, inson-inson, inson-texnika-inson, inson-kitob-inson, inson-tabiat-inson, inson-san'at-inson kabi tarbiyaviy munosabatlar shaklida vujudga keladi va mazkur jarayonda inson ikkinchi bir insonga bevosita va bilvosita o'zining xatti-harakatlari bilan yoki vositalar yordamida ta'sir

o'tkazishi mumkin, bu jarayon ixtiyoriy ta'lim muassasalaridagi rahbarlar bilan xodimlar, professor-o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarni ham qamrab oladi.

Tarbiyaviy munosabatlar insonlar o'rtasidagi doimiy munosabat (aloqalar) bo'lib, ular inson shaxsini rivojlantirishga, ya'ni mustaqil ma'lumot, mustaqil ta'lim olish va o'zini-o'zi tarbiyalashni shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, bu pedagogik jarayon hisoblanadigan insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda turli shakllarda namoyon bo'ladi, ya'ni mazkur jarayonda ishtirok etayotgan ma'lum bir insonning bilimi, muomala va muloqot madaniyati, kiyinishi, gavda harakatlari, qobiliyati, fan-texnika, san'at va tabiatga bo'lgan munosabati hamda qiziqishi ikkinchi bir insonga va boshqa insonlarning faoliyatiga, ya'ni fikrlashi, tasavvuri va dunyoqarashining o'zgarishiga hamda tafakkurining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Demak, pedagogik jarayon – bu shaxslararo munosabatlarda, bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatish jarayonida (tarbiyaviy munosabatlarda) insonlarning shaxsiy sifatlarining shakllanishi va rivojlanishiga, xatti-harakati va dunyoqarashini o'zgarishiga, tajribasining boyishi, bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladigan omillar mavjmuini tashkil qiluvchi ta'limiy muhit deb aytishimiz mumkin.

Pedagogik jarayon ishtirokchilari tomonidan ko'zlangan maqsadlar yo'nalishida erishilgan natijalar mazkur jarayonning samaradorligini ifodalaydi va u pedagogik jarayon sub'yektlari (mazkur jarayon ishtirokchilari) dunyoqarashining o'zgarishi, tafakkurining rivojlanishi, bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanishi va rivojlanishida o'z ifodasini topadi. Pedagogik jarayon samaradorligi ko'p jihatdan uning quyidagi o'ziga xos jihatlarni inobatga olish zaruriyatini belgilaydi:

- pedagogik jarayon samaradorligi o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarning natijaviyligini ifodalashi;

- pedagogik jarayonning o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan barcha tashkil etuvchi qismlari bir butun, yaxlit dinamik tashkiliy tuzilishga ega ekanligi;

- pedagogik jarayon dinamikasi protsessual xususiyatlarga ega ekanligi;

- pedagogik jarayonni tashkil etishda ikki tomonlama harakat, ya'ni to'g'ri va teskari jarayon mavjudligi;

- pedagogik jarayon komponentlarining o'zgarishi pedagogik tizim samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi.


Ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlar ikki kichik tizim doirasida, ya'ni darsda va darsdan tashqari faoliyat jarayonlarida amalga oshiriladi. Bu jarayonlarni hamda o'zaro bog'liq bo'lgan tashkil etuvchi qismlarning ichki tabiatiga xos bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga olgan hamkorlikdagi faoliyatlar, shuningdek, ichki sharoit va imkoniyatlar pedagogik tizimni tashkil etadi, bunda tizimning sub'yekti hisoblangan pedagoglar va rahbarlarning faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik tizim ta'lim muassasasining maqsadi, vazifasi, ta'lim muassasasi tomonidan tanlangan model, strategiyalari orqali tavsiflanadi. Ya'ni ijtimoiy tizim turlaridan biri hisoblangan pedagogik tizim – yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish, pedagogik jarayonlarni tashkil etish maqsadlariga xizmat qiluvchi turli strukturaviy va funksional bog'liq bo'lgan komponentlar majmuidan iboratdir.

Pedagogik tizim belgilangan maqsad yo'nalishida, sub'yektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, rahbarlar va pedagog xodimlarning funksional vazifalarini amalga oshirish va boshqarishda tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi, alohida xususiyatlarga ega bo'lgan o'zaro bog'liq qismlarning yaxlit holda vujudga kelishidir.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan o'qituvchilarning pedagogik mahorati va kompetentligini rivojlantirish jarayonlari (pedagogik jarayonlar), ya'ni ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, to'garak mashg'ulotlari, ekskursiya, davra suhbat, uchrashuvlar, fanlar bo'yicha tashkil etiladigan musobaqa va tanlovlar, san'at festivallari, konferensiya va boshqa turli yo'nalishlardagi tadbirlar, mustaqil ta'lim, o'zini-o'zi tarbiya,

mustaqil ma'lumot, mustaqil ishlar, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlar, tarbiyaviy munosabatlar jarayoni (inson-inson, inson-texnika-inson, inson-kitob-inson, inson-tabiati-inson, inson-san'at-inson munosabatlari), hamda pedagogik tajriba-sinov va pedagogik amaliyot jarayonlari majmui hamda ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi pedagogik tizimni tashkil etadi.



4-rasm. O'qituvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni modeli

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga olish, ya'ni ularning har birining samaradorligi ikkinchi bir jarayon samaradorligiga ta'sir ko'rsatishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Ya'ni pedagogik jarayonning asosiy komponentlaridan biri hisoblangan ma'ruza mashg'uloti samaradorligi seminar mashg'ulotlari natijaviyligiga o'z ta'sirini ko'rsatishi yoki mustaqil ta'lim uchun asos sifatida xizmat qilishi, shuningdek, pedagogik tajriba-sinov jarayoni yoki o'qituvchilar (ta'lim muassasalari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari) uchun tashkil etiladigan pedagogik amaliyot jarayonlari samaradorligi kelajak avlod ta'lim-tarbiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatishini inobatga olish zarur (4-rasm).

Mazkur zaruriyatlar ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi.

O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENTLILIKNI RIVOJLANTIRISH VOSITALARI

Mustaqillikni mustahkamlash va belgilangan maqsadlarga erishish, ya'ni jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish va rivojlantirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar, qisqa muddat ichida yaratilayotgan va amaliyotga tatbiq etilayotgan yangiliklar xalqimizning faravon hayot kechirishi va faol ijodiy mehnat qilishi uchun zaruriy va yetarli shart-sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh etish va yangilash, o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, bilimi, ko'nikma va malakalarini muntazam oshirib borish yo'nalishlarida ham o'ziga xos talablarni belgilab berdi.

Bu muhim maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayoniga

innovatsiyalarni tatbiq etish orqali o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, innovatsion faolligini oshirish hamda innovatsion jarayonlarga qiziqishini va ilmiy izlanish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O'qituvchilar o'rtasidagi aloqa, axborotlar almashinuvi, kommunikatsion jarayonlar hamda o'zaro va do'stona munosabatlarning samimiyligi va natijaviyligi bir tomondan axborotlarning yangiligi va ishonchliligiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan ularning ma'lum bir yo'nalishdagi tasavvuri va kompetentligini shakllanganlik va rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq bo'ladi. Ularning o'rtasidagi aloqalarni vujudga kelishida, ya'ni axborotlar almashinuvida, munosabatlarning qaysidir (ijobiy yoki salbiy) tarzda shakllanishida maqsad asosiy rolni o'ynaydi va u o'z navbatida o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlanishiga ham o'z hukmini o'tkazadi.

O'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ularning umumiy manfaatlarini ifodalovchi omil maqsad bo'lib, shu maqsadga erishishda barcha o'qituvchilarda tabiatan faollik va layoqat mavjud bo'ladi, agarda belgilangan maqsad umumiy manfaatlar uchun xizmat qilmasa va u o'z vaqtida muvofiqlashtirilmasa, o'qituvchilarda mazkur maqsadga va o'zaro aloqalarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi munosabatlar shakllanishi mumkin, ya'ni bunda o'zaro aloqa va munosabatlarning maqsadi, mazmun-mohiyatini o'qituvchilar tomonidan o'ziga xos tushunilishi ularning pedagogik kompetentligini shakllanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ma'lum bir faoliyatni tashkil etish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon bu inson oldiga qo'yilgan maqsad bo'lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra bajaruvchilarni tanlash va bajariladigan vazifalarni taqsimlash, belgilangan maqsadga erishish uchun tashkil etiladigan jarayon ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi.

Maqsad bu ixtiyoriy faoliyatni tashkil etish zaruriyatini belgilaydi, ya'ni qandaydir maqsad shakllangandan keyin ma'lum bir xatti-harakatlar amalga oshiriladi, demak, mazkur fikrga asoslanib aytish mumkinki, ma'lum bir faoliyatni amalga oshirilish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon bo'lgan mazkur maqsad o'z navbatida mazkur faoliyatni tashkil etishga undovchi vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Maqsad – bu inson xatti-harakatlarini qachon amalga oshirishi kerakligi va unda qanday natijaga erishishi mumkinligi, uning uchun qaysidir mavjud qiyinchiliklarni yengib o'tishi lozimligini oldindan anglashi bo'lib, maqsadning belgilanishi shaxsiy yoki umumiy ehtiyojlarni qondirish yo'nalishida muayyan bir xatti-harakatlarni amalga oshirish zaruriyatini vujudga keltiradi. Shuning uchun ham maqsadni shakllanishida ehtiyojlar asosiy vosita sifatida maydonga chiqadi.

Ehtiyoj jonli mavjudotning hayot kechirishining aniq shart-sharoitlariga qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatdir. Insonning ehtiyojlari ham ijtimoiy, ham shaxsiy xususiyatlarga ega bo'lib, u birinchidan, shunchaki tor ma'nodagi shaxsiy tavsifga ega bo'lib tuyulganda ham ijtimoiydir (masalan, non – non bo'lib dasturxonga kelgunicha ko'plab insonlar mehnati sarflanadi, bu esa ijtimoiy mahsulotdir). Ikkinchidan, inson o'z ehtiyojlarini qondirish uchun mazkur ijtimoiy muhitda tarixan tarkib topgan vositalar va usullardan foydalanadi. Uchinchidan, insonning ko'pgina ehtiyojlari shaxsiy ehtiyojlaridan ko'ra o'zi birgalikda mehnat qiladigan jamiyatning, jamoaning, guruhning ehtiyojlarini ifodalaydi, ya'ni jamoa ehtiyojlari kishining shaxsiy ehtiyojlari tusini oladi (yig'ilishda ma'ruza bilan chiqish uchun tayyorlanish ehtiyoji).

Demak, ehtiyojlar o'qituvchilarni muayyan tarzda va muayyan yo'nalishda o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirishga undaydigan vosita bo'lib, uni vujudga kelishi va o'zgarib borishi, ahamiyati va faollik darajasi o'qituvchilarning xatti-harakatlarida

namoyon bo'ladi. O'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladigan xatti-harakatlar o'z ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan bo'lib, uning yo'nalishi va faollik darajasi ehtiyojlarning kelib chiqishi, qondirilish zaruriyatiga va umumiy manfaatlarining ifodalanishiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, o'qituvchilarning o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo'nalishidagi harakatlarini vujudga kelishida ehtiyojlar eng avvalo, ularda istak, tilak va xohishni vujudga kelishiga o'z ta'sirini o'tkazadi va bular ham o'z navbatida o'qituvchilarni harakatga keltiruvchi vosita sifatida maydonga chiqadi.

Demak, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda ularning o'z oldiga qo'ygan maqsadi va orzu-istaklarini, ma'lum bir yo'nalishlardagi tasavvuri va tushunchalarini o'rganish, tahlil qilish zarur hisoblanadi, chunki ixtiyoriy orzu-istak va maqsad mavjud vaziyatlarni hamda shakllanib bo'lgan fikrni o'zgartirishga, tasavvur va tafakkurni kutilgandek emas, balki aynan boshqacha shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

Ixtiyoriy o'qituvchida ayni bir vaqtning o'zida bir necha orzu-istak va maqsadlar shakllanishi mumkin, chunki bir vaqtning o'zida ularda yo'nalishi va mazmun-mohiyatiga ko'ra turli xil ehtiyojlar vujudga kelishi mumkin. Ehtiyojlar turlicha bo'lsa-da va ularni qondirish yo'nalishida shakllangan orzu-istak va bir necha maqsad hamda ularga erishish mumkin bo'lgan bir necha yo'l bo'lgan taqdirda ham bulardan muayyan bir maqsadni hamda mazkur maqsadga erishish mumkin bo'lgan ma'lum bir yo'lni tanlab olish zarur hisoblanadi.

Belgilangan maqsad va ko'zlangan natijalarga erishish yo'llari va vositalarini tanlab olish jarayonida umumiy manfaatlar inobatga olinishi hamda eng maqbullari aniqlanishi zarur bo'lib, belgilangan maqsad va unga erishish yo'llarini belgilab beruvchi ixtiyoriy vosita harakatning maqsadi deb ataladi.

Demak, o'qituvchilarning o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha xatti-harakati yo'nalishini (aynan shunday harakat qilishi zarurligini), ma'lum bir vazifani (boshqa vazifani

emas, aynan shu vazifani) belgilash zaruriyatini, shuningdek, belgilangan vazifani amalga oshirish vositasi va yo'llarini (aynan shu vosita va yo'lni) belgilovchi sababni maqsad deb aytish mumkin.

Tadqiqotlarda keltirilishicha, irodaviy xatti-harakatlarning ixtiyorsiz harakatlardan farqi shundan iboratki, irodaviy harakatlar belgilangan maqsadlarga ko'ra ma'lum bir vositalar asosida amalga oshiriladi.


Yuqorida aytib o'tganimizdek ixtiyoriy o'qituvchining ehtiyojlari xilma-xil bo'lib, uning orzu-istak va maqsadlari ham chegaralangan bo'lmaydi, shunday ekan, ularning irodaviy faoliyatining vositalari ham xilma-xil bo'lishi tabiiy. Chunki, o'qituvchilarni harakatga keltiruvchi sabab maqsadlar bo'lib, ularda intilish, orzu-istak, xohish va maqsadlarni tug'diruvchi va ularni harakatga keltiruvchi eng asosiy omil sifatida ehtiyojlarni ko'rsatish mumkin.

Demak, ehtiyojlar ham o'qituvchilarni harakatga keltiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi, shuning uchun ham, belgilangan maqsad va unga erishish yo'llarini tanlashda ko'pincha ma'lum bir ehtiyojning mazmuniga va ahamiyatiga e'tibor qaralilib, kuchliroq ehtiyoj boshqa vositalar orasida eng kuchli va ahamiyatliroq bo'lishi inobatga olinadi.

Bizning fikrimizcha, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda ularning hayotiy ehtiyojlarini va uni qondirish yo'l-yo'riqlarini inobatga olgan holda ko'zlangan maqsadga erishish yo'nalishidagi faoliyatni rejalashtirish va tashkil etishda eng kuchli va muhim ahamiyatga ega bo'lgan vositalarni aniqlash va ularning yordamida o'qituvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi.

Demak, o'z oldiga kasbiy kompetentlikni rivojlantirish maqsadini qo'ygan va unga erishish yo'llarini tanlagan har bir o'qituvchi ma'lum darajada o'z dunyoqarashiga, tasavvuri va tushunchalariga, shuningdek, shaxsiy yoki ijtimoiy manfaatlarni ifodalovchi ehtiyojlarga asoslanadi va bunda uning irodaviy

harakatlarining vositalari sifatida uning maqsadi, xohishi, istagi bilan birga, uning manfaatlari va ehtiyoji maydonga chiqadi hamda eng asosiysi mazkur vositalar uning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi (5-rasm).



5-rasm. Kompetentlilikning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Mazkur rasimga asoslanib aytish mumkinki, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan mazkur vositalar rivojlantirish omillari sifatida xizmat qiladi va ular kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonida o'ziga xos ahamiyat kasb etib, ularning ichidan asosiylarini, ya'ni o'qituvchiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi vositalarni tanlash va ulardan o'z xususiyatlariga ko'ra to'g'ri foydalanish zarur hisoblanadi.

Mazkur vositalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, o'qituvchilarni fikrlashga majbur qiluvchi, ya'ni irodaviy harakatga keltiruvchi vositalardan biri istak bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri u o'qituvchilarga nimadir yetishmayotganligini his ettirish asosida ularda ehtiyojni shakillantiradi va harakatga keltiradi.

Shuningdek, vositalardan biri hisoblanayotgan tilak, belgilangan maqsadga erishish uchun fikrlashga majbur qiluvchi xususiyatga ega bo'lib, belgilangan maqsadga erishish yo'llarini izlab topish yo'nalishida harakatga keltiradi va orzu bilan bog'liq holda tafakkurni rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xohish ham harakat qilishga majbur etuvchi xususiyatlarga ega bo'lib, u to'la anglangan harakatni, ya'ni o'qituvchilarda harakat qilish yo'nalishidagi ehtiyojlarni vujudga keltiradi va bu ham o'z navbatida tafakkurning shakllanishiga hamda rivojlanishiga xizmat qiladi, mazkur harakatlarni amalga oshirilishida manfaatlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilarda ehtiyojning shakllanishi ularning yashash shart-sharoitlariga, birinchi navbatda, maqsadning shakllanishiga va unga erishish istaklarini vujudga kelishiga, ya'ni dunyoqarashining o'zgarishiga bog'liq bo'lib, turli vositalar ta'siri ostida shakllanib va o'zgarib boradi. Demak, o'qituvchilarda bilim olishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'sir muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilar kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda ulardagi mavjud ehtiyojlarni o'rganish va tahlil qilish asosida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoni hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'sir o'qituvchilarda, eng avvalo, tabiatga, jamiyatga, o'qish va mehnat qilish faoliyatiga, qolaversa, o'z shaxsiga munosabatini o'zgartirishga qaratilishi zarur.

O'qituvchilarda o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo'nalishida shakllantiriladigan ehtiyoj davlat va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, uning elementi sifatida shakllantirilishi zarur bo'lib, bunda umummilliy ehtiyojlar inobatga olinadi, chunki jamiyat va shaxs munosabatlari, manfaatlari uyg'unlashtirilib, shaxsga o'z qobiliyatlarini rivojlantirish, imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi. O'qituvchilarda shakllanadigan ehtiyojlar ahamiyati, mazmun va mohiyatiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin (6-rasm).



6-rasm. Kompetentlilikni rivojlantirish vositalari

Bilim olishga bo'lgan ehtiyoj yetarlicha shakllantirilsa, o'qituvchilarda o'zi tanlagan kasbga oid yangiliklarni, fan-texnika yutuqlarini, tabiat sirlarini, dunyo voqealari va ularning kelib chiqish sabablarini, mustaqillikning ahamiyati va zaruriyatini, umuminsoniy qadriyatlar va milliy urf-odatlarini hamda o'tmish va kelajakni o'rganishga qiziqish shakllanadi, irodaviy harakatlar vujudga keladi va bu o'z navbatida, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'qituvchilar ixtiyoriy vaziyatlarda muloqotga ehtiyoj sezadi, chunki muloqot ularning dunyoqarashini kengaytiradi, qarashlari va fikriga aniqlik kiritadi, mazkur jarayonda ularning tushunchalari mustahkamlanadi, axborotlarning aniq va ishonchiligi tahlil qilinadi, natijada o'zini ham o'zgalarni ham tushunib yetish uchun imkoniyat yaratiladi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish vositasi sifatida maydonga chiquvchi yaratuvchilik nimanidir o'zgartirishga, yangilik yaratishga, fikrlashga majbur qiluvchi ehtiyoj hisoblanib, u o'qituvchilarda mustaqil ta'lim olish, ya'ni mustaqil o'rganish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zini-o'zi anglash va o'zligini ifodalashga bo'lgan ehtiyoj o'qituvchilarni o'z faoliyatida ma'lum bir ijobiy natijalarga erishish, o'qituvchilar jamoasida obro'-e'tibor qozonish borasida harakatga keltiruvchi vosita bo'lib, o'qituvchilarda o'zini-o'zi hurmat qilish, o'zligini anglash, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini-o'zi rivojlantirish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi vositalardan biri muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyoj bo'lib, bu ma'lum bir vazifani mas'uliyat bilan bajarish orqali ko'zlangan natijalarga erishishga xizmat qiluvchi, o'qituvchilarda mas'uliyat hissini shakllantirish orqali ijodiy faoliyatga yetaklovchi ehtiyoj hisoblanadi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishda qo'l keladigan vositalar sifatida hokimiyat va mansublik ehtiyojlarini keltirish mumkin bo'lib, hokimiyat ehtiyoji hokimiyatga intilishni emas, balki ma'lum bir maqsadlarga erishish uchun odamlarga ta'sir ko'rsatish xohishini vujudga kelishini anglatadi, ya'ni mazkur ehtiyoj o'qituvchilarda o'zaro ta'sirni vujudga keltirishga xizmat qiladi.

Mansublik ehtiyoji esa, muloqotga kirishish, do'stona munosabatlar o'rnatish, o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish, aloqalarni yaxshilash va axborotlar almashinishiga xizmat qiluvchi ehtiyoj bo'lib, manfaatlar uyg'unlashuvida o'z hamkorlari huzurida bo'lish va do'stona munosabatlar o'rnatishdan manfaatdorlikni ifodalaydi. Bu o'z navbatida, o'qituvchilarni hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga xizmat qiladi.

Demak, o'qituvchilardagi mavjud va ma'lum bir maqsadda shakllantirilgan ehtiyojlar ta'lim muassasalarida o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish hamda yuqori natijalarga erishish, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish vositalari sifatida xizmat qilishi mumkin.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishda o'zaro ta'sir jarayoni, mazkur jarayonning samaradorligiga ta'sir

ko'rsatuvchi qator omillar orqali ifodalanadi. Mazkur fikrimizga asoslangan holda, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish vositasi hisoblanuvchi va mazkur jarayonga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillarga to'xtalib o'tamiz.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish vositalaridan biri – ular faoliyat ko'rsatayotgan va yashayotgan muhit bo'lib, bu o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni sub'yektlarining o'zaro ta'sirini amalga oshiruvchi tashqi omillardan biri hisoblanadi. Bunday ta'lim-tarbiyaviy muhitda o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi ishtirokchilarning suhbatlari va o'qituvchining o'zini-o'zi rivojlantirishi asosida kompetentlikning rivojlanish jarayonlari vujudga keladi, mazkur omil ota-onalar, ijtimoiy muhit va jamiyatning zamonaviy talablari ta'siri ostida bo'ladi. Shuningdek, o'qituvchilarga belgilangan talablar, davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlari, ta'lim muassasasi ichki tartib qoidalarida belgilangan talablar, bilim, ko'nikma va malakalariga hamda o'quv faoliyatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar, ta'lim tizimini rivojlantirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Mazkur ta'lim-tarbiyaviy muhitda vujudga keluvchi savollarga javob izlashga ijodiy yondashuvlar rag'batlantirilishi natijasida o'qituvchilarda mustaqil ravishda o'zini-o'zi rivojlantirish yo'nalishidagi qobiliyatlar, ta'lim olishga nisbatan shaxsiy qiziqishlar shakllantiriladi. Bunday hollarda mazkur muhitda bo'lgan o'qituvchi tanlovni amalga oshiradi, uning kasbiy kompetentligini rivojlanishi natijasida mazkur muhitning madaniy an'analari takomillashib boradi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida hamkorlikdagi ijodiy faoliyat qulay innovatsion muhitni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda vujudga keluvchi savollarga hamkorlikda javob izlash asosida o'zaro ta'sir jarayonini rivojlantirish va takomillashtirish mumkin bo'ladi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida ularda o'zaro ta'sirni amalga oshiruvchi omillardan

biri o'qituvchilarni ta'lim jarayonida ijodiy ta'sir ko'rsatishga motivlashtirish hisoblanadi. O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida ijodiy ta'sir ko'rsatishga motivlashtirish ularning faolligini ta'minlashga xizmat qiladi, o'z navbatida ijodiy faollik ham o'zaro ta'sirini amalga oshiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

O'qituvchining sub'yektiv tajribasini boyitish, uning o'zini-o'zi rivojlantirish faoliyatini va refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi, refleksiv tajriba o'qituvchi tajribasining tashkil etuvchi komponenti sifatida shaxsiy ahamiyat kasb etuvchi hodisalarni, o'qituvchining hayotiy kechinmalarini o'zi orqali o'tkazishga imkoniyat yaratadi, o'zini-o'zi rivojlantirish jarayonini yangi darajaga o'tkazishga, o'zini-o'zi o'zgartirishga shart-sharoitlar yaratadi. Natijada vaziyatni tahlil qilish, muhim ahamiyat kasb etuvchi maqsadni aniqlash va belgilash, qulay vaziyatlarni tanlash va baholash ko'nikmalari shakllanadi.

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan omillar o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etishda o'qituvchilarni o'zaro ta'sir jarayonlarini tashkil etish va unda sub'yekt-sub'yekt munosabatlarini shakllantirishga yo'naltiruvchi vositalar sifatida xizmat qiladi. O'z navbatida, o'qituvchilarda bilim olishga, o'zini-o'zi rivojlantirish va o'zligini isbotlashga ehtiyojlar shakllantirish asosida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantiradi.

Zamonaviy talablar asosida, ya'ni davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlariga mos keladigan zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan, raqobatbardosh, yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashda o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etib, bu nafaqat ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida, balki boshqa pedagogik tadbirlarda va o'zaro munosabatlar jarayonlarida ham o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish va unga o'qituvchilarni motivlashtirish zarurligini ifodalaydi.

KASBIY MAHORAT VA KOMPETENTLILIKNI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA MOTIVLASHTIRISH

Raqobatbardosh, yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan ta'limiy muhitni ta'lim muassasalarida shakllantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishda o'qituvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini o'rganish asosida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish va rivojlantirish zarur bo'lib, mazkur jarayonda motivlashtirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlililikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish o'qituvchilarni o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini yaratish, o'qituvchilarda o'z ustida ishlashi, uzluksiz malaka oshirishi uchun qiziqishlar vujudga keltiruvchi ijobiy motivlarni shakllantirishdan iborat deb aytish mumkin.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlililikni rivojlantirish jarayonlarida ham motivlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki ularda kasbiy kompetentlililikni rivojlanishi ta'lim-tarbiya jarayoni va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining samaradorligiga bog'liq bo'lib, mazkur jarayonlarning samaradorligi kasbiy kompetentlililikni rivojlantirish jarayonlari natijaviyligini ifodalaydi. Demak, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlililikni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi motivlarni o'rganish o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, bunday motivlarni kasbiy kompetentlililikni rivojlantirish motivlari deb aytishimiz mumkin.

O'qituvchilarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalarini, fan-texnika yutuqlarini, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning innovatsion texnologiyalarini o'rganishga undovchi motivlarni aniqlash va ulardan o'z mohiyatiga ko'ra to'g'ri foydalanish zarur hisoblanadi, chunki kasbiy kompetentlililikni rivojlantirish motivlarining o'ziga xos xususiyatlari kasbiy kompetentlililikni rivojlantirish jarayonlari va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining

samaradorligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni turli xil motivlar ta'lim muassasalarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limiy muhitni o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Ta'lim muassasalarida umumiy manfaatlar uyg'unlashuvida va ehtiyojlarni qondirish yo'nalishida belgilanadigan maqsadni tanlash va unga erishish jarayonida tasavvur o'ziga xos ahamiyat kasb etadi, ya'ni o'qituvchilarni o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirishga undovchi va harakatga keltiruvchi motivlarning ahamiyati va ta'siri ularning tasavvuri orqali sinovdan o'tadi. Motivlarni o'qituvchilar tomonidan qabul qilinishida ularning asoslanganligi va ta'sirchanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Motivlarning ishonchligi, ta'sirchanligi va ahamiyatini asoslash orqali o'qituvchilarga ta'sir ko'rsatish motivlashtirishni ifodalaydi.

Psixologik adabiyotlarda motivlashtirish keng ma'noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab, ko'p qirrali boshqaruvchisi deb keltiriladi. O'qituvchilar faoliyati turli motivlar yordamida boshqarilishi mumkin. Motivlar yordamida irodaviy xatti-harakatlarni vujudga keltiruvchi va faoliyatni muvofiq-lashtiruvchi ta'sir samarali hisoblanib, faoliyat natijalarining samaradorligi motivlarning xususiyatiga bog'liq bo'ladi, bu o'z navbatida motivlashtirish jarayonining samaradorligini ifodalaydi.

Bizning fikrimizcha, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish o'qituvchilarni umummilliy qadriyatlarni, milliy urf-odatlarini, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalarini, fan-texnika yutuqlarini o'rganishga undashning ko'p darajali va murakkab tizimi bo'lib, ehtiyojlar, qiziqishlar, intilishlar, vositalar, e'tiqod, maqsad, orzu-istak, manfaatlar, talablar, qadriyatlar, urf-odatlar va boshqalar mazkur tizimning komponentlari hisoblanadi.

Ko'pgina tadqiqotlarda o'quv motivlari va o'quv samaradorligini o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilganda, shaxsning intellektual darajasi va qobiliyatlari haqida fikr yuritiladi.

Tadqiqotlarda keltirilishicha, ta'lim oluvchilarda zaruriy qobiliyatlar yetarli bo'lmagan hollarda yoki ularda bilim, ko'nikma

va malakalar talab darajasida bo'lmagan vaziyatlarda ularning o'rnini ijobiy motivlashtirish to'ldirishi mumkin. Aksincha, qobiliyatlarning har qanday yuksak darajasi ham motivlashtirishning o'rnini bosa olmaydi hamda o'quv faoliyatining samaradorligini yetarli darajada ta'minlay olmaydi.

Motivlashtirish ma'lum bir ehtiyojlardan kelib chiqib, o'qituvchilar faoliyatini psixologik ta'sir etish yo'llari bilan maqsadga muvofiq yo'naltirishdir. Motivlashtirish jarayonida o'qituvchi ehtiyojlari yoki o'qituvchilarning umumiy manfaatlarini ifodalovchi ehtiyojlarni inobatga olish zarur, chunki motivlashtirish ehtiyojlarning qondirilishi asosida amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish ularda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va rivojlanishlarga moyillik va qiziqish, kelajakka ishonch, mustaqillik, erkinlik va bag'rikenglikni qadrlash kabi tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga, shuningdek, ijtimoiy amaliyot va ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularning qiziqishlarini, egallayotgan bilim, ko'nikma va malakalarini tahlil qilish orqali o'qituvchilar kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ta'lim muassasalarida nafaqat malaka oshirish kurslarida ta'lim olish, balki mustaqil ta'lim olish uchun ham shart-sharoitlar yaratilishi zarur bo'lib, bunda o'qituvchilarning mustaqil ta'lim olish jarayonini ham nazorat qilish va muvofiqlashtirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi va unda davlat va jamiyat, shaxs, fan va ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda motivlashtirish amalga oshiriladi.

Motivlashtirish o'qituvchilarning o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo'nalishidagi xatti-harakatlariga turtki beradi, erishish zarur bo'lgan maqsadlarni belgilaydi. Motivlashtirish ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida harakatga keltiruvchi dinamik jarayon hisoblanadi.

Motivlashtirish jarayonida o'qituvchilar ehtiyojlari yoki ularning umumiy manfaatlarini ifodalovchi ehtiyojlarni inobatga olish zarur, chunki motivlashtirish ehtiyojlarning qondirilishi asosida amalga oshiriladi. Demak, ehtiyojlar o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyatga, ya'ni o'qish, o'rganish va bilim olishga yo'naltiruvchi motivlar bo'lib, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan bir qatorda, ularni jismoniy yoki aqliy mehnatga, shuningdek, dam olish, bilim olish, hunar o'rganish, umuman olganda yashash uchun kurashishga chorlaydi.

O'qituvchilarning ehtiyojlari turli xil bo'lib, ularning psixologik xususiyatlariga, ya'ni odati, didi va kayfiyati, yoshi va sog'ligi, jinsi, oilaviy ahvoli, mehnat qilish va yashash sharoitlariga ham bog'liq bo'ladi. Masalan, ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchi bilan birinchi yil faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchining, oila qurgan o'qituvchi bilan uylanmagan o'qituvchining ehtiyojlari bir-biridan tubdan farq qiladi.

Ixtiyoriy insonning ehtiyojlari o'zgaruvchan bo'lishi kabi o'qituvchilarning ham ehtiyojlari o'zgaruvchan bo'lib, yashash va ish sharoitlari o'zgarib, rivojlanib borgan sari ehtiyojlar ham ortib boradi. O'qituvchilar o'sib-ulg'ayib, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar rivojlanib, taraqqiy etib borar ekan, barcha ehtiyojlar ham ularga uzviy bog'liq holda ortib boraveradi.

O'qituvchilar hayotida mavjud bo'lgan xilma-xil ehtiyojlarni aniqlash, tahlil qilish va ularda uzluksiz malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun turli tadbirlarni tashkil etish va mazkur tadbirlarda ularning ishtirokini ta'minlash hamda o'quv faoliyatini muvofiqlashtirishda motivlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Motivlashtirish jarayoni mavjud ehtiyojlarga qoniqish hosil qilish uchun, ya'ni ehtiyojlarning qondirilishi uchun maqsadni belgilash va unga erishish uchun harakat qilishdan boshlanadi. Mazkur jarayonda ehtiyojning qondirilish darajasi o'qituvchilarning muayyan faoliyatining holatini belgilaydi.

Demak, ta'lim muassasalarida o'qituvchilar uchun kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va tarbiyaviy munosabatlar jarayonini muvofiqlashtirish asosida ularda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini ta'minlash o'qituvchilarda o'quv motivlarini shakllantirish, ya'ni motivlashtirishga bog'liq bo'lib, motivlashtirishning samaradorligi o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarining natijaviyligini ifodalaydi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish yo'nalishidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishda alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan omillardan biri motivlashtirishning samaradorligi pedagogik jarayonlarning natijaviyligini ifodalashi bo'lib, u o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish yo'nalishidagi pedagogik jarayonlarda o'qituvchilarning umummilliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va milliy tariximizni o'rganish asosida o'tmishimiz va kelajagimiz haqida boy tasavvurga ega bo'lishi, intellektual qobiliyatlarining shakllanish darajasi, dunyoqarashining kengayishi, bilim, ko'nikma va malakalari darajasining o'sishini, ya'ni ularda kasbiy kompetentlilikning rivojlanishini belgilaydi.

Bizning fikrimizcha, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish yo'nalishidagi pedagogik jarayonlarda motivlashtirishning samaradorligi erishish mumkin bo'lgan natijalar bilan erishilgan natija o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlarni belgilaydi.

Shuningdek, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish yo'nalishidagi pedagogik jarayonlarda motivlashtirishning samaradorligi belgilangan maqsadga erishish yo'nalishida o'qituvchilar faoliyatining natijalarini ifodalab, barcha o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish uchun yetarli darajada shart-sharoitlar yaratish hamda o'qituvchilar uchun zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitni vujudga keltirish zaruriyatini belgilaydi.

Demak, natijaviylik kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida o'qituvchilar faoliyati natijalari bo'lib, belgilangan maqsadga erishish yo'nalishidagi xatti-harakatlar bilan qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatli natijalar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi deb aytishimiz mumkin. Bunda natijaviylik motivlashtirish samaradorligining ko'rsatkichi sifatida qo'llaniladi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda motivlashtirishning samaradorligi erishish mumkin bo'lgan natijalar bilan erishilgan natija o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashi, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida natijaviylikni ta'minlash uchun quyidagi shartlarning bajarilish zaruriyatini belgilaydi:

- o'qituvchilarning bilimi, ko'nikma va malakasi, tajribasi hamda o'z faoliyati samaradorligi haqidagi fikrlariga ilmiy yondashish;

- kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlari hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida motivlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;

- o'qituvchilarda uzluksiz malaka oshirishga bo'lgan ijobiy motivlarni shakllantirish;

- o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitni vujudga keltirish;

- kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga olish;

- o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlariga murakkab innovatsion pedagogik tizim sifatida yondashish;

- kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida o'qituvchilarda o'z faoliyati samaradorligini o'rganish, tahlil qilish va ob'yektiv baholash ko'nikmalarini shakllantiruvchi refleksiv yondashuvni joriy etish;

- kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'sirni ahamiyatini va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish.

Mazkur belgilangan shartlarga va yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda motivlashtirishning samaradorligini kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikning rivojlanish dinamikasi yoki ularda ijobiy motiv hisoblangan muvaffaqiyatga intilish motivlarining shakllanganlik darajasi ko'rsatkichlari bo'yicha baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yo'nalishidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishda alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan omillardan biri pedagogik jarayonlarni samaradorligining motivlashtirishga bog'liqligidir.

Motivlashtirish o'qituvchilarda yetarli darajada faollikni ta'minlash uchun zarur. Bunda motivlarning xususiyatlarini hisobga olish, qanday motivlar o'qituvchilarni uzluksiz malaka oshirishga yo'naltirishi va qaysilari ularning faolligini ta'minlashga, mustaqil o'rganishga, mustaqil ma'lumot olishga va o'zini-o'zi tarbiyalashga imkoniyat yaratishini bilish, o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakasi hamda tajribasi darajasini oldindan aniqlash o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Demak, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida samaradorlikka erishish uchun motivlarning turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini, o'qituvchilarda mavjud bo'lgan ehtiyojlarni, ularning bilimi, ko'nikma va malakasi hamda tajribasi darajasini, dunyoqarashi va qiziqishlarini, o'qituvchilar yashayotgan va ishlayotgan muhitning holatini, tarbiyaviy munosabatlarni, shaxsga yo'naltirilgan ta'sirning o'ziga xos xususiyatlarini, refleksiv va tizimli yondashuvlarning hamda innovatsion faoliyatning zaruriyatini motivlashtirish jarayoni samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida inobatga olinishi zarur.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda motivlashtirish jarayoni samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda, samaradorlikning o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi ko'rsatkichlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- o'qituvchilarning bilimi, ko'nikma va malakasi hamda tajribasi darajasini, duyoqarashi, tasavvuri, qiziqishi va imkoniyatlarining belgilangan maqsadlarga mos kelishini ifodalovchi xususiyatlar;

- belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish natijalariga mos keluvchi motivlar, omillar va vositalarning o'ziga xos xususiyatlari;

- o'qituvchilar uchun zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitning o'ziga xos xususiyatlari;

- davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlarining rivojlanishi, kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari ishtirokchilarining ehtiyojlari va qoniqish hosil qilish darajasi;

- kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari ishtirokchilarining ilmiy-metodik ta'minoti darajasi;

- kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda refleksiv yondashuv, tizimli yondashuv, innovatsion yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'sir va boshqa yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari;

- axborotlarning ishonchliligi va yangiligi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishda motivlashtirish jarayoni samaradorligining o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan ushbu ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, axborotlarning ishonchliligi va yangiligi ham asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida keltirilmoqda. Bu o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish yo'nalishidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishda alohida e'tibor talab qiluvchi omillardan biri motivlashtirish jarayonida axborotlarning ahamiyati ekanligini tasdiqlaydi.

Motivlashtirish jarayonida axborotlar bilan ishlash:

- o'qituvchilarning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, fan-texnika yutuqlari bo'yicha tushunchalarini aniqlash;

- tasavvuri va dunyoqarashi, qiziqishi va imkoniyatlarini o'rganish;

- belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish natijalariga mos keluvchi motivlar, omillar va vositalarning turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish;

- o'qituvchilarning ehtiyojlari va qoniqish hosil qilish darajasini aniqlash;

- o'qituvchilarga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bo'yicha zaruriy ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatishdan iborat bo'lib, o'qituvchilarda uzluksiz malaka oshirishga bo'lgan ijodiy motivlarni shakllantirish va ularning o'quv faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida qo'llaniladi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini ta'minlashda o'qituvchilarning faoliyati, ta'lim-tarbiya jarayonining holati, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan munosabati, ularning o'zaro munosabatlari, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatayotgan boshqa omillar, o'qituvchilarning tasavvuri, tushunchalarining rivojlanishi, dunyoqarashining o'zgarishi to'g'risida yetarli axborotlar to'plash zarur.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik jarayonlar to'g'risida hamda o'qituvchilarning tasavvuri, tushunchalarining rivojlanishi, dunyoqarashining o'zgarishi bo'yicha uzluksiz ravishda axborotlar to'plash va ularni chuqur o'rganish, tahlil qilish hamda ob'yektiv baholash eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish va rivojlantirish yo'llari, o'qituvchilarda ijobiy motivlarni shakllantirish va rivojlantirish omillari va vositalari aniqlanadi hamda samaradorlik ta'minlanadi.

Demak, axborotlar maqsadga erishish mezonlarini belgilash, o'qituvchilarning shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'la namoyon etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, har bir o'qituvchining faoliyatini ob'yektiv baholash asosida ularni rag'batlantirish, shuningdek, o'qituvchilarning faolligini ta'minlash

uchun innovatsion ta'limiy muhitni shakllantirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Bular o'z navbatida, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida axborotlarning o'ziga xos ahamiyatini ifodalaydi, shuning uchun ham axborotlar yangi va ishonchli bo'lishi zarur hisoblanadi. Ularning yangiligi va ishonchligi to'plangan axborotlarni o'rganish va tahlil qilish jarayonida aniqlaniladi. Ishonchli va yangi hisoblangan axborotlar asosida o'qituvchilar faoliyatini o'zgartirish, takomillashtirish, ya'ni ularning faolligini oshirish ishlari amalga oshiriladi. Yangi va ishonchli deb topilgan axborotlarga asoslangan holda, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlari samaradorligini ham tahlil qilish imkoniyati tug'iladi va ularga asosan kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish hamda o'qituvchilarda uzluksiz malaka oshirishga bo'lgan ijobiy motivlarni shakllantirish va motivlashtirish yo'nalishlaridagi vazifalar belgilanadi.

PEDAGOGIK INNOVATSION FAOLIYAT

Bugungi kunda ta'lim muassasasi o'qituvchisi uzluksiz innovatsion izlanishda bo'lishi, fikrlashi, vaziyatga ko'ra o'z kasbiga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishi, shuningdek, boshqalarda ham innovatik g'oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko'rsatishi zarur.

O'qituvchilar bunday faoliyatga alohida tayyorgarlik ko'rish kerak bo'lib, bu o'z navbatida ta'lim muassasasi rahbarlarining asosiy funksiyalaridan biri bo'lgan ta'limni rivojlantirishning uzoq muddatli strategik rejalarini tuzishda asosiy e'tiborni o'qituvchilarning u yoki bu asosda ijodiy faoliyat yuritishlari uchun tushuntirish ishlariga qaratishi lozim.

Bu o'z navbatida o'qituvchilarning kasbiy qiziqishlari ko'lamini kengaytirishga, ya'ni ularning adabiyotlar o'qib o'rganishdan to' nazariy psixologik-pedagogik va fundamental tadqiqotlar olib borishiga ham imkoniyatlar yaratadi. Yaxshi ilmiy-

pedagogik tayyorgarlik innovatsion faoliyatning samaradorligini ta'minlaydi. Innovatsion jarayonlarda faol ishtirok etuvchi o'qituvchilar muntazam ravishda o'zini-o'zi rivojlantirishi va ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishining katalizatoriga aylanadi, ya'ni mazkur jarayonlarning tezlashishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday o'qituvchilar bilan ishlash, ya'ni pedagogik jamoani o'ziga ergashtira oladigan o'qituvchilarning faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun ta'lim muassasasi rahbarlari yangilik yaratish va ularni tatbiq etish, ixtirochilar salohiyatidan samarali foydalanish, ularning tajribasini targ'ib qilish, ommalashtirish, innovatsion faoliyatlarining natijalarini baholash bo'yicha, ayniqsa, ta'lim muassasasi va pedagogik jamoa darajasida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur bo'lib, bu ularning integrativ mahoratlarini belgilaydi.

Integrativ mahorat – bu umumlashtirilgan mahorat bo'lib, ta'lim muassasasi rahbarlari boshqaruv faoliyatida ijobiy natijalarga erishish, pedagogik jarayonlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim muassasasi ichki boshqaruvining maqsadini tizimli rejalashtirish va amalga oshirishida zarur hisoblanadi.

Mazkur ko'nikmaga ega bo'lmasdan maqsadga erishishning yo'llari, vositalari va erishish muddatini aniq belgilash mushkul. Pedagogika fanining va oldingi tajribalarning integrativ asosdagi xulosalari va tavsiyalari yangi g'oyalarning manbasi hisoblanadi, ular o'z navbatida innovatsion jarayonlarni boshqarish samaradorligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Umumiy holda, ta'lim muassasasida o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini tashkil etishga ob'yektiv va sub'yektiv omillar sabab bo'ladi. Ob'yektiv omillarga davlatning yangi ta'lim siyosati, ta'lim sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, ta'lim muassasasining innovatsion faoliyat yo'nalishidagi tajribalarini keltirishimiz mumkin.

Sub'yektiv omillarga ijtimoiy-hududiy ehtiyoj, ta'lim muassasasi faoliyatining rivojlanish jarayoni, o'qituvchilarning

bilim, ko'nikma va malakalari, ilmiy salohiyatining rivojlanishi, ta'lim muassasasi salohiyatining o'sishi, boshqaruv xususiyatlarining o'zgarishi misol bo'ladi.

Ta'limga yangicha yondashuvlarni joriy etish, birinchi navbatda, ta'lim mazmunini yangilash, ilg'or pedagogik texnologiyalar va o'qitishning zamonaviy metodlarini tatbiq etish, ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarishni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning talablariga mos o'zgartirish, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilmiy-pedagogik asoslarini yaratish va takomillashtirish hamda innovatsion ta'lim muassasalarining barcha turlariga xos innovatsion faoliyatning strukturaviy komponentlariga asoslanishga bog'liq.

Ta'lim muassasasi o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini tashkil etishning pedagogik shartlari sifatida quyidagilarni keltrish mumkin:

- innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi nazariy-pedagogik qoidalar majmuini ishlab chiqish;
- nazariy-pedagogik qoidalar majmui innovatsion faoliyatning asoslari bilan belgilanishi;
- innovatsion faoliyatning maqsadi, vazifasi, mazmuni hamda uni tashkil etish tamoyillarini o'z ichiga olishi.

Ta'lim muassasasi o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga jalb etuvchi omillar innovatsion faoliyatga ularni motivlashtirish (undash) vositalari sifatida xizmat qiladi. O'qituvchilarning innovatsion faoliyatini tashkil etish ishlari asosiy maqsadga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi va shu munosabat bilan ta'lim muassasasida asosiy o'zgarishlar vujudga keladi. Mazkur maqsadlarga erishishda qator vazifalarni bajarish zarur:

- uzluksiz ta'lim g'oyalari amalga oshirishning dolzarb ehtiyojlarini ifodalovchi yangilangan texnologik va dasturiy-metodik maxsulotlarni yaratish;
- ko'proq samarali hisoblangan o'qitish vositalarini tanlash;
- ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot salohiyatini rivojlantirish;

- o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligiga asoslangan hamkorlikdagi innovatsion faoliyatni tashkil etish;

- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga mos, bilimli va qobiliyatli bitiruvchilar modelini amalga oshirishga asoslanish (ta'lim mazmunini yangilash);

- o'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish (ta'lim dasturlarini yangilash), bunda innovatsion yondashuvlar quyidagilarni nazarda tutadi:

- birinchidan, o'quv darsliklarining mazmunini turli mafkuralardan tozalash, raqobatni vujudga keltiruvchi fikrlar bilan to'ldirish;

- ikkinchidan, davlat ta'lim standartlariga mos ravishda, harakatdagi dasturlarga yangi rivojlantiruvchi ayrim o'zgartirishlarni kiritish;

- uchinchidan, o'quv rejasining fakul'tativ va ta'lim muassasasi ixtiyoridagi soatlar bloklariga yangi fanlarni kiritish.

Innovatsion faoliyatni tashkil etishni ta'minlashning asosiy shartlari alohida boshqaruv jihatlari, ya'ni mazkur faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan, yangilangan boshqaruv strukturasi shakllantirish hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish munosabati bilan ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni kiritishda barqarorlik vujudga keladi. Bunda eng muhimi, pedagogik jamoaning innovatsion faoliyatga tayyorgarligi va ehtiyojlarini inobatga olib yangiliklarni tanlash hisoblanadi.

Ta'lim tizimining rivojlanishini tizimli boshqarish ta'lim muassasalarining me'yoriy funksiyalarini bajarish bilan, alohida innovatsion loyihalarni birlashtiruvchi, yagona maqsadga qaratilgan dasturlar doirasida pedagogik jamoa a'zolarini birlashtirishga yo'naltiriladi.

Shuningdek, ta'lim muassasasi ravojlanishini boshqarishning yangilangan strukturasi amaliyotga tatbiq etish jarayoni quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Sub'yekt – rahbar, rahbar o'rinbosarlari, o'qituvchilar va o'quvchilarning o'zini-o'zi boshqarish faoliyatini tatbiq etish.

2. Tatbiq etish jarayonining elementlari innovatsion modelning mustahkam harakatlanishini qo'llab-quvvatlovchi choralar majmui sifatida shakl, metod va vositalarni o'z ichiga oladi.

Tatbiq etishning asosiy shakli pedagogik tajriba-sinov ishlari hisoblanadi va bunda tahlil qilish, natijalarni baholash, o'qituvchi faoliyatining mazmunini takomillashtirish, ularning aloqalari va o'zaro munosabatlarini, huquq va mas'uliyatlarini belgilash ishlari amalga oshiriladi.

Mazkur jarayonda vazifalar taqsimotini tahlil qilishda tizimdagi axborotlar oqimi, hujjatlar aylanishi, ish rejimi, muassasa holati va tasnifiy xususiyatlari, lavozimlar bo'yicha ko'rsatmalar o'rganiladi, shuningdek, muassasa faoliyati, innovatsion jarayonlarni amalga oshiruvchi shaxslarning funksional vazifalari va innovatsiyalarni zarur axborotlar bilan ta'minlovchi hujjatlar, nizom, tezkor muvofiqlashtirish rejalari va boshqa me'yoriy hujjatlar aniqlanadi.

Mazkur yo'nalishda innovatsiyalarni tatbiq etish metodlari va vositalariga:

- o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini tahlil qilish asosida ularni innovatsion faoliyatga va uning natijaviyligiga ishbilarmon o'yinlari orqali ishontrish;
- o'qituvchilarning innovatsion jarayonlarni tashkil etishga qiziqishini shakllantirish;
- ilg'or tajribalarga ega bo'lgan malakali o'qituvchilar faoliyatini kuzatishga yo'naltirish;
- o'qituvchilarning o'zaro bir-birini kuzatishi va nazorat qilishi uchun turli chora-tadbirlar belgilash;
- ustoz-shogird institutini amaliyotga tatbiq etish;
- innovatsion faoliyat amaliyoti bo'yicha axborotlar bilan ta'minlash;
- innovatsion faoliyatni loyihalashtirish va modellashtirish yo'nalishidagi seminarlar, maslahatlar;
- innovatsion faoliyat strategiyalarini shakllantirishga ko'proq tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilarni jalb etish misol bo'ladi.

3. Samarali tatbiq etish sharoitlarining majmui. Bu – tashkiliy-pedagogik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlar bo'lib, boshqaruv strukturasi qulayligi, boshqaruvning demokratik xususiyatlari, jamoada ijodiy-ta'limiy muhitni yaratish, uning mustahkamligini kuchaytirish, pedagogik jarayon sub'yektlarining o'z faoliyatlaridan qoniqish hosil qilishlarini kuchaytirishni o'z ichiga oladi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning innovatsion modellarini tatbiq etish samaradorligining ahamiyatli ko'rsatkichlari ularning o'quv-metodik qo'llanma va ko'rsatmalar tayyorlash, turli xil tadqiqot ishlarini bajarishdagi faolligi, ya'ni innovatsion faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllanganligini ifodalaydi.

O'qituvchilarning pedagogik va ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini faollashtirish ularda innovatsion faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllanganligiga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, ta'lim mazmuniga yangiliklarni kiritish, ta'lim jarayonini tashkil etish va uni boshqarishda ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarni qo'llash, o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik asoslarda malakasini oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshirish bilan tavsiflanadi.

Ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarishda ta'lim muassasasi rahbarlarini innovatsion faoliyatga undovchi va mazkur yo'nalishdagi irodaviy xatti-harakatlarini ta'minlovchi asoslar to'rtta asosiy guruhga ajratiladi:

- birinchidan, bu yangilik kiritish natijasida vujudga keladigan, hurmat-e'tibor, hokimiyat, vakolat va mavqe bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan shaxsiy qiziqishlar;

- ikkinchidan, tashkiliy tizimning samarali rivojlanishiga mos ravishda o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirishga intilish;

- uchinchidan, jamoaning ta'limiy muhitda innovatsion jarayonlarning ahamiyatini anglashi;

- to'rtinchidan, innovatsion faoliyatning mazmun va mohiyatini tushunish va mantiqan zaruriyatini qabul qilish.

Bu jarayonda quyidagi qator vazifalar o'qituvchilarda innovatsion faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish, yangiliklar kiritishni amalga oshirishda ta'lim muassasasi rahbarlarining asosiy vazifalari va ularning boshqaruv faoliyatining hamda pedagogik innovatsiyalar samaradorligining asosiy shartlari hisoblanadi:

- o'qituvchilar uchun innovatsion faoliyat ko'rsatishning dolzarbligi muammolarni uzil-kesil hal qilish va ta'lim-tarbiya jarayonlarining sifat va samaradorligini ta'minlashning asosiy omillari sifatida belgilanishi;

- tanlangan innovatsion vositalarning o'qituvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari, kasbiy tajribasi va imkoniyatlariga mos kelishi;

- innovatsiyalarning to'la ilmiy asoslanganligi;

- innovatsion jarayonlarning ahamiyatliligi va tizimlilik;

- yangilik yaratuvchi va undan foydalanuvchilarning shaxsiy-professional xususiyatlarini hisobga olish va innovatsiyalarning ahamiyatini anglash, har bir sub'yektning yuqori darajadagi mas'uliyati hamda javobgarligini ifodalashi;

- innovatsion jarayonlarda tavakkalchilikning minimal darajada bo'lishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish, tavakkalchilikning darajasini tushunish va ularning asoslanganligining zaruriyati;

- boshqaruv funksiyalari va boshqaruv mexanizmlarida, ta'lim jarayonining mazmunida, pedagogik texnologiyalarda, ta'lim muassasasining dasturi va konsepsiyasida o'zgartirishlar hamda rivojlanish tamoyillarining o'z ifodasini topishi;

- rahbarlarning boshqaruv faoliyati metodologiyasining innovatsion jarayonlarni boshqarish shartlari va tamoyillariga mos kelishi.

Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bevosita ta'lim tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ta'limni yangilash va uzviyligini ta'minlash uni demokratlashtirishni, ijtimoiylashuvi va insonparvarlashuvini, boshqaruvda

ma'muriy buyruqbozlik tizimidan voz kechishni, integrativ jarayonlarni kuchaytirish, ta'limning ishlab chiqarish bilan aloqasini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bu jarayonlar ijtimoiy-madaniy vaziyatlarning ob'yektiv o'zgarishlari bilan bog'liq holda mazkur tizimning innovatsion faoliyatlarga bo'lgan ehtiyojini belgilaydi.

O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENTLILIKNI RIVOJLANTIRISHDA UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISH JARAYONI

Zamonaviy shart-sharoitlarda o'quvchi-talabalarni demokratik jamiyatda yashash uchun tayyorlash, ularda Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim ustuvorligini ta'minlash, demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish prinsiplari asosida milliy yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish pedagogik jarayonlarni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish prinsiplari asosida, demokratik rahbarlik uslubida va yangi innovatsion usullarda tashkil etish va boshqarish hamda unda shaxs va sotsium munosabatlarning uyg'unlashuvini ta'minlash zaruriyatini belgilaydi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda professor-o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, ya'ni ularning professionaligi, o'quvchi-talabalar faoliyatini muvofiqlashtirish va pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashda kompetentli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari muntazam ravishda o'zining kasbiy bilimi, ko'nikma va malakasini rivojlantirib borishi, boshqaruv yo'nalishidagi tushunchalarini kengaytirishi, fan va texnika yutuqlarini, zamonaviy pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini o'zlashtirib borishi uchun ta'lim muassasalarida zaruriy shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Pedagogik jarayonlarni ilmiy asoslarda tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi zamonaviy talablar ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilarining o'z bilimlari, ko'nikma va malakalarini uzluksiz rivojlantirib borishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida, ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarni malakasini uzluksiz ravishda oshirib borishga xizmat qiluvchi pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishni nazarda tutadi.

Malaka oshirish an'anaviy ravishda doimo tizim sifatida, ya'ni ijtimoiy tajribalarni uzatish, professor-o'qituvchilarda yangi tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish, ularni pedagogik jarayonlarni tashkil etish jarayoniga tayyorlash tizimi sifatida ko'rib chiqilgan.

Ammo, bugungi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda ta'lim muassasalari faoliyatini qayta tashkil etish, o'zgartirish pedagogik jarayonlarda ta'limning ustuvorligini ta'minlash, ijtimoiylashtirish, demokratlashtirish, insonparvarlashtirish hamda ta'limning milliy yo'naltirilganligini ta'minlash prinsiplariga asoslangan bo'lib, maxsus kasbiy tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan, ma'naviy boy hamda o'z faoliyatida shaxslararo munosabatlarni, shaxs va sotsium munosabatlarining uyg'unlashuvini ta'minlay oladigan professor-o'qituvchilarni talab etadi.

Shuning uchun, uzluksiz ravishda ta'lim muassasi rahbarlari va professor-o'qituvchilar malakasini oshirish jarayoni nafaqat ularni kasbiy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan mutaxassis sifatida tayyorlashga, balki turli yoshdagi insonlarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Ta'lim muassasalari rahbarlari va professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish – bu nafaqat pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga ularning tayyorgarligini rivojlantirish, balki ularning o'zini-o'zi rivojlantirish va professional kompetentlilik yo'nalishidagi ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan uzluksiz

jarayon, ya'ni qo'shimcha ta'lim tizimida sub'yektlarning shaxsiy ahamiyat kasb etuvchi o'zaro ta'sir jarayoni sifatida tashkil etilishi zarur.

Ta'lim muassasalari rahbarlari va professor-o'qituvchilarning malakasini uzluksiz ravishda oshirishga qaratilgan jarayon faoliyatning barcha bosqichlarida ular o'zlarining kasbiy tajribalarini anglash, tahlil qilish va baholash, shuningdek, o'zini-o'zi shaxsiy rivojlantirish ehtiyojlarini faollashtirish va qo'llab-quvvatlashga asoslanadi. Mazkur jarayonda shaxsning ma'naviy boyishi hamda ijodiy salohiyatining rivojlanishi uchun imkoniyat vujudga keladi.

Ta'lim muassasalari rahbarlari va professor-o'qituvchilarning malakasini uzluksiz oshirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon rahbarlar va professor-o'qituvchilar uchun nafaqat nazariy, balki yuksak darajada yashash va hayotiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etish qobiliyatlarini shakllantiruvchi muhit vazifasini ham bajarishi hamda mazkur jarayonlarda yaratilgan shart-sharoitlar ular uchun o'z shaxsini rivojlantirishga imkoniyat yaratishi zarur.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayoni rahbarlar va professor-o'qituvchilarda quyidagi yo'nalishlarda ehtiyoj va ijobiy motivlarni shakllantirishga ham xizmat qilishi kerak:

- o'zini ko'proq mustaqil va o'zini-o'zi boshqaruvchi shaxs sifatida his etish hamda o'zini-o'zi rivojlantirishga intilish;

- ta'lim-tarbiya manbasi sifatida vujudga keladigan, hayotiy va kasbiy boy tajribalarni o'zlashtirishga intilish;

- belgilangan aniq maqsadlarga erishish va muhim hayotiy muammolarni hal etishga ijodiy yondashish;

- belgilangan maqsadlarga erishish va muhim hayotiy muammolarni hal etishga intilish bilan bog'liq holda, ta'lim olish uchun yuqori darajadagi tayyorgarlik va motivatsiyaga ega bo'lish;

- ta'lim olish jarayonida egallagan bilimi, ko'nikma va malakalarini amaliyotga tatbiq etish zaruriyatini tushunish;

- kasbiy faoliyatida vujudga kelgan muammolarni imkon darajasida tezroq hal etish uchun bilim, ko'nikma va malakalarini

qisqa muddat ichida amaliyotga tatbiq etishga yuqori darajadagi intilish.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayoni pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning shaxsga yo'naltirilgan ta'limiy muhit jihatlari o'zlashtirish va ishlab chiqish, turli darajada ularni amalga oshirish, pedagogik jarayonning barcha sub'yektlarining shaxsiy rivojlanishini ta'minlash uchun imkoniyat yaratuvchi psixologik tayyorgarlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Ta'lim muassasalari rahbarlari va professor-o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish uchun ularning malakasini oshirish yo'nalishidagi vazifa va maqsadlarga o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi, pedagogik ta'sir salohiyatiga ega bo'lgan ta'lim muassasasi hamda jamoaning har bir a'zosining muammolarini qanday hal etish va ulardan qanday foydalanish zarur degan savollarga javob topish, ya'ni ta'lim muassasasida tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonini takomillashtirish uchun ta'lim muassasasining imkoniyatlarini, ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonini tashkil etishda ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilarni shaxs sifatida umumiy rivojlanishini, shuningdek, ularning pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish faoliyatiga munosabatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olish zarur.

Ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilarda shaxs sifatida yangiliklarni yaratishga ichki moslashuv va fikrlash usullari shakllangan bo'lsa, ular barcha o'zgarishlarga o'z munosabatini oson bildiradi, ularni to'g'ri baholaydi, boshqaradi va o'z kasbiy faoliyatida ularni samarali amalga oshiradi.

Agarda ularda yangiliklarni yaratishga ichki moslashuv yaxshi shakllanmagan bo'lsa, ular shaxs sifatida ko'proq konservatizmga moyil bo'ladi va bunday holatlarni uzluksiz malaka oshirish jarayonini tashkil etishda inobatga olish o'ziga

xos muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilar pedagogik jarayonlarni rivojlantirishning kontseptual dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda sermulo hazali nazariyotchi, metodolog, tadqiqotchi va kompetentli boshqaruvchi bo'lmasa, uzluksiz rivojlanib boruvchi jarayonlar hisoblangan pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda boshqara olmaydi.

Demak, ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonining eng asosiy maqsadi ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilar shaxsiga va ularning faoliyatiga qo'yilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar bilan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda ular oldida turgan, ta'limni modernizatsiya qilish, yangilash hamda ta'lim muassasasini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan maqsad va muammolarni, shuningdek, rahbarlar va professor-o'qituvchilarning o'z kasbi va lavozimi yo'nalishidagi pedagogik va boshqaruv funksiyalarini bajarishga tayyorgarligini yetarli darajada emasligini inobatga olgan holda zamonaviy ijtimoiy talablar va muammolar o'rtasida muvofiqlikni ta'minlashdan iborat bo'lishi zarur.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonida ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilarda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishga erishish uchun mazkur jarayonda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarur:

1. Ta'lim muassasalari faoliyatiga qo'yilayotgan yangi ijtimoiy talablarni hisobga olgan holda o'z faoliyatini qayta anglash va baholash.

Bunda ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilar o'z faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi, maqsad va vositalar, maqsad va natijalar o'rtasidagi ziddiyatlarni, tushunmovchiliklarni hamda o'zini-o'zi rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlaydi va uning zaruriyatini anglaydi. Bunda faoliyatning odatiy stereotiplarini yo'qotish, yangi tushunchalar asosida o'zi haqida tasavvur hosil

qilish, avvalgi eski uslublar yordamida o'z faoliyatini amalga oshirish mumkin emasligini tushunib yetish nazarda tutiladi. Ular o'z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatda bo'lishga o'tadi va avvalgi faoliyatini tanqidiy tahlil qilish asosida kasbiy-shaxsiy rivojlanish jarayonining faollashishi vujudga keladi.

2. Kasbiy faoliyat yo'nalishidagi tushunchalarni va yangilikni anglashga nisbatan intilishning o'zgarishi.

Bunda ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilarning bilimi, ko'nikma va malakalarining yangilanishi, ma'naviy va madaniy salohiyatining rivojlanishi hamda axborotlar almashinuvi amalga oshadi, ularda kasbiy faoliyat yo'nalishidagi tushunchalarning o'zgarishi, shaxsiy o'zgarishlar vujudga keladi. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tajribalar boyiydi, kasbiy tajribalar rivojlanadi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayoni, mazkur jarayonning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi qator omillar orqali ifodalanadi:

- kasbiy faoliyatning yuqori cho'qqisiga erishishga undovchi, irodaviy xatti-harakatlarni ifodalovchi omillar;

- natijaga erishish uchun yo'naltirilgan mavjud tizim va xatti-harakatlar izchilligi bilan bog'liq bo'lgan ob'yektiv omillar;

- kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish choralarining sub'yektiv asoslari bilan bog'liq bo'lgan omillar;

- shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini vujudga keltiruvchi ijtimoiy (tashqi), biopsixologik (ichki) va pedagogik (tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi) omillar.

Mazkur omillar uzluksiz malaka oshirish jarayonida ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilarning shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan o'zaro ta'sir ko'rsatishga tayyorgarligini ta'minlaydi, refleksiya yo'nalishidagi qobiliyatlarining rivojlanishiga yordam ko'rsatadi. Mazkur omillarning ta'sir ko'rsatish darajasi ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy munosabatlar, ta'limiy muhit va ularning rivojlanish darajasi orqali ifodalanadi.

Uzluksiz malaka oshirish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi va tashqi sozlovchi vosita hisoblanuvchi ijtimoiy, ya'ni

tashqi omillar mazkur jarayon sub'yektlarining o'zaro ta'siri amalga oshuvchi muhit hisoblanadi. Bunday ta'lim-tarbiyaviy muhitda, *refleksiv jarayonlar davomida va o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi sub'yektlarning suhbat* asosida shaxsning o'zini-o'zi rivojlantirish, shaxsiy rivojlanish jarayonlari vujudga keladi, shuningdek, kasbiy faoliyatning ahamiyatini har bir shaxsning muhim ahamiyat kasb etuvchi mo'ljalini anglash va qayta tashkil etish amalga oshadi. Mazkur omil ota-onalar, sotsium hamda jamiyatning zamonaviy talablari ta'siri ostida bo'ladi.

Shuningdek, unga ta'lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish va modernizatsiya qilish shart-sharoitlarida ta'lim muassasasi rahbari va professor-o'qituvchilar shaxsiga va ularning faoliyatiga qo'yilayotgan yangi talablar, ta'lim muassasasi faoliyati va zamonaviy maqsadlar yo'nalishidagi me'yoriy hujjatlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mazkur ta'lim-tarbiyaviy muhitda vujudga keluvchi savollarga javob izlashga ijodiy yondashuvlar rag'batlantiriladi, mustaqil ravishda o'zini-o'zi rivojlantirish yo'nalishida qobiliyatlar, ta'lim olishga nisbatan shaxsiy qiziqishlar shakllanadi. Bunday hollarda ta'lim-tarbiyaviy muhitda bo'lgan shaxs tanlovni amalga oshiradi, individual madaniyatini rivojlantiradi va mazkur muhitning madaniy an'analarini takomillashtiradi.

Pedagogik jarayon hisoblangan uzluksiy malaka oshirish jarayonida hamkorlikdagi ijodiy faoliyat qulay psixologik muhitni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda vujudga keluvchi savollarga hamkorlikda javob izlash, o'zaro ta'sir uslublarini takomillashtirish vujudga keladi. Unda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonini loyihalashtirish, tadqiqotchilik va suhbat uslublari maqsadga muvofiq uslublar hisoblanadi. Bunday sharoitlarda avvalgi tajribalar takomillashadi, sub'yektlar o'z faoliyatini qayta anglashi uchun qulay shart-sharoit vujudga keladi, uni kuzatish yordamida yangi munosabatlar yo'nalishi belgilanadi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonining samaradorligini ta'minlashda quyidagilarni inobatga olish zarur:

- mazkur jarayon tadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lishi;
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish;

- ijodiy hamkorlikni ta'minlovchi refleksiv ta'limiy muhitni vujudga keltirish;

- sub'yekt-sub'yekt munosabatlarini rivojlantirish;

- shaxsiy imkoniyatlarni takomillashtirish uchun zaruriy psixologik muhitni vujudga keltirish;

- axborotlarning yangiligi va ishonchliligini ta'minlash.

Shunday qilib, ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonida o'qitish texnologiyasiga yangicha yondashuvlar ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilarni kasbiy faoliyatini rivojlantirishga psixologik moslashuvini tezlashtirish va refleksiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Faqatgina refleksiv ta'limiy muhitni tashkil etish asosida ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilarning shaxsiy tushunchalarini rivojlantirish, pedagogik va boshqaruv faoliyatining ahamiyatini yetarli darajada yoritish mumkin.

Shuning uchun, ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonini yangi amaliyot sifatida, ya'ni ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilarning faolligini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan o'zaro ta'sir tizimi, ta'limning yangi mazmuni, refleksiv ta'limiy muhitni tashkil etishning yangi vositalari sifatida ko'rib chiqilishi zarur.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni modernizatsiya qilish ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Shunga asosan ijtimoiy ijodkorlikning zaruriyati, shuningdek, ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilarning o'zini-o'zi rivojlantirish yo'nalishidagi shaxsiy ko'nikmalarini shakllantirish zaruriyati kun sayin rivojlanib bormoqda.

Ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayoni sub'yektlarining hamkorligini ta'minlovchi,

ularni psixologik va fiziologik jihatdan rivojlantirish, ma'naviy boyitish hamda intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etishga asosiy e'tiborni qaratishlari zarur. Mazkur zaruriyatdan kelib chiqib, kasbiy tayyorgarlikning quyidagi asosiy komponentlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- pedagogik mulohazalarni ifodalovchi reflektiv ko'nikmalar;
- pedagogik jarayonlarda sub'yektlarning xatti-harakatlarini va o'zaro munosabatlarini hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayoniga tayyorgarligini his etishni ifodalovchi oldindan ko'rish ko'nikmalari;

- pedagogik jarayonlarda vujudga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda sub'yektlar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmasi;

- pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan turli vaziyatlarning qulay ta'limiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishiga qarshi tura olish ko'nikmasi;

- pedagogik jarayonlarda qulay ta'limiy muhitni va sub'yektlarning reflektiv faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish ko'nikmasi;

- kommunikativ kompetentlilik hisoblangan, vaziyatlarga ko'ra sub'yektlar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga va ularning individual psixologik xususiyatlariga mos holda ta'sir ko'rsatish ko'nikmasi;

- muloqotga kirishish ko'nikmasi;

- sub'yektlar bilan axborot almashinish ko'nikmasi;

- o'zini-o'zi boshqarish va shaxsiy rivojlantirish ko'nikmasi;

- axborotlar to'plash, ularni qayta ishlash va ob'yektiv baholash ko'nikmasi va h.k.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonida ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilarni nafaqat kasbiy faoliyatga motivlashtirishni rivojlantirish, balki ularning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish uchun ham shart-sharoitlar yaratish zarur. Mazkur jarayonda reflektiv ta'limiy muhitni tashkil etish ularning shaxsiy kamol topishiga ijodiy ta'sir ko'rsatuvchi muhit sifatida xizmat qiladi.

Ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilar uchun eng zarur bo'lgan ko'nikmalardan biri ongli ravishda o'zini-o'zi boshqarish hisoblanadi. Ongli ravishda o'zini-o'zi boshqarish orqali o'zini-o'zi rivojlantirishni uning shaxsiy mo'ljalini qayta anglash sifatida ko'rib chiqish mumkin. Ularning o'zini-o'zi rivojlantirish komponentlaridan yana biri ma'naviy va madaniy boyliklarni qayta anglash, o'zining hayotiy strategiyasini belgilash hamda o'z kasbiy maqsadlarini amalga oshirishini ifodalovchi o'zligini isbotlashdir.

Bunda o'zligini isbotlash o'zining imkoniyatlari va muvaffaqiyatlarini rivojlantirish, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni takomillashtirish jarayoni hisoblanadi. O'zligini isbotlashda sub'yektning shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirishi, kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishi ijodiy salohiyatni rivojlantirish va pedagogik faoliyati samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilarda o'zini-o'zi rivojlantirish jarayoni ijtimoiy vaziyatlarning o'zgarishi bilan bog'liq holda amalga oshadi, shuning uchun uzluksiz malaka oshirish jarayonida ularda o'zaro ta'sir, o'zaro munosabatlar va o'zaro aloqalarning qayta tashkil etilishi natijasida shaxsiy rivojlanish hamda kasbiy faoliyatga psixologik moslashuv vujudga keladi.

Ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilarning o'zini-o'zi rivojlantirishi, avlodlar tajribasini o'rganishi, ya'ni uzluksiz malaka oshirish jarayonida sub'yektlarning shaxsiy tajribalarining asosiy komponenti hisoblangan ma'naviy va madaniy tushunchalar rivojlanib boradi. Sub'yektlarning ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi turli faoliyatlari davomida amaliy ko'nikmalarining shakllanishi, o'zligini isbotlashi jarayonida shaxs uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan intellektual qobiliyat, tasavvur va tushunchalar shakllanadi, dunyoqarashi o'zgaradi va tafakkuri rivojlanadi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonida ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-

o'qituvchilarning barcha funksional vazifalarini tushuntirish bilan bir qatorda, o'quvchi-talabalarga ta'lim-tarbiya berish samarasiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatuvchi faoliyatining quyidagi yo'nalishlarini e'tiborga olish zarur:

- pedagogik jarayonlarni o'quvchi-talabalarning boshlang'ich tushunchalari, qobiliyati, qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish va boshqarish;

- o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarishga ijodiy yondashish;

- darsdan tashqari ishlarning mazmuni hamda tashkil etilishini jiddiy nazoratga olish;

- o'quvchi-talabalarni kasbga yo'llash hamda o'zi tanlagan kasbga qiziqishini rivojlantirish yo'nalishidagi tadbirlarni ilmiy asosda tashkil etish;

- o'quvchi-talabalarning o'zini-o'zi boshqarish yo'nalishidagi mustaqil faoliyatini muvofiqlashtirish;

- jamoaviy boshqaruv organlari va jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish;

- ota-onalar qo'mitasi faoliyatini muvofiqlashtirish;

- fanlardan a'lo baholarga o'qiydigan, iqtidorli va tashkilotchi o'quvchi-talabalarni o'z vaqtida rag'batlantirib borish;

- iqtidorli yoshlarni aniqlab, qiziqqan yo'nalishlari bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish;

- fanlardan o'zlashtirishga qiynalayotgan o'quvchi-talabalar uchun alohida mashg'ulotlar tashkil etish va ular uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish hamda nazoratga olish;

- fanlar, turli kasblar va sport yo'nalishlari bo'yicha to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonida murakkabligi jihatidan turlicha bo'lgan pedagogik va boshqaruv yo'nalishidagi vazifalarni bajarish va uning samaradorligini oshirish yo'nalishidagi mavzular bo'yicha ma'lumotlar berishda refleksiv ta'limiy muhitni shakllantirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Refleksiv ta'limiy muhit jarayonida sub'yektlar o'z faoliyati samaradorligi yo'nalishidagi eski tasavvurlari bilan, belgilangan maqsadga erishishda samarali hisoblangan yangi metodlar o'rtasidagi ziddiyatlarni anglab yetadi, mazkur jarayonda o'zi tomonidan tanlangan metodlarning ahamiyatini, ularni amalga oshirish vositalari va usullari bilan o'z shaxsiy tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish natijasida refleksiv malakalar shakllanadi, natijada o'z faoliyati samaradorligini, ma'naviy va madaniy tushunchalari, kasbiy qobiliyati, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini o'zi baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonida refleksiv ta'limiy muhitni shakllantirish hamkorlikda faoliyat ko'rsatish tajribalari bilan uzviy bog'liq bo'ladi, ya'ni bu pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish faoliyatini amalga oshirish jarayonida, shuningdek, malaka oshirish jarayonida hamkorlar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro ta'sirni ifodalaydi.

O'zaro ta'sir natijasida sub'yekt tomonidan o'z shaxsiy xususiyatlari tahlil qilinadi, mazkur jarayonda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy xususiyatlar, ma'naviy va madaniy tushunchalar qayta shakllanadi va rivojlanadi.

O'zaro ta'sir natijasida sub'yektlar o'zining refleksiv faoliyatini amalga oshiradi va unda oldingi xatti-harakatlari, tajribasi va tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi. O'zaro ta'sir jarayonida ishtirok etayotgan shaxs nafaqat o'zini va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarini, balki aniq holatni, vaziyatni ham o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi, bunda o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi sub'yektlarning rivojlanishi amalga oshadi, shuningdek, o'zaro ta'sir jarayoni ham rivojlanadi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonini tashkil etishda o'zaro ta'sir jarayonining ahamiyatini, ya'ni kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi quyidagi natijalarga erishish mumkinligini inobatga olish zarur:

- kasbiy kompetentlilik darajasining o'sishi;
- sub'yektlarning faolligi va tashabbuskorligining rivojlanishi;
- shaxsning psixologik xususiyatlarining o'zgarishi;
- ma'naviy va madaniy tushunchalarning rivojlanishi;
- o'zini-o'zi anglash va o'zini-o'zi baholash ko'nikmalarining rivojlanishi;

- hamkorlikdagi faoliyatni vujudga kelishi va unda axborotlar almashinuvi natijasida kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga psixologik moslashuvni vujudga kelishi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilarning kasbiy faolligini oshirish, refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish, ma'naviy va madaniy tushunchalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'zaro ta'sirni vujudga keltiruvchi shaxslararo aloqalarni amalga oshirishda ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat kasb etuvchi uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish zarur.

Mazkur jarayonda ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilarning kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish samaradorligi mustaqil ta'limni yo'lga qo'yish, ularda o'zini-o'zi tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, refleksiv faoliyatni hamda o'zaro ta'sir jarayonini tashkil etishga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayoni ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilarning mustaqil ta'lim olishi asosida tashkil etilishi va mazkur jarayonda ularning kreativ va refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayonda o'zaro ta'sirni amalga oshirmay, refleksiv faoliyatni tashkil etish bilan sub'yektlarning mustaqil ta'lim olishga qiziqishini shakllantirib bo'lmaydi. Pedagogik jarayon sub'yektlarining muloqot jarayonini eng samarali o'zaro ta'sir jarayoni deb aytish mumkin, chunki bunda shaxslararo munosabatlar rivojlanadi va o'zaro ta'sir jarayoni sub'yektlarining

shaxsiy rivojlanishi amalga oshadi. Shaxsiy rivojlanishning asosiy omili muntazam ravishda mavjud bo'lgan o'zaro ta'sir jarayoni hisoblanadi, refleksiv ta'limiy muhit jarayonida sub'yektlar o'zaro ta'sir malakasini o'zlashtiradi va uni kelgusida o'z faoliyatida amaliyotga tatbiq etadi.

O'zaro ta'sirning mazmun va mohiyati hamkorlikdagi faoliyat tizimining shakllanishi sifatida tavsiflanadi. O'zaro ta'sir individual xatti-harakatlar majmuining hamkorlikdagi yaxlit tizimi sifatida shakllanishini ta'minlaydi. O'zaro ta'sir jarayonini tashkil etish sub'yektlarda o'zini-o'zi tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning shaxsiy bilim va tushunchalarini, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning kreativ va refleksiv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, tashkil etilgan refleksiv ta'limiy muhit ularda o'zaro ta'sir malakasini va uni kelgusida o'z faoliyatida amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllanishiga imkoniyat yaratadi.

Uzluksiz malaka oshirish jarayonini tashkil etishga refleksiv yondashuvda o'zaro ta'sirni hamda refleksiv faoliyatni tashkil etish sub'yektlarning mazkur jarayonga qiziqishini rivojlantiradi, chunki bunda sub'yekt-sub'yekt munosabatlari shakllanadi va o'zaro ta'sir jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy rivojlanishi amalga oshadi.

Professor-o'qituvchilarni moddiy rag'batlantirishga, faoliyatini takomillashtirishga asosiy mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan bilimi, ko'nikma va malakasi, kasbiy mahoratini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi uzluksiz malaka oshirish jarayonlari ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar komponentlaridan biri bo'lib, mazkur jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga tizimli yondashuvni joriy etish zarur.

Har qanday tizim o'zining tashkil etuvchilariga, ya'ni komponentlariga ega bo'ladi. Murakkab pedagogik tizim hisoblangan uzluksiz malaka oshirish jarayonining asosiy komponentlariga ta'lim muassasasida tashkil etiladigan o'quv

seminarlari, seminar-treninglar, ochiq darslar, o'zaro dars kuzatishlar, fan kechalari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalarni ommalashtirish, o'qituvchilar tomonidan tayyorlanadigan ilmiy-metodik mahsulotlar, jumladan, malaka oshirish institutidagi nazariy va amaliy mashg'ulotlar hamda masofadan o'qitishni kiritish mumkin.

Ixtiyoriy tizimning tashkil etuvchi komponentlaridan biri mazkur tizimning o'zgarishiga va rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, professor-o'qituvchilarning uzluksiz malakasini oshirishga tizimli yondashuvni joriy etish zarur bo'lib, bunda professor-o'qituvchilarning bilimi, ko'nikma va malakasi hamda kasbiy mahorati darajasini aniqlash mezonlarining elementi sifatida tizimning har bir komponentini olish mumkin.

Mazkur yo'nalishda professor-o'qituvchilarning reytingini belgilash mezonini ishlab chiqishda komponentlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ballarning taqsimlanishi ularning faoliyatini takomillashtirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Masalan, 100 ballik tizimda baholash mezonini quyidagicha belgilash mumkin:

- ilmiy darajasi uchun – 20 ball (fan doktori – 20 ball, fan nomzodi – 10 ball);

- tajribasi ommalashtirilganligi uchun – 15 ball (Respublika va viloyat miqyosida ommalashtirilgan bo'lsa – 15 ball, tuman miqyosida ommalashtirilgan bo'lsa – 10 ball, ta'lim muassasasi miqyosida ommalashtirilganligi uchun – 5 ball);

- malaka oshirish institutida va masofadan o'qitishda o'z vaqtida o'qigani uchun – 9 ball (mutaxassisligi bo'yicha – 5 ball, qisqa muddatli kurslarda – 4 ball);

- ilmiy-metodik maqolalari uchun 8 ball (Respublika ilmiy-metodik jurnallaridagi har bir maqolasi uchun – 4 ball, boshqa jurnal, gazeta va to'plamlarda – 2 ball);

- yaratgan o'quv qo'llanma, darslik va metodik qo'llanmalari uchun – 9 ball (o'quv qo'llanma yoki darslikni har biri uchun 9 ball,

metodik qo'llanma – 5 ball, metodik ko'rsatma – 4 ball);

- ilmiy-amaliy konferensiyalarda maqolasi bilan ishtiroki uchun – 8 ball (xalqaro va respublika konferensiyalarida – 5 ball, viloyat va tuman miqyosida – 2 ball);

- o'quv seminarlari va seminar-treninglar uchun – 15 ball (innovatsiyalarni tatbiq etish yo'nalishida pedagog xodimlar uchun tashkil etgan har bir seminar uchun – 4 ball, ishtiroki uchun – 2 ball);

- ochiq darslar uchun – 8 ball (o'z fanidan ochiq dars tashkil etgani uchun har bir soatiga – 2 ball, boshqa ochiq darslarga qatnashgani uchun uch soatiga – 1 ball);

- o'zaro dars kuzatishlar – 8 ball (har o'n soatiga – 1 ball).

Tizimli yondashuvda barcha komponentlar tizimning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatishini inobatga olib, yuqorida keltirilgan barcha kattaliklarni hisobga olish zarur va bu o'z navbatida professor-o'qituvchilarni rag'batlantirishda ham asosiy komponentlar sifatida xizmat qilishi mumkin.

Baholash jarayonida demokratik tamoyillarga asoslangan holda baholash mezonlarini professor-o'qituvchilarning o'ziga tarqatish va belgilangan mezonlar asosida o'zini-o'zi baholashni tashkil etish ularning ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR, TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Avtoritar rahbarlik – bu uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar o'z irodasini o'quvchilarga ma'muriy kuch vositasida o'tkazishga intiladi, ya'ni majburlash, qo'rqitish, jazolash va boshqa chora-tadbirlardan foydalanadi. Bu uslub bevosita buyruq va ko'rsatmalar berishga asoslanib, o'quvchilarni so'zsiz bo'ysunishini nazarda tutadi, ya'ni pedagogik jarayonlarda o'quvchilar erkinligi cheklanadi hamda faqat o'qituvchilar pedagogik jarayonning yagona sub'yekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. O'quvchilarning bevosita va erkin muloqotda bo'lishi chegaralab qo'yiladi. Bunday vaziyatda o'quvchilarning pedagogik jarayonga munosabatlari, ularning ehtiyojlari va manfaatlari psixologik jihatdan e'tiborga olinmaydi.

Bu "ajratib tashla va hukmronlik qil" tamoyiliga asoslangan shafqatsizlarcha uslubdir. Bunday uslub garchi birmuncha samarali bo'lsa ham, aslida, pedagogik jarayonlarda muxoliflik, norozilik kayfiyatini shakllantiradi. Bunday uslub ta'sirida o'quvchilar o'z o'quv faoliyatidan qoniqmaydi, uning natijalariga qiziqmaydi va bular o'z navbatida pedagogik jarayonning samaradorligini pasayishiga sabab bo'ladi. Bunda mazkur uslubning turli xil shakli va usullari vujudga keladi:

- mutloq - diktatorlik shakli – o'qituvchilar pedagogik jarayonning yagona sub'yekti sifatida faoliyat ko'rsatadi, mazkur jarayonda o'quvchilar faol ishtirok etmaydi. Bunday uslubdan foydalanuvchi o'qituvchilar muttasil buyruq berishga, majburlash, qo'rqitish orqali o'quvchilarni o'z istaklariga so'zsiz bo'ysundirishga intiladi, natijada o'quvchilarda ta'lim uchun ta'lim olish, ya'ni o'z faoliyatidan qoniqmasdan yoki o'rganilayotgan fanga qiziqishsiz ta'lim olish, shaxsiy qiziqishlarsiz va manfaatlar uyg'unlashuvisiz ta'lim olish, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqib ta'lim olish, majburan ta'lim olish yo'nalishidagi motivlar shakllanadi;

- avtokratik usul – yakkahokimlik tushunchasini bildiradi, ya'ni hukmronlikni amalga oshiruvchi o'qituvchilarning ixtiyorida keng imkoniyat va vakolatlar bo'lishini ko'zda tutib, bu ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan boshqaruvning byurokratik turi;

- patriarxal yoki matriarxal shaklida o'qituvchilar "oila boshlig'i"

mavqeidan foydalanish yordamida pedagogik jarayonlarni tashkil etadi va boshqaradi, o'quvchilar ularga nisbatan juda katta ishonch bildirishadi va shunga asosan bo'ysunishadi;

- iltifotli – xarizmatik shakli, bunda o'qituvchilar shaxsning o'ziga xos takrorlanmas donolik, xayrixohlik, qahramonlik, mardlik kabi xususiyatlariga asoslangan yuqori darajadagi mavqeidan foydalanadi, o'quvchilar uning xatti-harakatlarini, maqsadlari yo'nalishini o'zaro munosabatlar jarayonida kuzatishadi va h.k.

Akademik qobiliyatlar – matematika, fizika, biologiya, ona tili, adabiyot, tarix va boshqa shu kabi fanlar sohasiga xos qobiliyatlardir.

Qobiliyatli o'qituvchi faqat o'z fani hajmidagina emas, balki atroflicha, keng, chuqur bilib, bu sohada erishilgan yutuqlar va kashfiyotlarni doimiy ravishda kuzata borib, o'quv materialini mutlaqo erkin egallab, unga katta qiziqish bilan qaraydi, hamda ozgina bo'lsada tadqiqot ishlarini olib boradi.

Ko'pchilik tajribali pedagoglarning aytishlaricha, o'qituvchi o'z fani bo'yicha bunday yuksak bilim, saviyasiga erishish, boshqalarni qoyil qilib hayratda qoldirish, o'quvchilarda katta qiziqish uyg'ota olish uchun u yuksak madaniyatli, har tomonlama mazmunli, keng eruditsiyali (bilimdon) odam bo'lmog'i lozim.

Bunday o'qituvchilar haqida o'quvchilar: "Mahmud aka xuddi professorning o'zginasi-ya. Biz uning bilmagan birorta sohasi bormikin deb tez-tez o'ylab turamiz. Darslarga u butun vujudi bilan kirishib ketadi" deydi. Ba'zan o'quvchilar o'z o'qituvchisi haqida "Baqirchaqir qiladi-yu, ammo zarracha bilimi yo'q" deb, butunlay teskarisini aytсалar, juda alam qiladi [M.G.Davletshin va b., 118-bet].

Avtoritar qobiliyati – bu o'quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta'sir ta'sir etib, ularda obro' ortira bilishdan iborat qobiliyatdir. (Garchand o'qituvchining o'z fanini mukammal bilishi, sezgirligi va xushmuomalaligi asosida qozoniladi).

Avtoritar qobiliyat o'qituvchining rostgo'yligi, irodaviy uddaburonligi, o'zini tuta bilishi, farosatligi, talabchanligi kabi irodaviy xislatlari hamda qator shaxsiy xislatlarga, shu bilan birga o'quvchilarni ta'lim-tarbiyasida javobgarlikni his etish, uning e'tiqodi, o'quvchilarga ma'naviy va ma'rifiy e'tiqodni singdira olganligiga ishonchi kabi xislatlarga ham bog'liqdir.

O'quvchilar (ayniqsa, o'g'il bolalar, o'spirinlar buni alohida ta'kidlab o'tishi kerak) talab qilishni biladigan, o'quvchilarni majbur qilmagan va do'q-po'pisa qilmagan, shu bois birga behuda rasmiyatchilikka yo'l qo'ymagan holda o'z aytganini qildiradi oladigan o'quvchilarni juda hurmat qiladilar. Shu munosabat bilan o'quvchilarning o'qituvchilar haqida ayrim fikrlarini misol qilib keltiramiz:

"Uning ajoyib xislati bor – u hech qanday zarfa va baqiriq, chaqiriqsiz ishlay oladi"; "Biz uni jiddiyligi, vazminligi va talabchanligi uchun juda yaxshi ko'ramiz. U hamma vaqt shunchaki muloyimgina, sipogina talab qiladi, ammo uning talabi shy qadar ta'sirchanki, unga quloq solmaslik mumkin emas"; "Bizning matematika o'qituvchimiz hamma vaqt yuvosh, osoyishta, o'zini tutgan va shu bilan bir qatorda butun sinfga ajoyib ta'sir eta oladi"; "Kimyo o'qituvchimizning obro'siga e'tibor bermay ko'ringchi, u har qanday sharoitda ham o'z aytganiga erishadi"; "Nig'mat aka bizga ustunlik bilan ta'sir etadi. U hadeb talab qilavermaydi, agar talab qiladigan bo'lsalar unda bo'yin tovlab bo'lmaydi", yoki o'quvchilarning o'z o'qituvchilari haqidagi mana bunday fikrlari: "Polvon aka maktabimizdan ketganiga biz xursand bo'ldik. U bizni do'q-po'pisa, baqiriq-qichqiriq, buyruqbozlik bilan qo'lga olaman deb o'ylardi-yu, ammo bizni bardosh berishgagina majbur etardi, xolos".

Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning maktab ta'limi jarayonida olib borilayotgan ishlarning ahvoli to'g'risida juda achinib aytgan fikrlarini keltirish o'rinli bo'lur edi: «Mabodo biror o'quvchi o'qituvchiga e'tiroz bildirsa, ertaga u hech kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktablardagi jarayonda o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi, prinsip ham tayyor: "mening aytganim – aytgan, deganim – degan".

Shu bilan bir qatorda o'quvchilar o'qituvchining bo'shligi, landavurligi, laqmaligi, soddalarcha ishonuvchanligi, sustkashligi, ortiqcha riyogarchiligi, irodasizligi kabi xislatlarni baralla qoralaydilar: "yaxshi odamu, lekin o'ta bo'sh: uni aldab ketish hech gap emas"; "Tushunib bo'lmaydi: birda juda qattiqqo'l, talabchan, ba'zan hech qanday talab degan narsa yo'q"; "Juda bo'shang, lanj: uni ko'rishing bilan uyqing keladi"... [M.G.Davletshin va b., 121-122-bet].

Axborot – pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda, shuningdek mazkur jarayon sub'yektlari hisoblangan o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirishda, pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish hamda samaradorligini oshirishda o'ziga xos, turli xil yangiliklarni o'z ichiga olgan ma'lumot va xabarlardan iborat bo'lib, yangi, ishonchli va zarur axborotlar pedagogik jarayon sub'yektlari faoliyatini muvofiqlashtirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Axborotlar bilan ishlash – turli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatishdan iborat bo'lib, pedagogik jarayonlar sub'yektlari faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida qo'llaniladi. Bu jarayonda pedagogik jarayon tashkilotchilari hisoblangan rahbarlar va o'qituvchilar kelib tushayotgan asosiy ma'lumotlarning generatori sifatida faoliyat ko'rsatadi va ular uchun asosiy vosita axborotlar bo'lib, ular asosida pedagogik jarayon sub'yektlari faoliyati muvofiqlashtirib boriladi.

Axborotlar bilan ishlash funksiyasi – o'qituvchilar bilan o'quvchilar o'rtasidagi shaxsiy va texnologik axborotlar almashuvini tashkil etadi. Uning asosiy xususiyati o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'sirni vujudga keltirish asosida ularning faolligini ta'minlash, o'quvchilarning o'z o'quv faoliyatidan va tashkil etilgan pedagogik jarayonlarda yaratilgan shart-sharoitlardan qoniqish hosil qilishlari uchun ularda qiziqishlar vujudga keltirish bilan belgilanib, bu xususiyat o'qituvchilarning o'qitish funksiyalari bilan bir qatorda, axborotlar bilan ishlash funksiyasining ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'ladi.

Axborotlar tizimi – bu pedagogik jarayonlarda muhim pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni, o'qitishning yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini hamda pedagogik jarayonlarni tashkil etish yo'nalishidagi barcha me'yoriy hujjatlarni, shuningdek, iqtisodiy-ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, huquqiy va tashkiliy yangiliklardan iborat axborotlar oqimini, zamonaviy axborot texnologiyalari, komp'yuterlashtirish va komp'yuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashni o'z ichiga oluvchi murakkab tizim hisoblanadi.

Axborotlar tizimi keng bo'lishi va o'z xususiyatiga qarab yangilanuvchanligini, ya'ni o'zgarib borishi, yangiliklar bilan boyib borishini inobatga olib, axborotlar bilan ishlash jarayoniga pedagogik jarayon tashkilotchilari tomonidan tizimli yondashuvning joriy etilishi talab etiladi. Buning sababi, tizim komponentlari o'rtasidagi munosabatlar, o'zaro bog'liqlik va aloqadorlik hamda ixtiyoriy komponent butun bir yaxlit tizimning o'zgarishiga o'z hissasini qo'shishi va o'zgaruvchi omillarning pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta'sir ko'rsatishidir.

Axborotlar to'plash metodlari. Barcha metodlar qatori axborotlar to'plash metodlari ham pedagogik jarayonlarni takomillashtirish uchun sub'yektlar faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishda pedagogik jarayonning holati to'g'risida ishonchli axborotlar to'plash va sub'yektlarning faoliyatini ob'yektiv baholashni amalga oshirishga xizmat qiladi, mazkur metod me'yoriy hujjatlarni va ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, pedagogik jarayonlar samaradorligini tahlil qilish, so'rovnomalar o'tkazish, o'qituvchilarni attestatsiyadan o'tkazish, tahliliy baholash, umumlashtirish va tizimlashtirish, statistik va matematik tahlil va boshqa ko'pgina usullarni o'z ichiga oladi.

Axborot-tahlil funksiyasi boshqaruvda alohida ahamiyatga ega bo'lib, axborotlarni olish va tahlil qilishda jarayon boshlanadi va tugallanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, axborotlarni tahlil qilish boshqaruv tizimining poydevori hisoblanadi. Mazkur funksiyaning asosiy vazifasi o'qituvchilar (pedagogik jarayon sub'yektlari) to'g'risida uzluksiz ravishda axborotlar to'plash va ularni chuqur o'rganish hamda ob'yektiv baholashdan iborat. Bu vazifalarni bajarish asosida o'qituvchilar faoliyatini rivojlantirishning strategiyalari, rivojlanish omillari, bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish yo'llari aniqlanadi. Shuning uchun, o'qituvchilar va ularning kasbiy tayyorgarligi to'g'risida to'plangani axborotlar nafaqat ishonchli balki, yangi va asosli bo'lishi ham zarur.

Axborot-tahlil funksiyasining asosiy vazifasi o'qituvchilar va ularning kasbiy tayyorgarligi to'g'risida uzluksiz ravishda axborotlar to'plash va ularni chuqur o'rganish hamda ob'yektiv baholashdan iborat bo'lib, mazkur axborotlar rahbarlar uchun zarur hisoblanadi, chunki ular o'z yo'nalishlarida ta'lim muassasasidagi mavjud shart-

sharoitlar, o'zaro munosabatlar, jamodagi psixologik muhit hamda o'quvchilar, pedagoglar va xodimlarning qiziqishi, moyilligi, individual psixologik xususiyatlari, qobiliyatlari va imkoniyatlari, shuningdek, oilaviy shart-sharoiti va faoliyatlari to'g'risida axborotlar to'plash va tahlil qilish asosida o'qituvchilarning faoliyatlarini tashkil etish va takomillashtirishni rejalashtiradi va amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini belgilaydi.

Axloqiy xislatlar – odamiylik, qanoatlilik, jonkuyarlik, mehribonlik, oliyanoblik, oliyhimmatlilik, baynalminallik, g'oyaviy sodiqlik, kechirimlilik, andishalilik, shaxsiy manfaatdan ijtimoiy manfaatdorlikni yuqori qo'ya olishlik.

Bilim – insonning moddiy olam, jamiyat, madaniyat to'g'risidagi tushuncha va g'oyalarning egallab olgan shakli

Bilim – kishilarning tabiat va jamiyat xodisalari haqida hosil qilgan ma'lumotlari, voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqea va hodisalarga (qoidalarga) zid kelmasa bunday ishonch bilim hisoblanadi [O'zME 2-jild, 23-bet]..

Bilim darajasi – o'qituvchilarning pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari, komp'yuterlashtirish va komp'yuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborotlar bilan ta'minlashni rivojlantirishi uchun texnika va texnologiyani bilishi va ulardan foydalana olishi, iqtisodiyotni bilishi, boshqarish uslublarini, funksiyalari va strukturasi bilishi, istiqbolni belgilash hamda boshqaruv jarayonini loyihalash texnologiyalarini joriy eta olishini belgilaydi.

Bilimdon – katta nazariy ma'lumotga ega bo'lgan o'qimishli, ilimli, bilimli shaxs.

Bilimdonlik – bu o'quvchilarning o'quv materialini egallab olish qobiliyati. Bilimdonlikni "bilim olish qobiliyati", "bilim olish imkoniyati" sinonimlari bilan ifodalash mumkin, u bilim oluvchilarning shaxsiy xislatini bildiradi

Bilish komponenti – boshqalarni va o'zini-o'zi bilishga qaratilgan psixik jarayonlar: sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol va h.k.

Boshqarish strukturasi – "struktura" lotincha so'z bo'lib, narsalar

tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liq ravishda joylashishi, tashkiliy tuzilishini bildiradi. Boshqaruv maqsadlarini amalga oshiruvchi va funksiyalarini bajaruvchi bir-biri bilan bog'langan turli boshqaruv organlari va bo'g'inlarining majmui tushuniladi. Boshqarishning maqsadlari, funksiyalari, vazifalari, ob'yektlari va uning tashkiliy tuzilishini belgilab beradi.

Boshqarishning demokratik tamoyili – uning mohiyati, asosan, boshqarish jarayoniga barcha jamoa a'zolarini jalb etish, qarorlar qabul qilishda, muassasa maqsadi va vazifalarini belgilashda barcha xodimlar qatnashishini taqozo etadi. Qatnashish shakli turlicha bo'lishi mumkin: boshqarishda yagona ma'muriylik, birgalikdagi pul mablag'lari, boshqarish qarorlarini kollegial hal qilish va hokazo.

Boshqaruv – bu so'z odatda aniq bir maqsadga erishish uchun boshqariluvchi tizim (yoki boshqaruv ob'yekti)ga faol ta'sir ko'rsatish to'g'risida gapirilganda qo'llaniladi. Bu o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi faoliyat bo'lib, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir.

Boshqaruv faoliyati – ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv faoliyatini ikkita sub'yektning, ya'ni rahbar bilan ta'lim tizimining o'zaro bog'liq faoliyati sifatida qarash mumkin. Bunday holatda rahbarning boshqaruv ob'yekti boshqarish va o'zini-o'zi boshqarish kabi zaruriy xususiyatlarga ega bo'lgan ta'lim tizimi hisoblanadi, turli xil ta'sirlar asosida, boshqarilayotgan ta'lim muassasasi ham o'z o'rnida boshqaruv natijalariga va boshqaruv sub'yektiga ta'sir ko'rsatadi.

Boshqaruv jarayoni negizi – har qanday ta'lim muassasasining asosiy vazifasi hisoblangan pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va uni takomillashtirish negizi boshqariladigan ob'yekt va boshqaruvchi sub'yekt tizimlaridan tashkil topadi. Bu tizim rahbarlar, o'qituvchilar va o'quvchilar (sub'yekt)ni pedagogik jarayonlar (ob'yekt)ga munosabatlarni ifodalaydi.

Boshqaruv muloqoti – pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sub'yektlar faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonidagi muloqot, ya'ni sub'yektlarning faolliklarini ta'minlash, xatti-harakatlarini maqsadga yo'naltirish yoki motivlashtirishdir.

Boshqaruv madaniyati – umumiy ijtimoiy madaniyatning tashkil

etuvchi komponenti sifatida ma'lum bir ijtimoiy madaniyat kontekstida boshqaruv tushunchalari, munosabatlarning o'zaro ta'sir etishi natijasida shakllanadi va unda qator kattaliklar – an'anaviylik, dolzarblik darajasi, motivlashtirish tizimi; rahbarlik uslublari, tashkiliy muhitning sifati; kommunikatsiyalar; personalni boshqarish; boshqaruv strategiyasi; rahbar va o'qituvchilarning kasbiy madaniyati rasmiy jihatdan namoyon bo'ladi.

Boshqaruv mas'uliyati – ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish, pedagogik jarayonlarni zamonaviy talablarga mos, ilmiy asosda tashkil etish, sub'yektlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda umumiy manfaatlarni ko'zlovchi natijalarga erishish uchun qabul qilgan qaror, uning ijrosi, o'z xatti-harakati va faoliyati uchun javobgarlikning rahbarlar va o'qituvchilar tomonidan his qilinishidir.

Boshqaruv pog'onasi – tashkiliy tuzilishga ko'ra ta'lim muassasasining yuqori bo'g'ini (rahbarlar) bilan quyi bo'g'ini (ijrochilar) o'rtasidagi masofaning katta-kichikligi – pog'onaviyligi, ya'ni bu bir zvenoning (xodimning) boshqasiga bo'ysunish ketma-ketligidir. Rahbar bilan oddiy ijrochi o'rtasidagi masofa qanchalik katta bo'lsa (darajalar soni) ta'lim muassasalaridagi pog'onaviylik darajasi shunchalik katta bo'ladi.

Boshqaruv strategiyasi. Ko'zlangan maqsadlarga erishishda pedagogik jarayonlarni takomillashtirish, sub'yektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, strategik reja asosida faoliyatni tashkil etish va boshqarish yo'nalishida asosan boshqaruvning ikki xil turi nazarda tutiladi: strategik boshqaruv, kon'yunkturaviy boshqaruv. Amaliy faoliyatda u yoki bu boshqaruv yo'nalishining ustunligi tashkiliy tizimning yangilik darajasi ko'rsatkichlari bilan belgilanadi.

Boshqaruv uslubi – bu muassasa oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda xodimlarni boshqarish hamda boshqaruv jarayonida vujudga keladigan muammolarni hal qilishda qo'llaniladigan usullar, yo'llar majmuidir. Boshqaruv faoliyatining uslublarini shakllantirish ma'lum darajada rahbarning yashash va mehnat qilish sharoitlariga asoslanadi (mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar, boshqaruv faoliyati muhiti va h.k.) va boshqaruv sub'yektining harakatlariga tizim orqali ta'sir ko'rsatgan holda uning individual uslublarini rivojlantiradi.

Boshqaruv vositalari – innovatsiyalar boshqaruv madaniyatining

eng muhim va asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi va ular innovatsion jarayonlarda nafaqat o'zining tavsifi va xususiyatlari bilan, balki boshqaruv madaniyatining eng muhim xususiyatlari sifatida ham belgilanadi. Bu o'z navbatida innovatsiyalarning sifatini belgilash bilan bir qatorda ularning namoyon bo'lishi vaqtlarini ham oldindan belgilaydi.

Boshqaruv algoritmi – bu ta'lim muassasasi rahbarlari boshqaruv faoliyatining ketma-ketligi (izchilligi) bo'lib, u yettita bosqich: pedagogik jarayonning holati to'g'risida ishonchli axborotlar to'plash, qayta ishlash va obyektiv baholash; boshqaruv faoliyati maqsadini belgilash; boshqaruv faoliyatini oldindan ko'rish (anglash) va rejalashtirish; kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish; jamoa faoliyatini nazorat qilish va tashxis; jamoa a'zolarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish; ta'lim muassasasi faoliyatining rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlashdan iborat, mazkur bosqichlar izchilligida, boshqaruv metodlari: ma'muriy, ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy, shuningdek, axborotlar to'plash metodlarini qo'llash yordamida boshqaruv funksiyalarining bajarilishi amalga oshiriladi.

Strategiya [strategos] grekcha so'z bo'lib, o'zbek tilida "general san'ati" degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilining izohli lug'atida ham mazkur atama urush olib borish san'ati, ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san'ati va ilmi ma'nolarida talqin etilgan.

Strategiya so'zi bugungi kunda biron-bir faoliyatga rahbarlik qilish, korxonalar yoki muassasalarning faoliyatini boshqarishda istiqbolni oldindan aniqlash, faoliyatni oldindan rejalashtirish, bajariladigan vazifalarning yo'nalishini aniqlash, shuningdek maqsadga erishishda natijalarni oldindan aniqlash va nazorat qilish yo'nalishlarida keng qo'llanilmoqda. Mazkur so'zdan strategik reja, strategik rejalashtirish, boshqaruv strategiyasi, strategik boshqaruv kabi tushunchalar kelib chiqqan bo'lib, bu tushunchalarning har biri o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Didaktik qobiliyatlar – bu bolalarga o'quv materiallarni aniq va ravshan tushuntirib, oson qilib yetkazib berish, bolalarda fanga qiziqish uyg'otib, ularda mustaqil faol fikrlashni uyg'otadigan qobiliyatlardir.

Didaktik qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi zarurat tug'ilganda

qiyin o'quv materialini osonroq, murakkabrog'ini soddaroq, tushunishi qiyin bo'lganini tushunarliroq qilib o'quvchilarga moslashtirib bera oladi. O'qituvchining mana shu xislatlarini bilib olgan o'quvchilar odatda: "O'qituvchining eng muhim tomoni ham uning hamma narsani aniq, ravshan va tushunarli qilib berishadi-da. Bunday o'qituvchining qo'lida mazza qilib o'qiging keladi"; "Unisi esa hech narsaga yaramaydigan o'qituvchi, hech ham aniq tushuntirib bera olmas edi"; "o'quv materialini oldida tirik odamlar emas, balki qandaydir mexanizmlar bordek, zerikarli va noaniq – mujmal qilib tushuntiradi. Biz bunday o'qituvchilarni yoqtirmaymiz" - deydilar.

Hozirgi tushunchamizdagi kasbiy mahorat, shunchaki bilimlarni osonroq, hammabop va tushunarli qilib o'quvchilar ongiga yetkazib berish qobiliyatinigina emas, balki, shu bilan birga o'quvchilarning mustaqil ishlarini, ularning bilish faolligini oqilona va mohirlik bilan boshqarib, ularni kerakli tomonga yo'naltirib turishdan iborat qobiliyatni ham o'z ichiga oladi.

Mana shu qobiliyatlar asosida o'quvchilar psixologiyasiga xos doimiy ustanovka (yo'naltirish) yotadi. Qobiliyatli pedagog o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini, ularning taraqqiyot darajasini hisobga olgan holda bolalarning nimani bilishi va nimani bilmastligini, nimalarni allaqachon esdan chiqarganliklarini tasavvur qila oladi.

Ko'pchilik o'qituvchilarga, ayniqsa xafsalasiz o'qituvchilarga, o'quv materiali oddiygina va hech qanday alohida tushuntirish hamda izoh berishni talab qilmaydigandek tuyuladi.

Bunday o'qituvchilar o'quvchilarni emas, balki birinchi galda o'zlarini nazarda tutib ish olib boradilar. Shuning uchun ham o'quv materialini o'ziga qarab tanlaydilar. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchilar esa o'zlarini o'quvchi o'rniga qo'yib, kattalar uchun aniq, ravshan va tushunarli bo'lgan material o'quvchilar uchun noaniq va tushunarsiz bo'lishi mumkin, degan nuqtai nazarda bo'ladilar.

Shuning uchun ham bunday o'qituvchilar materialning xarakteri va uni bayon etish usullarini alohida o'ylab ko'rib rejalashtiradilar. Materialni bayon etish jarayonida qobiliyatli o'qituvchi uchun o'quvchilarning qanday tushunayotganliklari va zarur bo'lganda dars bayonotiga alohida e'tibor berishga intilayotganliklari kabi qator belgilariga qarab to'g'ri tasavvur qilib, xulosa chiqara oladi.

Ana shunday pedagogik qobiliyatni aniqlash uchun psixolog N.Gonobolin juda qulay test tavsiya etadi. Bu testga ko'ra bilish xarakteridagi matnda o'qituvchining fikri ayrim sinf o'quvchilari uchun qiyin deb hisoblangan qismlarni alohida ko'rsatib, nima uchun bu qismlarning qiyinligini tushuntirib berish, shundan so'ng esa matnni o'quvchilarga yengil va ularning o'zlashtirishlari uchun qulay qilib tuzish tavsiya etiladi.

Qobiliyatli o'qituvchi shu bilan bir qatorda materialni o'zlashtirish, o'quvchilarga bir oz nafas olib, o'zlariga kelib olishlari va o'z diqqat-e'tiborlarini bir joyga qo'yib, ayrim qo'zg'alishlarni "so'ndirib", boshqalarni esa jadallashtirib, ularning bo'shashganligini, sustligini va loqaydligini yengishlari uchun zamin tayyorlash zarurligini ham nazarda tutadi. Bunday o'qituvchi zarur sharoit yaratilmaguncha darsni boshlamaydi. Haddan tashqari shiddat bilan boshlangan dars o'quvchilarda himoya qiluvchi tormozlanishning vujudga keltirib, miya faoliyati tormozlanadi va o'qituvchining so'zlari yetarlicha idrok qilinmaydi [M.G.Davletshin va b., 117-bet].

Didaktik qobiliyatlar – bu pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda ko'zlangan maqsadning mazmun va mohiyatini, vaziyatlarga ko'ra unga erishish yo'llarini va mazkur yo'nalishdagi vazifalarni sub'yektlarga aniq va ravshan, tushunarli qilib yetkaza olish, ularda mazkur vazifalarni bajarishga mas'uliyat hissini hamda qiziqishni uyg'ota olish, shuningdek, maqsadga erishishda sub'yektlarning barchasini faol ishtirokini ta'minlay oladigan qobiliyallardir.

Didaktika (yun.didaktikos – o'rgatuvchi, ta'lim beruvchi) – pedagogikaning tarmog'i. Ta'lim nazariyasi bilan shug'ullanadi. "Didaktika" atamasi ilk bor Yevropada XII asrda o'qitish va ta'lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo'llanila boshlagan [O'zME 3-jild, 291-bet].

Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – bu qobiliyat bir vaqtning o'zida diqqatni bir qancha faoliyatga qarata olishda namoyon bo'lib, o'qituvchi ishida g'oyat muhim ahamiyatga egadir.

Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zining diqqat-e'tiborini o'quv materialini qanday bayon etilishiga, uning mazmuniga, o'z fikrlarini atroflicha qilib qanday ochib berishga yoki o'quvchi fikriga baralla qaratadi va shu bilan birga bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarni

kuzatib, ularni toliqqan-toliqmaganligiga, e'tiborli yoki e'tiborsizligiga, darsni tushunish-tushunmasligiga ahamiyat berib, o'quvchilarning intizomini kuzatadi hamda oqibat natijada o'zining shaxsiy xulq-atvoriga (yurish-turishiga, o'zini tutishiga, mimika va pantomimikasiga) e'tibor beradi. Tajribasiz o'qituvchi, ko'pincha o'quv materialini bayon etishga berilib ketib, o'quvchilarning nima qilayotganliklarini sezmay qoladi va nazoratdan chiqarib qo'yadi, agar, bordiyu, o'quvchilarni diqqat-e'tibor bilan kuzatishga harakat qilsa, bunday hollarda o'z bayonotining izchilligini yo'qotib qo'yadi. [M.G.Davletshin va b., 123-124-bet].

Diversifikatsiyalashgan strategiya – pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish, iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularni o'qitishda tabaqalashtirilgan yondashuvlarni joriy etish asosida o'quvchilarni o'zlashtirish ko'rsatkichini ko'tarish, raqobatbardosh bitiruvchilar sonini ko'paytirishga qaratilgan vazifalarni amalga oshirish yo'llarini ifodalaydi.

Dialektiklik – bu innovatsiyalarning rivojlanish jarayoni bo'lib, uning me'yoriy asoslari sekin-asta, bosqichma-bosqich yangilanib borish jarayoni bilan tavsiflanadi. Innovatsiyalar mavjud urf-odat, an'analar bilan ijodiy ziddiyatlarni vujudga keltiradi va ular asosida amalga oshiriladi va rivojlantiriladi. Bu tizimning uzluksizligi muassasaning innovatsion rivojlanish ko'rsatkichini belgilaydi.

Demokratik rahbar – bunday turdagi rahbar o'z faoliyatini o'zining jamoasi a'zolariga tayangan holda, jamoa fikrini inobatga olib amalga oshiradi. Boshqaruv vakolatlari, faoliyat uchun javobgarlik bo'ysunuvchilar o'rtasida taqsimlanadi. Xodimlarning o'zaro munosabatlarini rag'batlantirish bilan birgalikda ularning bildirgan fikriga quloq soladi, ular bilan maslahatlashadi, ijobiy tomonlarini inobatga olib rag'batlantirib boradi.

Ehtiyoj – insonlarni ma'lum bir faoliyatga yo'naltiruvchi omillar bo'lib, ularni jismoniy yoki aqliy mehnatga, shuningdek, dam olish, bilim olishga, hunar o'rganishga, umuman olganda yashash uchun kurashishga chorlaydi. Inson ehtiyojlari turli xil bo'lib, ularning psixologik xususiyatlariga, ya'ni odati, didi va kayfiyati, yoshi va sog'ligi, jinsi, oilaviy ahvoli, mehnat qilish va yashash sharoitlariga ham bog'liq bo'ladi.

Ehtiyoj – insonlarning hayot kechirishining aniq shart-sharoitlarga qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatdir.

Insonning ehtiyojlari ham ijtimoiy, ham shaxsiy xususiyatlarga ega bo'lib, u birinchidan, shunchaki tor ma'nodagi shaxsiy tavsifga ega bo'lib tuyulganda ham ijtimoiydir (masalan, non – non bo'lib dasturxonga kelgunicha ko'plab insonlar mehnati sarflanadi, bu esa ijtimoiy mahsulotdir). Ikkinchidan, inson o'z ehtiyojlarini qondirish uchun mazkur ijtimoiy muhitda tarixan tarkib topgan vositalar va usullardan foydalanadi. Uchinchidan, insonning ko'pgina ehtiyojlari shaxsiy ehtiyojlaridan ko'ra o'zi birgalikda mehnat qiladigan jamiyatning, jamoaning, guruhning ehtiyojlarini ifodalaydi, ya'ni jamoa ehtiyojlari kishining shaxsiy ehtiyojlari tusini oladi (yig'ilishda ma'ruza bilan chiqish uchun tayyorlanish ehtiyoji).

Funksiya – bu lotincha so'z bo'lib, biror kimsa yoki narsaning ish, faoliyat doirasi, vazifasi degan ma'nolarni bildiradi. Rahbar o'zining ishlab chiqarish va texnologik vazifalarini bajarishi professional funksiyalarini belgilaydi va bunda rahbar professional-mutaxassis sifatida doimo insonlar bilan munosabatda bo'ladi.

Funksional strategiya – pedagogik jarayon sub'yektlari, ta'lim muassasasining bo'limlari hamda jamoaviy boshqaruv organlari va jamoatchilik tashkilotlarining funksional vazifalarini amalga oshirish usullarini o'z ichiga olgan ishchi strategiya hisoblanadi.

Faoliyat – bu insonning belgilangan maqsad yo'nalishida boshqarilib turadigan ichki va tashqi faolligi bo'lib, mazkur faollik orqali tabiatga va boshqa insonlarga ta'sir ko'rsatiladi.

Faoliyat – falsafa fanida faoliyat tushunchasi butun olamga nisbatan bo'lgan o'ziga xos insoniy munosabatlar usuli sifatida qaralsa, ijtimoiy nazariyada faoliyat ijtimoiy voqelikning mavjudligi va rivojlanishi, ijtimoiy faollikni vujudga kelishi deb ta'riflanadi.

Psixologiya va pedagogika fanlari yo'nalishidagi tadqiqotlarda faoliyat tushunchasi alohida ob'yektivlashtirilgan moddiy va ma'naviy mahsulotlarni ishlab chiqish va vujudga keltirishga yo'naltirilgan faollik, ya'ni sub'yektning faolligi sifatida tadqiq qilinadi.

Faollik – bu insonlarda "o'z kuchi bilan javob qilish" qobiliyatini bildiradi. Insonlarni muayyan tarzda va muayyan yo'nalishda harakat

qilishga undaydigan ehtiyojlar uning faolligi manbai hisoblanadi.

Gumanitar (frans.*humanitaire* – insoniy tabiat, bilimlilik) – inson shaxsiga, inson xuquqi va manfaatlariga oidlikni anglatuvchi tushuncha. Masalan, gumanitar muammolar, gumanitar yordam, gumanitar fanlar [O'zME 3-jild, 124-bet].

Gumanizm (lot. *humanus* – insoniy) – odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga g'amxo'rlik qilish [O'zME 3-jild, 124-bet].

Ichki kommunikatsiya. Ta'lim muassasalarida vertikal va gorizontal axborot almashinuvi mavjud bo'lib, bular ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish uchun zarur bo'lgan axborotlar almashinuvi, ya'ni ichki kommunikatsiyani ifodalaydi.

Ideal pedagog – kasbiy, fuqaroviy, ishlab chiqarish va shaxs sifatlarining eng yuksak darajada shakllangan namunasi, bo'lajak pedagoglar tayyorlash uchun andoza.

Ideal o'qituvchi:

1. **Mutaxassis sifatida** – pedagogika nazariyasi va psixologiyani bilish; pedagogik mahorat, ta'lim-tarbiya texnologiyalarini egallagan bo'lishi; mehnatni samarali tashkil eta olish; bolalarni sevishi; odamga ishonishi; pedagoglik qobiliyat egasi; umumiy salohiyat, sabrli, yangilikka intilishi, o'zini tuta bilishi; topqirligi, ta'sirlanishining tezligi va aniqligi, ruhiy sahiylik, bolalarni tushunish va ular bilan ishlashni bilish; aniq va tushunarli nutq egasi; talabchanlik; nazokatlilik, o'zini tuta bilishlik, adolatparvarlik; tashkilotchilik ko'nikmalari; kirishimlilik va boshqalarni tinglay olish;

2. **Ishchi-xodim sifatida** – maqsad qo'ya olish va unga erisha olish; vaqtni to'g'ri taqsimlay bilish; o'zini kasbiy mahoratini doim oshira olish, mehnat faoliyati natijasi samaradorligini oshirishga intilishi, ijod qobiliyati egasi; har tomonlama bilimdon, oqilona, tadbirlar; kasbining shaydosi; jamoada mehnat qila bilishi, doimo olg'a intilishi, intizomli, mas'uliyatli, faol, ish taqsimlay olishi va mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilishi;

3. **Inson sifatida** – yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lishi; ijtimoiy hayotda faol bo'lishi, faol ijtimoiy munosabatga ega bo'lishi, mustahkam sog'liq, barchaga namuna bo'lishi, davlat

qonunlarini hurmat qilishi, sog'lom turmush tarziga rioya etishi, insonparvarlik, ma'naviy-ma'rifiy, ziyolilik darajasining yetukligi, o'z xatti-harakatlariga nisbatan tanqidiy yondasha bilishi [X.Abdullayev, 108-bet].

Ijtimoiylashtirish – sub'yektlarda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy faoliyatni shakllantirishdan iborat bo'lib, pedagogik jarayonda ijodiy ta'limiy muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-psixologik metodlar – pedagogik jarayon sub'yektlari o'rtasida shunday munosabatlarni vujudga keltirishni nazarda tutadiki, bunda o'qituvchilar o'quvchilarning bermalol, erkin harakat qilishi, o'zini-o'zi namoyon qilishi, turli jarayonlarda erkin ishtirok etishi, fikr bildirishi uchun shart-sharoit va ijodiy ta'limiy muhitni yaratishi nazarda tutiladi.

Ijtimoiy-psixologik moslashuv – bu sub'yektlarni ta'limiy muhit ta'siriga moslashuvini nazarda tutadi va uning ma'lum bir guruhdagi qadriyatlar bilan yaqinlashuvi, mazkur yangi muhitdagi ijtimoiy me'yorlarni, an'ana va guruhiy madaniyat elementlarini o'zlashtirishidir. Ijtimoiy-psixologik moslashuv ham kasbiy moslashuv singari ma'lum bir imkoniyatlar darajasida, tashqi muhit ta'sirini o'z ichki dunyosi, kechinmalari doirasida o'z maqsad va ehtiyojlariga moslashtirib olishiga bog'liq.

Innovatsiya – maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishlar bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy birlikka – muassasa, uyushma, jamoa va guruhlariga yangi va nisbatan barqaror bo'lgan elementlarni, umumiy holda xalqning ma'naviy-madaniy munosabatlari va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yangiliklarni kiritishdir.

Innovatsiyalar diffuziyasi – ijtimoiy tizim a'zolari o'rtasida yangiliklarning kommunikatsion vositalar orqali vaqti-vaqti bilan uzatilish jarayoni. Ma'lum bir sub'yekt uchun yangi bo'lgan g'oya, narsa va texnologiyalar yangiliklarni tashkil etishi mumkin. Boshqacha so'z bilan aytganda, diffuziya – avval ishlatilgan va o'zlashtirilgan innovatsiyalarni yangi sharoitda yoki yangi joyda ommalashtirishni bildiradi.

Innovatsiyalarni ommalashtirish – bu axborotlar jarayoni, kommunikatsion vositalarning qudratiga bog'liq bo'lgan axborotlar

almashinuvining shakli va tezligi, sub'yektlarning axborotlarni qabul qilish xususiyatlari va mazkur axborotlardan amaliyotda foydalanish qobiliyatlari va hokazo.

Innovatsiyalarning boshqaruvchanligi – yangiliklarni tatbiq etishda tashkiliy vaziyatlarni rivojlantirishning dasturlashtirish imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi.

Innovatsiyalarning ijtimoiy mo'ljallanganligi. Individual maqsad va vazifalarni tashkiliy tizimning maqsad va vazifalari bilan muvofiqlashtirish asosida innovatsion jarayon sub'yektlarining o'zini-o'zi rivojlantirishi, shaxsiy rivojlanish istiqbollarini belgilaydi.

Innovatsiyalarning insonlar qiziqishi bo'yicha tabaqalash-tirish qobiliyati. Alohida individ va guruhlar uchun innovatsiyaning turli xil munosabatlari mavjud. Ma'lum bir pedagog xodimlar tomonidan qo'shimcha imkoniyatlar olinishi boshqa pedagog xodimlarning imkoniyatlarining kamayishiga olib keladi va bu o'z navbatida yangiliklarni qabul qilish uchun aniq tartib o'rnatishga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Innovatsiyalarning rahbarlik uslublarini tavsiflash qobiliyati. Innovatsion mo'ljallangan rahbarlik uslubi innovatsion jarayonning natijasiga sub'yektlarning shaxsiy qiziqishlarini vujudga keltirishni ko'zda tutadi.

Innovatsiyalarning rahbarlikning innovatsion uslublari strategiyasini shakllantirish imkoniyati. Innovatsion dasturlarni amaliyotga tatbiq etishning samaradorligi innovatsiyalar sub'yektning qiziqishlariga va buning natijasida innovatsion jarayonlarga sub'yektlarning psixologik tayyorgarligini shakllantirish hamda tayyorgarlik darajasini rivojlantirishiga bog'liq bo'ladi.

Innovatsiyalarning strukturaviyligi. Yangiliklar bilan tanishish, baholash, sinash, ma'qullash va to'la qabul qilish innovatsiyani amaliyotga tatbiq etishning asosiy bosqichlarini belgilaydi.

Innovatsiyalarning sub'yekt tomonidan qabul qilinishi. Shaxs tomonidan ma'lum bir yangiliklarning qabul qilinishi mavjud harakatdagi tizimning o'ziga xos xususiyatlariga qay darajada mos kelishiga hamda imkoniyatlarni shakllantirishda sub'yektning holatini yaxshi yoki yomon tomonga o'zgartirishiga bog'liq bo'ladi

Innovatsiyalarning vujudga kelayotgan vaziyatlarga

aloqadorligi. Innovatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan sub'yektlarning individual psixologik xususiyatlariga hamda pedagogik jarayon sub'yektlarining yangiliklarni qabul qilish uchun tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Innovatsiyaning davriyligi pedagogik jarayon sub'yektlari ongida muhim ahamiyatga ega bo'lgan madaniy an'analarning maqsadga muvofiq holda, sekin-asta almashinib borishida tasdiqlanadi. Chunki, mustahkam o'rinish qolgan tushunchalar, fikrlar, idrok va xulq-atvorning birdaniga o'zgarishi sub'yektlarning shaxsiy xislatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi va ularning ma'naviy-axloqiy, o'zini-o'zi anglash asoslarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Innovatsiyaning ahamiyatligi – innovatsion jarayon davrida pedagogik jarayon sub'yektlarining yangiliklarga bo'lgan munosabatlari ob'yektiv baholash imkoniyati tug'iladi, pedagogik jarayonlarda ichki munosabatlarning o'zgarishi, keskinlashuvi vujudga keladi va o'z navbatida mazkur jarayonga va vujudga keluvchi vaziyatlarga mos keluvchi o'qitish texnologiyalarini tanlash imkoniyati tug'iladi.

Innovatsiyaning asoslanganlik darajasi – sifati o'zgarishlarning miqdori bilan ifodalanadi. Innovatsiya mavjud bo'lgan harakatdagi standartlardan qanchalik ko'p farq qilsa, uni o'zgartirish salohiyati va asoslanganlik darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

Innovatsiyaning ixtilofligi. Ixtiyoriy yangilikni kiritish o'ziga xos xususiyatlarga bog'liq bo'lmagan holda ixtilofli vaziyatlarni vujudga keltirishi mumkin, chunki vakolat va imtiyozlarning o'zgarishi mavjud vaziyatlarning murakkablashishiga bog'liq holda, ta'lim muassasasida odat tusiga kirgan o'zaro ta'sir va munosabatlarni o'zgartiradi.

Innovatsion jarayon. Innovatsiyalarni vujudga keltirish, amaliyotga tatbiq etish va ommalashtirish faoliyatlari bilan bog'liq. Innovatsion salohiyatiga ko'ra yangiliklar; modernizatsiya, faoliyatni takomillashtirish, shaklan o'zgartirish, rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan modifikatsion innovatsiyalar; oldindan ma'lum bo'lgan metodlar elementlarining yangi tizimga birikishini nazarda tutuvchi birikkan innovatsiyalar; o'xshashlik va umumiylikka ega bo'lmagan radikal innovatsiyalar pedagogik jarayonlar samaradorligining asosi sifatida belgilanadi.

Innovatsion tavakkalchilik. Innovatsiyaning ehtimollik xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Natijaviylikka ishonchsizlik innovatsiya sub'yektida tavakkalchilik va xavotirlanish hissiyotlarini vujudga keltiradi hamda tatbiq etish faoliyatining natijalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Inson-inson munosabatlari – bunda muloqot jarayonini va muloqotsiz o'zaro ta'sir jarayonlarini to'g'ri tashkil etish bilan bir qatorda, rahbarlar va o'qituvchilar o'z o'quvchilarining faoliyatini to'g'ri baholay bilishlari ham zarur hisoblanadi.

Inson-kitob-inson munosabatlari – inson butun umri davomida tajriba orttirib borar ekan, u o'z hayotida duch kelgan muammolar va ularning yechimlarini, inson ehtiyoji uchun zarur bo'lgan yangiliklarni qog'ozga tushirib kitob yaratadi va bu kitob ikkinchi bir insonning tarbiyalanishida, hayotda o'z o'rnini topishida eng asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Inson-san'at-inson munosabatlari – pedagogik jarayonlarda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki san'at bor joyda yangilikka intilish, mehr-muhabbat, insoniylik tuyg'ulari hukm suradi. Har bir inson qaysidir bir san'at turiga qiziqadi, qaysidir bir san'atkorni sevib tinglaydi va uni ko'rganda yoki eshitganda beixtiyor kayfiyati ko'tarilib ketadi. Ta'lim muassasasi rahbarining san'atga bo'lgan qiziqishi nafaqat boshqaruv jarayoni, balki, o'quv jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, chunki ta'lim olayotgan o'quvchilarning o'rtasida bir necha bo'lajak buyuk san'atkorlar ham bo'lishi mumkin.

Inson-tabi'at-inson munosabatlari – boshqaruv faoliyatida rahbarlarga juda katta vazifalar yuklaydi, masalan, ta'lim muassasasining tashqi ko'rinishi, ya'ni, yer uchastkalaridagi daraxt, mevali daraxtlar, gullarning turlari, ularning parvarish qilinishi hamda ularga berilayotgan e'tibor rahbarning reytingiga ta'sir qilish bilan birgalikda o'qituvchilar va o'quvchilarning tabiatga bo'lgan munosabatlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Inson-texnika-inson munosabatlari – inson o'z tafakkuri, bilimi va qobiliyati bilan hayotiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida texnikani yaratadi, bu murakkab tuzilishga va ishlash prinsipiga ega bo'lgan texnikadan foydalanish uchun esa, uning tuzilishi va ishlash prinsipini o'rganish zaruriyati tug'iladi, shuningdek, bu texnikadan foydalanish uslublari ham inson tomonidan yaratiladi. Bundan ko'rinib turibdiki,

insonlar tomonidan yaratilgan texnika va texnika vositalari boshqa bir insonlarni bilim olish, yangiliklarni o'rganish, ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishga chorlaydi.

Integrativ mahorat – bu umumlashtirilgan mahorat bo'lib, pedagogik jarayonlarda ijobiy natijalarga erishishga, pedagogik jarayonlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirishda zarur hisoblanadi.

Integratsion yondashuv – pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda boshqariluvchi ob'yekt (pedagogik jarayon)ga bir necha yondashuvlarni (vaziyatli, tizimli, innovatsion va h.k.) qo'llash bo'lib, umumlashtirilgan yondashuvlarni ifodalaydi.

Iqtidor – o'quvchi yoki talabning kuch-qudrati yoki biror muammoni hal qilishga qodirligining ifodasi.

Iqtidorlilik – insonga yanada yuksalish, faoliyatning bir yoki bir necha sohalari bo'yicha boshqalarga qaraganda yuksak natijalarga erishish imkonini beruvchi tizimli, rivojlanuvchan ruhiy xususiyat.

Ishbilarmonlik, ishchanlik, uddaburonlik xislatlari – quntlilik, tirishqoqlik, mas'uliyatlilik, halollik, raqobatbardoshlik, chaqqonlik, abjirlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, chidamlilik, sabr-toqatlilik, bardoshlilik, muntazamlilik, tejamkorlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, mardlik.

Iste'dod – 1) nihoyatda zo'r qobiliyat, biror sohada yuksak darajadagi layoqat, talant; 2) muayyan murakkab faoliyatni mustaqil, original hal eta olish imkonini beruvchi layoqatlar uyg'unligi..

Iste'dod, talant – nihoyatda zo'r qobiliyat, biror sohada yuksak darajadagi layoqat. U idrok, tasavvur, tafakkur, xotira, kuzatuvchanlik benihoya o'sganligida, voqea-hodisalarning yangi qirralarini, ularning zamiridagi murakkab aloqadorlikni kashf etishda ko'rinadi. Kishining bilimlarni o'zlashtirishi, nazariy va amaliy masalalarni hal etishi, ijodi, o'z bilimi va malakalarini turmushga tatbiq qila bilishidan uning iste'dodini bilish mumkin...

Iste'dod insonning ma'lum faoliyati turida o'zini namoyon etadi. Bilim, ko'nikma, malaka, tajribalar iste'dod rivojida katta rol o'ynaydi. Qobiliyat yoki layoqat o'sishiga ijtimoiy sharoit yaratilganda, uni tarbiyalab kamolga yetkazilgandagina iste'dod yuzaga chiqadi. Iste'dodga shaxsning mehnatsevarligi ham qo'shilgan taqdirda yangilik va kashfiyot paydo bo'ladi. Daho iste'dodning yuksak

namunasi hisoblanadi. Daho egasi batamom yangilik ijod etib, o'z sohasida original yo'nalish yaratadi. [O'zME 4-jild, 273-274-bet]

Jamiyatning o'qituvchi oldiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagilardir:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomonidan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boylklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalriga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vatani tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

- keng bilimga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;

- yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;

- o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasi bo'yicha jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;

- ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;

- o'z ishiga ijodiy yondashishi;

- bolalarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi;

- pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;

- o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi [M.G.Davletshin va b., 112-bet].

Jamoatchilik tashkilotlari – o'quvchilar kengashi, kasaba uyushma qo'mitasi, metodik birlashma, ota-onalar qo'mitasi.

Jamoaviy boshqaruv organlari – jamoaviy boshqaruv (ta'lim muassasasi kengashi, muvofiqlashtiruvchi kengash, ilmiy-pedagogik va ilmiy-metodik kengashlar hamda o'quvchilar vakillarining konferensiyasi). Bu yerda ta'lim muassasasi kengashi – jamoaviy-davlat boshqaruv organi, ilmiy-pedagogik kengash – o'qituvchilarning o'z-o'zini boshqarish organi, muvofiqlashtiruvchi va ilmiy-metodik kengash – o'quv-metodik ishlar bo'yicha mavjud muammolarni hal etish yo'llarini ishlab chiquvchi, yuqori malakali o'qituvchilar va rahbar-xodimlar uyushmasi.

Ko'nikma – belgilangan maqsadga muvofiq ravishda harakat usullarini tanlash va amalga oshirish uchun mavjud bilimlar va malakalardan foydalanish.

Ko'nikma – insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati. Ko'nikmalar amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo'llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir. Ko'nikma faoliyatning maqsadi va sharoitlariga mutanosib ravishda harakatni muvaffaqiyatli bajarish usullaridir. U hamisha bilimlarga asoslanadi, mahorat (malaka)ning negizi hisoblanadi. Ko'nikma mazmunan amaliy (jismoniy) va aqliy, shaklan oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Amaliy ko'nikmalar mehnat faolyaitini amalga oshirishga, aqliy ko'nikmalar bilim olishga, uni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ko'nikmalarni bilim bilan adashtirmaslik lozim, chunki bilimlar voqelik to'g'ri aks ettirilgan hukm (mulohaza)larda ifodalanadi. Ko'nikmalar esa ko'proq aqliy va jismoniy harakatlarda mujassamlashadi [O'zME 5-jild, 182-bet].

Kasb – kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'ulot turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasblar ichida mehnat faoliyatining eng tor sohasi bilan ajralib turadigan ixtisoslar bor (masalan, vrachlik, kasbida xirurg, oftal'molog, dermatolog va b.). Kasblar odatda, shaxsning asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi [O'zME 4-jild, 491-bet].

Kasbiy faoliyatning belgilari – ixtisoslashtirish, mehnat faoliyatining mohiyati va mazmuni, boshqaruv ob'yekti, maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos vositalar, tushunchalar, boshqaruv faoliyatining natijasi, asosiy faoliyat uchun sarflangan vaqt, ish o'rnining ko'lami va joyi.

Kasbiy kompetentlilik – bu o'qituvchining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini tasvirlaydi. Mazkur salohiyatni pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qituvchi faoliyati jarayonining holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

Kasbiy kopetentlilikning komponentlari:

- o'qituvchining pedagogik mulohazalarini ifodalovchi refleksiv ko'nikmalari;
- o'qituvchining pedagogik jarayon sub'yektlari bilan bo'ladigan munosabatlarga tayyorgarligini, o'z faoliyatini muvofiqlashtirish va sub'yektlarning xatti-harakatlarini hamda o'zaro do'stona

munosabatlarga asoslangan ijodiy hamkorlikdagi faoliyatining natijaviyligini oldindan his etishni ifodalovchi oldindan ko'rish ko'nikmalari;

- pedagogik jarayonda vujudga keluvchi turli vaziyatlarning qulay ta'limiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishiga qarshi tura olish ko'nikmasi;

- pedagogik faoliyatining asosiy va markaziy komponenti hisoblangan o'z faoliyatini va o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish va ob'yektiv baholash ko'nikmasi;

- **kommunikativ kompetentlilik** hisoblangan, o'quvchilarni o'zaro do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga undovchi motivlashtirish ko'nikmasi.

Kasbiy madaniyat bu kasbiy masalalarni yechishning ma'lum uslublari va yo'llarini egallaganlik darajasidir.

Kasbiy mahorat – ta'lim jarayonida pedagogik strategiya, strategik maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash, qarorlar qabul qilish, ta'lim jarayonini loyihalashtirish, innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish, ta'limni boshqarish jarayoniga tizimli yondashuvlarni loyihalash texnologiyalarni joriy etish hamda boshqaruv usullari, metodlari va tamoyillaridan samarali foydalanishdan iborat kasbiy texnika darajasi.

Kasbiy mahorat va loyihalashtirish – boshqaruvda strategiya, strategik maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash, qarorlar qabul qilish, muassasaning umumiy faoliyatini loyihalashtirish, innovatsion faoliyatni tashkil etish, boshqaruv jarayoniga tizimli yondashuvlarni loyihalash texnologiyalarini joriy etish hamda boshqaruv usullari, metodlari va tamoyillaridan samarali foydalanishdir.

Kasbiy qobiliyat – bu rahbarlar va o'qituvchilarda intellektual, kasbiy malaka va ko'nikma, chidamlilik, yaratuvchanlik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, tashkilotchilik, o'z fikrini yaxshi bayon eta olishi – notiqlik, ishonтира olish, nazorat, kuzatuvchanlik, talabchanlik, xotirada saqlab qolish, tarbiyaviy munosabatlarda faollik hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish, boshqaruvchilik va liderlik xususiyatlarining shakllanganligi.

Kasbiy tajriba – avlodlarning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish va ularni amaliyotda qo'llashni ta'minlab beruvchi tushunchalar tizimi

bo'lib, rahbarlar va o'qituvchilarning o'z faoliyati davomida fan-texnika yangiliklariga, ilg'or tajribalarga tayanishi hamda mazkur tajribalar asosida o'zining ko'nikma va malakalarini rivojlantirib borishi bilan bir qatorda, o'quvchilar faoliyatini boshqarishidir.

Kasbiy tayyorgarlik – bu o'qituvchining kasbiy ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarini shakllanganligi, ya'ni pedagogik jamoaga tez kirishib keta olishi, psixologik moslashuvi, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan turli masalalarni muvaffaqiyatli hal etish hamda jamoa bilan ijobiy munosabatlarni tez rivojlantira olishi.

Kommunikativ kompetentlilikning tashkil etuvchi komponentlari sifatida muloqotga kirishish, insonlar bilan axborot almashinish, turli g'oyalar yo'nalishidagi axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini keltirish mumkin.

Kommunikativ qobiliyati – bu bolalar bilan muloqotda bo'lishga, o'quvchilarga yondashish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir.

Pedagogik takt psixologiyasini o'rganishda psixolog I.V.Straxov benihoyat katta hissa qo'shgan. Uning fikricha bunda muhimi – o'quvchilarga ta'sir etishning eng qulay usullarini topa bilish, tarbiyaviy ta'sirni qo'llashda maqsadga muvofiq pedagogik choralarga e'tibor berish, aniq pedagogik vazifalarni hisobga olish, o'quvchi shaxsining psixologik xususiyatlari va uning imkoniyatlari hamda mazkur pedagogik holatlarini hisobga olish zarurdir.

Pedagogik taktning yaqqol ifodalaridan biri – har qanday pedagogik ta'sirga nisbatan qo'llaniladigan chora-tadbirlarni (rag'batlantirish, jazolash, pand-nasihah) his eta bilishdan iboratdir. Farosatli o'qituvchi bolalarga e'tibor berib, ziyraklik bilan qaraydi, ularning individual psixologik xususiyatlari bilan hisoblashadi. "U biz bilan hayron qolarli darajada, ajoyib, yaqin do'stlarcha yaqin munosabatda bo'ladi"; "Bizning tarix o'qituvchimizning kuchli tomoni – har kimga qanday yondoshishini bilar edi"; "Eng yomoni – o'qituvchining o'quvchilar oldida xushomadgo'ylik qilishidir. Bizning zoologiya o'qituvchimiz Farida opamlar shundaylardan edi: ular nimaiki qilib bo'lsa-da, u bolalarni o'ziga qaratish uchun xushomadgo'ylik qilardi! Nega ular o'zlarini shunchalik kamsitib yerga

uradi? deb o'ylar edim. Axir ular o'z fanini yaxshi bilardiku"; "Ibrohim aka esa, qarabsanki, hech narsadan hech narsa yo'q, kishi diliga ozor berar, tushirib qolar yoki behudaga urishib, koyib berar edi".

Pedagogik taktning yo'qligi ko'pincha og'ir oqibatlariga olib keladi. Toshkent maktablaridan birida ona tili va adabiyot o'qituvchisi o'quvchilarga juda ko'p talablarni qo'yganu, ammo hech qanday izchillik bilmagan: bir vazifa berib turib, shu zahotiyq boshqa talablarni qo'ya boshlagan. Arzimagan xatolar, tartib buzishlar ro'y bersa, shu zahotiyq mazmunan va shakl jihatidan o'ta qo'pol va alam qiladigan keskin gaplarni qilib, "2" qo'yardi. Masalan, daftarning chetida qoldirilgan joyning xatoligi yoki intizom buzganlik kabi va arzimagan narsalar uchun yopishgani-yopishgan edi. O'qituvchining bu xatti-harakatlari uchun o'quvchilarda dard, alam to'lib toshgandi. Ko'p o'tmay o'quvchilarning noroziligi va qat'iy e'tirozi ochiqdan-ochiq namoyishkorona bildirilib, o'qituvchiga quloq solmaydigan, ataylab intizom buzadigan va o'qituvchini keskin tanqid qiladigan bo'lib qoldilar. Bunday achinarli ahvol faqat ana o'sha o'qituvchi maktabdan ketgandai keyingina tuzatildi.

O'qituvchining pedagogik takti masalasi munosabati bilan shuni ham aytilish joyizki, qachon o'quvchilar o'qituvchining ijobiy xislatlari to'g'risida gapirar ekanlar, ular hamisha o'qituvchining adolatliligi kabi xislatlarini birinchi o'ringa qo'yadilar.

"Ko'p hollarda nohaq ish qiladilar – biror masalani yaxshilab tekshirib ko'rmasdan ish tutadilar". O'qituvchining bunday xislatiga o'quvchilar nechukdir achinishli talabchanlik munosabatida bo'ladilar. O'qituvchining adolatsizligi yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bu to'g'rida har qaysimiz maktab amaliyotidan qandaydir tasavvurga egamiz [M.G.Davletshin va b., 122-123-bet].

Kommunikatsiya – bu pedagogik jarayon sub'yektlari o'rtasidagi o'zaro axborot almashinuvi bo'lib, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda o'ziga xos murakkab tizim hisoblanadi va ta'lim muassasasi rahbarlari va o'qituvchilar tomonidan amalga oshiralayotgan barcha ishlar axborotlarning samarali almashinishini talab qiladi, shuning uchun u o'zining funksional darajasi bilan tavsiflanadi va boshqaruv madaniyatining tashkiliy sifatini belgilaydi. Ta'lim muassasasi kommunikatsiyasi bu o'ziga xos murakkab va ko'p

bosqichli tizim bo'lib, nafaqat ta'lim muassasasi ichidagi, balki uning tashqarisidagi axborot almashuvini ham qamrab oladi.

Kompetensiya – (lot. *compete* – erishyapman, munosibman, loyiqman) – 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba [O'zME 4-jild, 682-bet].

Kompetensiya – u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik.

Liberal rahbarlik – murosasozlik (ko'ngilchanlik)ka asoslangan rahbarlik uslubi. Liberal (erkin ish yuritish) rahbarlik uslubi o'qituvchilarning o'quvchilarga topshiriq va maslahatlarni tavsiyalar ko'rinishida berishi, o'quvchilarning ishiga kamroq aralashishi bilan tavsiflanadi. Bunda o'qituvchilar vositachi sifatida faoliyat ko'rsatadi, pedagogik jarayonlarda o'quvchilarga keng doirada mustaqillik, to'la erkinlik berish bilan bir qatorda, ularning harakatlariga kam e'tibor beradi va nazoratni sustlik bilan amalga oshiradi. O'z zimmasiga ma'suliyat olishni yoqtirmaydi, kelishuvchanlik asosida faoliyat ko'rsatadi, ya'ni o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarni buzmaslik uchun ularning barcha talablarini bajaradi. Bu o'z o'rnida pedagogik jarayonlarda tartibsizlik vujudga kelishiga, o'quvchilarning xatti-harakati va o'quv faoliyati yo'nalishidagi nazoratning sustlashiga, ularning muayyan fanga bo'lgan qiziqishlarining yo'qolishiga olib keladi, shuningdek boshqa pedagogik jarayonlarda ham o'quvchilar faolligining susayishiga sabab bo'ladi. Ushbu rahbarlik uslubining quyidagi usul va shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- kommunikatsion moyillik – bunda o'qituvchilar o'quvchilarga turli xil savollarni berishi, o'z fikrlarini bildirishi uchun imkoniyatlar beradi, bu boshqaruvning maslahatli usuli bo'lib, o'quvchilar tomonidan berilgan takliflar, ularning fikrlari, ular tomonidan bajarilgan topshiriqlarning natijalari o'rganib chiqilishi sababli berilayotgan topshiriqlar ular tomonidan o'z vaqtida bajariladi;

- hamkorlikda qabul qilingan qarorlar asosida boshqaruv – pedagogik jarayonlarda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish usullaridan keng foydalaniladi hamda o'qituvchilar muammoning yechimini topish uchun barcha o'quvchilarni jalb etadi va bunda muammoni yechish tartibini o'zi belgilaydi, shuningdek, o'zining

barcha huquqlari va vakolatlarini saqlab qolgan holda o'quvchilar tomonidan muammoning yechimi bo'yicha qaror qabul qilinishiga ruxsat beradi.

Liderlik. Lider asosan ma'lum bir guruhda o'zi boshchilik qilayotgan yo'nalishlarda shaxslararo (norasmiy) munosabatlarni boshqarib, u o'z guruhi a'zolarining kuchli va salbiy tomonlarini, ijobiy va salbiy odatlarini, shuningdek, ularning psixologik xususiyatlari, kayfiyatlari, moyilligi, intilishlari hamda qiziqishlarini yaxshi bilganligi sababli yetakchilik qiladi. Ixtiyoriy jamoada turli yo'nalishlarda liderlar bo'lishi mumkin. Masalan, turli xil tadbirlarni (jamoat a'zolarining turli xil uy ishlarida hasharlar, dam olish tadbirlari, guruh bo'lib turli xil ziyofatlar uyushtirish va h.k.) tashkil etish bo'yicha jamoatchilik yo'nalishida, sport yoki sportning ma'lum bir turi bo'yicha, o'quv jarayonini tashkil etish yoki fanlarni yuqori darajada o'zlashtirish yo'nalishlarida.

Loyihalash – Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlarini loyihalashda tizimli ob'yekt sifatida yaxlit pedagogik jarayonni rivojlantirish va uning unikal modelini takomillashtirishga tashkil etuvchi qismlar ta'sir ko'rsatishining ahamiyatini inobatga olish, shuningdek, bir xil va teng sharoitlarda pedagogik jarayonlarning rivojlanishiga ko'proq ta'sir ko'rsatuvchi ba'zi qism va bo'g'inlarni o'zgartirishga imtiyozlar berish zarur.

Shuningdek, pedagogik jarayonlarning integrativ tabiatiga mos rivojlantiruvchi strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini loyihalashtirish pedagogik jarayonlarda o'rganiladigan tushunchalarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini hamda axborotlarning yangiligi va ishonchligini ta'minlash zaruriyatini belgilaydi.

Bunda dars (ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, ekskursiya), darsdan tashqari tashkil etiladigan tadbirlar (davra suhbat, uchrashuv, turli musobaqa va tanlovlar, konferensiya va h.k.), mustaqil ta'lim hamda tarbiyaviy munosabatlar (inson-inson, inson-texnika-inson, inson-kitob-inson, inson-tabiati-inson, inson-san'at-inson kabi tarbiyaviy munosabatlar) jarayonlarini, shuningdek ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik tajriba-sinov ishlari hamda o'qituvchilar (ta'lim muassasalari va o'rta maxsus, kasb-hunar

ta'limi muassasalari o'qituvchilari) uchun tashkil etiladigan pedagogik amaliyot yaxlit, bir butun dinamik tizim ko'rinishida tasavvur qilinib loyihalashtirilishi zarur.

Pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish va tashkil etishda dars va darsdan tashqari tashkil etiladigan tadbirlar, mustaqil ta'lim, tarbiyaviy munosabatlار jarayonlari hamda pedagogik amaliyot va pedagogik tajriba-sinov jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash o'quvchilar uchun tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari natijaviyligi hisoblangan pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Milliy-hududiy yondashuv. Ta'lim muassasalarini mintaqalashtirish jarayonlari turli xil tizimlar va tizimosti bo'g'inlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning sezilarli darajada o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Boshqaruv qarorlarining mazmun va mohiyati turli xil darajada belgilanmoqda: davlat, hududiy, shahar, tuman va muassasalar miqyosida. Bugungi kundagi tizimning avvalgi tizimdan asosiy farqlaridan, afzalliklaridan biri ta'limning demokrattlashuvi – ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishidadir. Shundan kelib chiqib, pedagogik jarayonlarni boshqarishda sub'yektlar mustaqil qarorlar qabul qilish, ta'lim muassasasining mustaqil siyosatini olib borish, taktika va strategiyani mustaqil belgilash, hududiy va boshqa rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatlariga ega.

Mujassamlashtirilgan strategiya – pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etishning barcha yo'nalishlarini qamrab olgan hamda ta'lim muassasasining yaxlit faoliyatini o'zida jamlagan mo'ljaldir.

Muloqot. Insonlarning ma'lum bir jamoada yoki guruhda hamkorlikdagi faoliyatlari jarayonida vujudga keladigan ehtiyojlardan bo'lib, ularning o'z faoliyatlari davomida o'zaro munosabatlarga kirishish jarayoni hisoblanadi. Insonlarning barcha faoliyatlari davomida o'zaro munosabatlار, ta'sir etish shakllarini o'z ichiga oladigan mazkur tushuncha ularning o'zaro bir-birlarini tushunishlari, hamkorlik qilishlari hamda o'zaro axborotlar almashinishlari uchun zarur hisoblanadi.

Ijtimoiy psixologiyada muloqot uchta turga bo'linadi. Birinchisi,

insonlarning o'z-o'zi bilan muloqoti, ikkinchisi insonning boshqa insonlar bilan muloqoti, uchinchi avlodlararo muloqot bo'lib, mazkur muloqotlar natijasida bir avlodning tajribasi ikkinchi avlodga o'rgatiladi, bu esa pirovardida insonlarning rivojlanishiga, hayot, fan-texnika va texnologiyalarning taraqqiy etishiga zamin yaratadi. Shundan ko'rinib turibdiki, muloqot yoki boshqaruv muloqotisiz boshqaruv jarayonini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Mustaqil ma'lumot – bu avlodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'z ichki tuyg'ulari asosida mustaqil o'rganishga qaratilgan xatti-harakatlar majmuining natijasi bo'lib, insonning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Mustaqil ma'lumot inson shaxsining rivojlanishida, tajribalarni egallashida qulayliklar yaratsa, mustaqil ta'lim esa ta'lim olishning asosi hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim – bu insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida avlodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy xatti-harakatlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati asosiy rol o'ynaydi.

Muvofiqlashtirilgan yondashuv. Pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish, ko'zlangan maqsadga erishishda sub'yektlar faolligini ta'minlashga jalb etiladigan sarf-xarajatlarning me'yordan ortmasligini ta'minlovchi, sub'yektlarning imkoniyati, qobiliyati va boshlang'ich tushunchalariga hamda mavjud vaziyatlar va shart-sharoitlarga mos keluvchi, eng qulay bo'lgan hamda pedagogik jarayon va uning tarkibiy tuzilishini qayta tashkil eta oladigan tizimni vujudga keltirish muvofiqlashtirilgan yondashuvni joriy etishdir.

Muvofiqlashtirilgan yondashuvni amaliyotga tatbiq etilishi natijasida sub'yektlarning faolligini hamda pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlash uchun sarf etiladigan mehnat va vaqt tejaladi, shuningdek, pedagogik jarayonlarda bir tomonlamalilik (sub'yekt sifatida faqat o'qituvchining o'zi faoliyat ko'rsatishi) bartaraf etiladi.

Muammo – har qanday tizimda mavjud va zarur bo'lgan holatdan chetga chiqishni tavsiflovchi vaziyat (voqelikni)ni anglatadi.

Ma'lumot – ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, inson shaxsining rivojlanishini ta'minlovchi, maxsus tashkil etilgan tizim bo'lib, o'qitish jarayoni va uning natijasi hisoblanadi.

Ma'lumotlilik – shaxsiy sifat ko'rsatkichi, ya'ni shaxsning rivojlanish darajasi, uning tajribasi, ko'nikma va malakalarni qay darajada o'zlashtirganligi va ulardan foydalanish hamda ular yordamida yangi bilim-ko'nikmalarni egallab, rivojlantirib borish qobiliyatlari tushuniladi.

Mahorat – murakkab ishni tez, aniq bajarishning yengilligi, mehnatning yuqori sifati va barqaror ritmi uchun kafolat beruvchi ishonchlilikdir [J.Xasanboyeva va b., 304-305-bet].

Mahorat – faqat tegishli tayyor ko'nikma va malakalarning yig'indisidagina ochilib qolmay, balki paydo bo'lgan masalani ijodiy tarzda yechish uchun zarur bo'lgan har qanday mehnat operatsiyasini amalga oshirish uchun psixologik tayyorgarlikdan iboratdir. Adolatli ravishda shunday deb yuritiladi: mahorat - bu shunday bir holki, bunda qilish kerak va qanday qilish kerak degan muammo ayni bir vaqtning o'zida birdaniga hal qilinadi va shuning bilan birga, yana shu narsa ta'kidlanadiki, mahorat ijodiy masalaning mohiyatini anglash bilan uning yengish usullarini topish o'rtasidagi tafovutni yo'qotadi.

Agar talant – imkoniyat bo'lsa, unday paytda mahorat - haqiqatga aylangan imkoniyatdir. Haqiqiy mahorat inson talantligining faoliyatida namoyon bo'lishidir. [J.Xasanboyeva va b., 304-305-bet].

Mahorat – shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati. Biror sohadagi moslashuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida hosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarining yuqori darajasi, kasbiy mohirlik.

Biror faoliyat sohasidagi yuqori darajada egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda yuqori sifat va samaradorlik bilan qo'llash.

Mahorat yoshlarimizni kasbga yo'naltirish va tayyorlashda hamda kasbga nisbatan hurmat uyg'otish jarayonidagi kasbiy g'ururni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahorat kasbga nisbatan tavsifnoma berishda, ta'lim jarayonidagi o'zlashtirish saviyasini egallashda, tarbiya jarayonida muayyan vazifani bajarishdagi ijobiy xislatlarni ta'riflashda qo'llaniladi.

Mahoratga bog'liq xislatlar ta'lim-tarbiya sohasini takomillashtirishdagi jarayonlar bahosini ifodalashda va ayniqsa bo'lajak mutaxassislarni "mehnat bozori"ga tavsiya etishda yanada kengroq foydalaniladi.

Kasbiy mahorat darajalari (toifa)ni belgilashda, mutaxassislarga ustama ish haqlari to'lashda va eng asosiysi bo'lishligini belgilashda "mahorat"ning roli va o'rni beqiyos. [J.Xasanboyeva va b., 304-305-bet].

Maktab – 1) o'qituvchi rahbarligida yosh avlodga ma'lumot beriladigan va tarbiyaviy ishlar olib boriladigan o'quv tarbiya muassasasi.

2) fan, adabiyot, san'at ijtimoiy-siyosiy hayot va sh.k.da o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yo'nalish, oqim. [O'zME 5-jild, 410-bet].

Malaka – 1) psixologiyada – muayyan kasb, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan mahorat.

2) Huquqda – ishni bajarish uchun qanday kasb qay saviyada egallaganligini ko'rsatuvchi daraja. [O'zME 5-jild, 419-bet].

Malaka – bajarilishi yod bo'lib ketgan, takomillashgan ko'nikmalar tizimi.

Maqsad – ixtiyoriy tizimning tizim tashkil etuvchi komponenti hisoblanadi, pedagogik tizimni boshqarishda maqsadning ahamiyati aniq faoliyatning maqsadi sifatida belgilanadi. Bunda avval maqsad umumiy hisoblanadi, uni loyihalashtirish jarayonida vaziyatlar inobatga olingan holda topshiriqlar bo'yicha taqsimlanadi. Ya'ni, boshqaruvda maqsadni shakllantirish bir necha darajada amalga oshiriladi: umumiy maqsadni belgilash; umumiy (strategik) maqsadni aniqlashtirish; vaziyatga ko'ra maqsadlarni ishlab chiqish.

Boshqaruv tizimida maqsadga samarali erishishning asosiy shartlaridan biri maqsadni belgilash talablariga rioya qilish: maqsadlar oldindan belgilangan va aniq shakllantirilgan bo'lishi; bajaruvchilar tomonidan qabul qilingan va ularga tushunarli bo'lishi; maqsadlar tahlil qilingan va bajarilish muddati belgilangan, shuningdek, bajaruvchilarning harakati motivlashtirilgan bo'lishi; vertikal va gorizontal bo'yicha kelishilgan turli xil topshiriqlar yo'nalishida taqsimlanishida maqsadlarning birligi saqlanishi zarur hisoblanadi.

Maqsad (falsafada) – inson amaliy faoliyatining avvaldan fikran o'ylangan natijasi. Maqsad insonlarga xos bo'lib, uni kelajakning loyihasi deb, ta'riflash mumkin [O'zME 5-jild, 546-bet].

Maqsadli-motivlashtirish funksiyasi o'z pedagogik mahorati va kasbiy kompetentligini muntazam rivojlantirib borish yo'nalishida

o'qituvchilarda qiziqishlar uyg'otishga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etishni nazarda tutadi. Motivlashtirish o'qituvchilarni o'z ustida muntazam ishlashi, yangiliklarni o'rganishi, uzluksiz o'z bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil oshirib borishga undash, innovatsion faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning faolligini oshirish va ularda innovatsion jarayonlar uchun qiziqishlar uyg'otishga yo'naltirilgan tadbirlarni yetarli darajada tashkil etish uchun zarur. Bunda motivlarning xususiyatlarini hisobga olish zarur bo'lib, qanday motivlar o'qituvchilarni muntazam o'z ustida ishlashiga, ya'ni uzluksiz malaka oshirishga yo'naltiradi va qaysilari samarali harakatlar rejasini tuzishga imkoniyat yaratishini bilish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Mazkur funksiyaning maqsadi va mazmun-mohiyatidan kelib chiqib aytish mumkinki, uni amalga oshirishda o'qituvchilar kasbiy kompetentligini oshirish yo'nalishida belgilangan maqsad umumiy ekanligini hamda rahbarlarning funksional vazifalarining yo'nalishi, shuningdek, jamoadagi shart-sharoitlar va vaziyatlarni inobatga olish, maqsadni belgilash talablariga rioya qilish, ya'ni vertikal va gorizontal bo'yicha kelishilgan turli xil topshiriqlar yo'nalishida vazifalarni taqsimlashda maqsadlarning umumiylikini saqlash hamda innovatsion jarayonlarga o'qituvchilar qiziqishini shakllantirish, topshiriqlar bajaruvchilar tomonidan o'z vaqtida va samarali bajarilishi uchun maqsadni belgilash jarayoniga ularni jalb etish, erishish zarur bo'lgan natijalar bo'yicha oldindan tushunchalar berish, topshiriqlar tahlil qilinib ularning bajarilish muddatini belgilash zarur hisoblanadi.

Mas'uliyat – bu ixtiyoriy shaxsning o'z xatti-harakati va faoliyati natijasi uchun javobgarlikni his etishidir. Mas'uliyat – bu shaxsning o'z zimmasiga olgan yoki unga topshirilgan majburiyatlariga hisob bera olishida, xatti-harakatlarida, kimnidir-nimanidir ayblamay, xatti-harakati natijalari va uning oqibatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishida ko'rinadigan fazilatdir.

Mas'uliyatning inson xulqidagi muhim belgisi – o'z vazifasini bajarishidagi aniqlik, puxtalik, hozirjavoblik, o'zini majbur qila olish, o'z xatti-harakatlari oqibatiga javob berishga tayyor turish va h.k. Mas'uliyatli xulqni amalga oshirish quyidagi irodaviy sifatlarga ega bo'lishni talab qiladi: qat'iyatlilik, chidamlilik, o'zini tuta bilish, barqarorlik va h.k.

Pedagogik jarayon sub'yektlarida mas'uliyat xulqini shakllantirish faqat psixologik omillargagina bog'liq bo'lmay, mazkur jarayonni tashkil etish va nazorat qilish bilan bog'liq boshqa omillarga ham bog'liqdir. Masalan, o'quvchilarga bo'lgan ishonch, turli xil vazifalarning topshirilishi va ularni nazorat qilish xususiyatlari ta'sir ko'rsatadi.

Maxsus strategiya – ta'lim muassasasida pedagogik jarayonlar samaradorligini pasayib ketishini, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini DTS talablari darajasidan tushib ketmasligini, shuningdek, tajribali, bilimli, o'z kasbini fidoylari bo'lgan o'qituvchilarni ta'lim muassasasidan ketib qolishlarini oldini olish maqsadida uzoq muddatga tuziladi.

Motivlashtirish – bu ma'lum ehtiyojlardan kelib chiqib, kishilar faoliyatini psixologik ta'sir etish yo'llari bilan maqsadga muvofiq yo'naltirishdir.

Pedagogik jarayonlarda davlat va jamiyat, shaxs, fan va ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda sub'yektlarning xatti-harakatlarini, faoliyatini muvofiqlashtirish, erishish zarur bo'lgan maqsadlar yo'nalishida o'qituvchilar va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, ularning faolligini rivojlantirish samaradorligi ko'p jihatdan motivlashtirishga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda qulay ta'limiy muhitni shakllantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishda sub'yektlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini o'rganish asosida ularning faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish zarur bo'lib, mazkur jarayonda motivlashtirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda motivlashtirish tashabbuslarni ishlab chiqish va tahlil qilish uchun shart-sharoitlar yaratish, sub'yektlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, ijtimoiy amaliyot va ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda natijalarning samaradorligini tahlil qilishni hamkorlikda tashkil etish, o'quvchilarda o'quv motivlarini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Moyillik – bu anglab yetilmagan qobiliyatdir. O'z qobiliyatlarini anglab yetish ma'lum bir faoliyat turiga qiziqishni keskin orttiradi va shaxsning ijodiy faoliyat ko'rsatishi uchun ma'lum imkoniyatlarni yaratadi.

Nutq qobiliyati – kishilarning o'z tuyg'u-hislarini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir. Bu o'qituvchidan o'quvchilarga uzatiladigan axborot, asosan, ikkinchi signal tizimi – nutq orqali beriladi. Bunda mazmun jihatidan uning ichki va tashqi xususiyatlari nazarda tutiladi ("Biz uchun adabiyot o'qituvchimiz –Nazira opaning darsini eshitishdan katta lazzat yo'q. Nazira opamlar shu qadar yaxshi va chiroylik qilib gapiradilarki, hatto tanaffusga chalinadigan qo'ng'iroq ham halaqit beradi").

Darsda qobiliyatli o'qituvchining nutqi hamma vaqt o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntiradimi, o'quvchilar javobini sharhlab beradimi, o'quvchilar javobini, ularning xatti-harakatlari yoki xulq-atvorini ma'qullaydimi yoki tanbeh beradimi, xullas nima qilishidan qat'iy nazar, nutqi hamma vaqt o'zining ishonchliligi, jozibadorligi kabi ichki quvvat bilan alohida ajralib turishi lozim. O'qituvchi nutqi, uning talaffuzi aniq, ravshan, oddiy va o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak. Beriladigan axborotlar shunday tuzilishi kerakki, bunda o'quvchilarning fikru-zikri va diqqat-e'tiborini yuqori darajada faollashtiradigan bo'lsin. Buning uchun esa o'qituvchi o'rtaga savol tashlab, asta sekinlik bilan o'quvchilarni to'g'ri javobga olib keladi, o'quvchilarning diqqat-e'tiborini faollashtiruvchi ("Bunda ayniqsa ziyrak bo'ling!", "o'ylab, yana o'ylab ko'ring!") so'z va iboralarni o'z me'yorida ishlatadi.

O'qituvchi uzun jummalarni, murakkab og'zaki izohlarni, qiyin atamalarni va zarurati bo'lmasa, turli ta'riflarni ishlatmasligi lozim. Shu bilan birga o'qituvchi shuni ham hisobga olishi kerakki, o'qituvchining lo'nda-lo'nda bo'lib chiqqan qisqa nutqi ko'p hollarda o'quvchilarga tushunarsiz bo'lib qolar ekan. O'qituvchining o'z o'rnida ishlatiladigan hazil aralash va xayrixohlik bildiruvchi arzimagan kinoyali nutqi o'quvchilarni juda jonlantirib, o'quvchilar tomonidan o'ta yaxshi qabul qilinar ekan.

Qobiliyatli o'qituvchining nutqi jonli, obrazli, aniq-ravshan, intonatsiyali va ifodali, emotsiyaga boy, dona-dona bo'lib, bunda stilistik va grammatik xatolar mutlaqo bo'lmasligi lozim. Bir xil ohangdagi ezma nutq o'quvchilarni juda tez toliqtirib, ularni zeriktiradi va behafsala qilib qo'yadi. Shu bilan birga bunday nutq I.P.Pavlovning

fiziologik ta'limotiga ko'ra, doimiy ta'sir etuvchan qo'zg'ovchiga aylanib, bosh miya katta yarim sharlari ustida tormozlanish jarayonini yuzaga keltirib, o'quvchini ezma va uyquchan qilib qo'yadi. Nutq tezligi ko'p jihatdan o'qituvchining individual psixologik xususiyatiga bog'liq. Ayrim o'qituvchilar tez gapirsalar, boshqalari sekin gapiradilar. Ammo o'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini egallab olishlari uchun eng qulay tezlikdagi nutq – o'rtacha jonli nutq ekanligini esdan chiqarmasligi lozim.

Shoshqaloq nutq bilim o'zlashtirishga xalaqit berib, bolalarni tez toliqtiradi va muhofaza qiluvchi tormozlanishni yuzaga keltiradi. O'ta sekin nutq lanjlik va zerikishga olib keladi. Nutqning balandligi – qattiq gapirish ham xuddi shu singari hollarga olib keladi. Haddan tashqari qattiq, keskin, baqirib gapirish o'quvchilarning asabiga tegib, ularni tez toliqtirib, muhofaza qiluvchi tormozlanishini yuzaga keltiradi. Mana shu yerda sharq mutafakkirlaridan Nasriddin Tusiyning "...o'qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchining o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin..." degan nasihatini keltirishimiz juda o'rinli bo'lardi. O'qituvchining bo'sh, past ovozi yomon eshitaladi. Nutqi, imo-ishoralar, turli keskin harakatlar o'quvchilarni jonlantiradi. Bu tariqa imo-ishoralar va harakallar tajribali o'qituvchilarda o'z me'yorida ishlatiladi. Lekin bir xildagi tinimsiz harakatlarning haddan tashqari ko'p bo'lishi kishining asabiga tegadi [M.G.Davletshin va b., 119-120-bet].

Nutq qobiliyati – rahbar va o'qituvchilarning o'z fikrini, his-tuyg'ularini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berishi hamda ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishda o'zgartirish yoki kerakli yo'nalishda tashkil qilish qobiliyatidir.

Natijalar bo'yicha boshqaruv. Bunday yondashuvning asosiy g'oyasi shundan iboratki, hech bir jarayon, jumladan, pedagogik jarayon ham o'zi-o'zicha hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Pedagogik jarayonlarning ahamiyati uning natijaviyligida o'z ifodasini topadi va uning natijaviyligi sub'yektlar (o'quvchilar)ning faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida turli rivojlanishlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Natijalar bo'yicha boshqaruv tushunchasi rivojlanish tizimi sifatida

amal qiladi va pedagogik jarayon sub'yektlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta'minlash asosida belgilangan natijalarga erishish mumkin. Mazkur jarayonda belgilangan vazifalar va o'rganiladigan tushunchalarning mazmun-mohiyatini har bir ishtirokchiga tushuntirish orqali sub'yektlarning o'zini-o'zi boshqarishi hamda o'z faoliyatiga ijodiy yondashuvni joriy etishi ta'minlanadi.

Nazorat – bu boshqaruv jarayonining faol bosqichlaridan biri bo'lib, u boshqaruvning barcha funksiyalari bilan bog'liq bo'ladi. Umumiy holda rejalashtirilgan natija bilan haqiqiy erishilgan natijalarni o'zaro solishtirish jarayoni bo'lib, u faoliyatning muvaffaqiyatini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Pedagogik tizimni boshqarish jarayonida ko'zlangan yo'nalishdan chetga chiqishlar ham vujudga kelishi mumkin, bunday vaziyatlarda nazorat yo'l qo'yilayotgan xatolarning sababini o'z vaqtida aniqlash va ularni tuzatish usullarini belgilash imkoniyatlarini yaratadi. Shuning uchun boshqaruv faoliyatining barcha bosqichlari uchun nazorat zarur hisoblanadi.

Nazorat-tashxis funksiyasi. **Nazorat** – bu rahbarning boshqaruv faoliyati jarayonlarining faol bosqichlaridan biri bo'lib, u boshqaruvning barcha funksiyalari bilan bog'liq bo'ladi. O'qituvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va takomillashtirish jarayonlarida turli vaziyatlar, ya'ni vaziyatlarga ko'ra majburiy chetga chiqishlar ham vujudga kelishi mumkin, bunday vaziyatlarda nazorat yo'l qo'yilayotgan xatolarni sababini o'z vaqtida aniqlash va ularni tuzatish usullarini belgilash imkoniyatlarini yaratadi. Boshqaruv nazoratining asoslanganligi tashxis orqali ifodalanadi. Maxsus vosita va metodlarni qo'llash, har tomonlama o'rganish yo'llari bilan o'qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish zaruratini tavsiflovchi omillarning mazmun-mohiyatini va ahamiyatini aniqlashga yo'naltirilgan tashxis o'qituvchilarda o'zini-o'zi rivojlantirish va uzluksiz malakasini oshirib borishga motivlashtirish jarayonlarida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O'qish – milliy qadriyatlarni, fan-texnika sohasidagi yutuqlarni, tajribalarni o'rganish, tushunish, tafakkurning rivojlanishi, mustaqil fikrlash va ulardan hayotda foydalanish uchun ko'nikma va malakalarni shakllanishi.

O'qitish – milliy qadriyatlarimizni, hayotiy tajribalarni, fan va

texnika sohalaridagi yutuqlarimizni yosh avlodlarga o'rgatishni ta'minlaydi.

O'qitish – ta'lim maqsadini amalga oshirishga (ma'lumot berish, tarbiyalash, bilimlarini anglash va amalda qo'llash) qaratilgan o'qituvchini tartibga solingan faoliyati [X.Abdullayev, 12-bet].

O'qitish texnologiyasi – izchillikni, loyihalashni, o'qitishni barcha komponentlarining o'zaro aloqasini va ularning mantiqiy izchilligini nazarda tutuvchi, o'quv jarayonini strukturaviy-mantiqiy tashkil etish. Bularga axborot-texnologiyalari, ishchan o'yin, suhbat, trening, guruhlar bo'yicha ta'lim, modulli-differensiyalashtirilgan, tadqiqiy, tashxis, refleksiv va boshqa shakldagi texnologiyalar kiradi.

O'qituvchi – yosh avlodni (o'quvchini) hayotga, ongli mehnatga tayyorlash uchun. xalq oldida, davlat oldida, jamiyat oldida javob beradigan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish uchun maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan va pedagogik faoliyat bilan kasbiy jihatdan shug'ullanayotgan shaxsdir.

O'qituvchining kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan talablar:

- ta'lim-tarbiya berishda kasb jihatidan qobiliyatli, tashkilotchi, ijodkor va ishbilarmon bo'lishi kerak;

- milliy-ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni ulug'laydigan, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan tarbiya jarayonida samarali foydalana oladigan, ma'naviy jihatdan yetuk bo'lmog'i lozim;

- milliy mafkuramizni chuqur biladigan va shu asosda yaratadigan davlat kelajagi buyukligiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini chuqur anglagan, fidoiy va mustaqil davlatimizga e'tiqodli bo'lishi kerak;

- o'z kasbini va eng asosiysi o'z o'quvchilarini yaxshi ko'radigan va ularning kelajakda jamiyatimiz faol ishtirokchilari bo'lishiga chin ko'ngildan ishonadigan, ularning barkamol shaxs sifatida yuksalib, inson sifatida kamol topishida asosiy rol o'ynay olishi kerak;

- o'z kasbiy faoliyati bo'yicha chuqur bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lmog'i lozim va bu faoliyatini jamiyat taraqqiyoti yutuqlari asosida muntazam ravishda takomillashtirib borishiga erisha oladigan bo'lishi kerak;

- erkin va ijodiy, tanqidiy va tahliliy fikrlay oladigan, ta'lim-tarbiyada

muammoli vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qila oladigan bo'lishi kerak;

- yoshlarga va o'ziga talabchan, adolatli qattiqqo'l, odobli va eng asosiysi o'z shogirdlariga ibrat-namuna ko'rsata oladigan bo'lmog'i lozim;

- o'zining fidokorona mehnati bilan yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash sifatini oshirishga katta hissa qo'shadigan ijodkor va izlanuvchan mutaxassis bo'lishga erishish lozim;

- chuqur umumiy bilim, keng dunyoqarashga va kasb tayyorgarligiga ega bo'lishi kerak;

- komp'yuterli savodxon bo'lishlik, o'z bilimni zamon talabiga mos holda yangilash va to'ldira olishlik qobiliyatiga ega bo'lishi kerak;

- intizomli, o'z o'quvchilariga ibrat-namuna bo'lishlik, ziyolilik xislatlari shakllanganlik, o'z bilimni o'z kasbiy faoliyatiga, o'z mamlakati mustaqilligiga, Vatan va jahon taraqqiyoti yo'lida ezgulik va adolatga sadoqat tuyg'ulari shakllangan bo'lishi kerak;

O'qituvchi faoliyati turlari:

- yoshlarga o'quv muassasalarida, ta'lim-tarbiya berish;

- darsdan tashqari va boshqa ma'naviy - ma'rifiy muassasalarda tarbiyaviy ishlar bilan shug'ullanish;

- mahallada ijtimoiy pedagogika masalalari bilan shug'ullanish;

- ota-onalar va boshqa jamoat joylarida mamlakatimiz davlat siyosatini targ'ibot qilish;

- ilm berish orqali yoshlar saviyasini oshirish va ularning malakalarini yuksaltirishga bag'ishlangan intellektual tadbirlarni uyushtirish.

O'qituvchi shaxsining xususiyatlari:

- milliy-ma'naviy va ilmiy dunyoqarashning kengligi, e'tiqodning mustahkamligi, ijtimoiy ma'naviy yuksaklik va axloqiy komillikni tushunish;

- fuqarolik va jamiyat oldidagi burchga sodiqlik, ijtimoiy siyosiy faollik;

- milliy mafkuramizga sodiqlik va ularni yoshlar ongiga singdirishga sobitqadamlik;

- yoshlar ongidagi milliy g'oyalimizga sodiqlikni har qanday fanni o'qitishda ham shakllantirishga erishish;

- intellektual salohiyatli, yangilikni his qila bilish va pedagogik kasbiy faoliyatga tegishli ma'lumotlarni muntazam ravishda oshirib borishga erishish;

- pedagoglarga xos kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni va mahoratni doimo oshirib borish to'g'risida qayg'urish;

- ta'lim oluvchilarni sevish va ular taqdiriga qayg'urish hamda ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik faoliyatni sevish;

- ruhiy pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik takt, pedagogik tasavvur va tashkilotchilikning yuksak bo'lishi;

- haqqoniylik, dijkashllk, talabchanlik va qat'iylikning o'zida mujassamligi;

- maqsadga erishishga yetarlicha xatti-harakat qila bilish, kasbiy layoqatlilik;

- vazminlik, adolatli qattiqqo'llik qobiliyatiga ega bo'lishlik;

- keng intellektual salohiyatga, ma'naviy yetuk bo'lishlik;

- yangilikka intiluvchan va yangilikni qo'lga kiritishni his qila bilish, pedagogik ilmiy salohiyatni oshirishga intiluvchanlik;

- pedagoglarga xos kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va mahoratni muntazam ravishda oshirib borishlik qobiliyatlariga ega bo'lishlik va ulardan amaliyotda samarali foydalanishga harakatchanlik va shu kabilar [J.Xasanboyeva va b., 604-607-bet].

O'qituvchi quyidagicha kasbiy sifatlarga ega bo'lishi lozim:

O'qituvchining kasbiy sifatlari sifatida:

- o'quv fanini o'qitish metodikasini bilish;

- ruhiy-psixologik tayyorgarlik;

- umumiy salohiyat va keng dunyoqarash;

- pedagogik mahorat va pedagogik mehnat texnologiyasini;

- tashkilotchilik ko'nikma va malakalari;

- pedagogik odob va texnika;

- muloqot texnologiyasi va notiqlik san'ati va boshqalarni egallab olgan bo'lishini ko'rsatish mumkin.

O'qituvchining ilmiy salohiyati, o'z kasbining shaydosi, u bilan faxrlanish, o'ziga va o'zgalarga nisbatan talabchan, ziyoli bo'lish har bir pedagog uchun zarur sifatlardir [X.Abdullayev, 107-108-bet].

O'qituvchi, muallim – turli yo'nalishdagi o'rta umumiy ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejarida o'quvchilar bilan

ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan mutaxassis. Oliy maktab o'qituvchilari "domla" deb yuritiladi, ular "o'qituvchi-professor" tarzida umumlashma nom bilan ham ataladi. Shuningdek, o'qituvchilarga nisbatan, "muallim" yoki "pedagog" atamasi ham qo'llaniladi [O'zME 10-jild, 560-bet].

O'qituvchilarni kasbiy tayyorlash – bu qo'shimcha ta'lim tizimida sub'yektlarning shaxsiy ahamiyat kasb etuvchi o'zaro ta'sir jarayoni, ya'ni nafaqat pedagogik faoliyatni amalga oshirishga o'qituvchilarning tayyorgarligini rivojlantirish, balki ularning o'zini-o'zi rivojlantirish va kasbiy kompetentlilik yo'nalishidagi ehtiyojlarini qondirish jarayoni hisoblanadi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentliliği ularning o'ziga va o'z ishiga nisbatan talabchanligi, o'z ishini ustasi bo'lishi, o'z sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilishi, o'zini-o'zi rivojlantiruvchi hamda o'z qobiliyati va imkoniyatlarini to'la ishga sola bilishi, ta'lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligini yo'lga qo'ya olishi darajalari bilan aniqlanadi.

O'qituvchilarning kasbiy shakllanishi – ta'lim oluvchining oliy o'quv yurti dargohida o'quv - biluv faoliyatidan iborat bo'lgan jarayon. Albatta ularda tayyorlanadigan mutaxassis yo'nalishiga mos o'quv reja va fan dasturlari hamda DTS talablari asosidagi pedagogik jarayon davom ettirilib, ta'lim oluvchilarga kasb sir-asrorlarini o'rgatish, ilmiy bilimlar berish, o'quvchining kasbiy mahorati haqida ma'lumotlar berib boriladi va ular o'qituvchilik kasbi haqidagi bilimga ega bo'lish bilan birga ma'lum ko'nikmalarga (amaliyotlar davomida) ega bo'ladi.

Ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko'nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo'llashga imkon beradi. Bunday mashg'ulotlar tanlangan kasbi to'g'ri ekanligiga ishonch hissini tug'diradi.

Oliyoxdan keyingi davrdagi o'quvchilarning kasbiy shakllanish jarayonida maktab rahbariyati, ayniqsa, ilmiy mudir hamda pedagogik jamoatchilik katta rol o'ynaydi. Yosh o'qituvchilarga tajribali o'qituvchilarni birlashtirib qo'yish, ularning darslarini kuzatish, uslubiy ishlarga jalb etish maktab rahbariyatining vazifasidir. O'qituvchi o'z

kasbini sekin-asta o'zlashtirib borishi bilan birga ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib etadi. Shu yo'l orqali **kasbiy shakllanish** takomillashtirib boradi.

O'qituvchilik kasbini va pedagogik mahoratni egallash jarayoni, uni maktab o'qituvchilar jamoasiga kirishib, unda o'z ornini topib keta olishiga bog'liq. Jamoaning yordamidan yuz o'girmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushmay, o'z xatolarini ko'ra bilish va ularni bartaraf etish uchun harakat qilish o'qituvchi shakllanishidan darak beradi. Ushbu bilan birga o'qituvchining kasbiy shakllanishi o'zini-o'zi tarbiyalab borishga, o'z ustida tinmay ishlashiga va o'z vaqtida malakasini oshirib borishiga uzviy bog'liq. Ularning hammasi kasbiy fazilatlarining ajralmas qismi hisoblanadi [(Ziyomuhammadov B.) J.Xasanboyeva va b., 608-609-bet].

O'qituvchining bosh pedagogik funksiyasi quyidagilardan iborat:

Pedagogik funksiya – bu o'qituvchining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini qo'llash yo'nalishidir. O'qituvchi o'z faoliyatida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish, ularning shaxsini rivojlantirish va shakllantirishga intiladi. Bu funksiyalarni bajarish uchun ko'plab faoliyat turlarini bajaradi.

O'qituvchining bosh funksiyasi – ta'lim, tarbiya, rivojlantirish va shakllantirish jarayonlarini boshqarishdir.

O'qituvchi – o'quvchilarni o'rgatmaydi, balki ularni bilim olishga yo'naltiradi, tarbiyalamaydi, balki pedagogik jarayonni boshqarish lozim. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga qanchalik mustaqillik, erkinlik va tashabbuskorlik ko'rsatishlariga imkoniyat berilsa, uning samarasi shunchalik yuqori bo'ladi. Mahoratli o'qituvchi pedagogik jarayonda o'quvchilar bilim faoliyatini tashkil etadi, uni samarali usullar bilan boshqaradi, yo'naltiradi, ta'lim-tarbiya ishlari pedagogik menedjmentga aylanib boradi [X.Abdullayev, 105-106-bet].

O'qituvchining eng muhim fazilati – odamlar bilan tezda til topa olishi, ko'pchilikka qo'shila bilish, ulfatjonlik, dilkashlik bo'lib, bu undagi muomala madaniyatining yuksakligini ifodalaydi. Chunki unga hamisha odamlar bilan aloqa qilishga, ular bilan ishlashga to'g'ri keladi. Hozirgi sharoitdan kelib chiqqan holda o'quv-tarbiya jarayonida qulay munosabatlar yaratish uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli asoslar

bo'luvchi pedagogning insoniy xislatlari muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda [(Zuhra Ismoilova). J.Xasanboyeva va b., 610-bet].

O'qituvchining eng muhim xislati – insonparvarlik, ya'ni o'sayotgan insonga oliy qadriyat kabi munosabatda bo'lishligidir. Insoniy munosabatlar o'qituvchining shaxsiyatiga qiziqishi, o'quvchiga nisbatan xayrixohlik, unga yordam berish, ularning fikriga quloq solmoq, uning o'quvchilik faoliyatiga yuksak talabchanlik o'quvchining shaxsi sifatida kamol topishiga intilishdan iborat [(Zuhra Ismoilova) J.Xasanboyeva va b., 610-bet].

O'qituvchining eng muhim **xislatlari** quyidagilardan iborat:

- o'qituvchining o'z Vatanga sodiqligi, bolalarni sevish, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o'z yurti, ona tili, o'z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatining mustaqilligi g'oyasida yashashidan iboratdir;

- ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi;

- oliyanobligi, aqli, farosati, ma'naviy pokligi, ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha yuksak maqsadlarni bolalarga singdirib borishi;

- o'zini qo'lga ola bilishi, sabr-toqatli, bardam, matonatligidir.

[M.G.Davletshin va b., 111-112-bet].

O'qituvchining kasbiy mahorati quyidagicha aniqlanadi:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" (16 fevral 2006 yil) qarorida ta'kidlanganidek o'qituvchining kasbiy pedagogik mahoratini aniqlashda: a) o'qitish (dars berish); b) tarbiyalash; v) o'quv tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta'minlaydigan shaxsiy sifatlar; g) ta'lim olayotganlarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash yo'nalishlariga e'tibor beriladi.

O'qituvchining kasbiy pedagogik mahorati O'zbekiston respublikasining "Rahbar va pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish va ularga toifalar berish tartibi to'g'risida nizom" asosida belgilanadi va baholanadi.

Rossiya Federatsiyasida o'qituvchilar attestatsiyasi quyidagi me'yorlar asosida o'tkaziladi:

1. O'quv mashg'ulotlari sifati 75%
2. O'quvchilar fikri 5%

3. Ota onalar 5%
4. Ma'muriyat bahosi 5%
5. Kasbdoshlar bahosi 5%
6. Pedagogning o'ziga bergan bahosi 5%

Kasbiy pedagogik mahorat 100 ball [X.Abdullayev, 110-bet].

O'qituvchining **kasbiy** ahamiyatga ega bo'lgan **shaxs fazilatlar**i:

1. Dunyoqarashi, e'tiqod va ideallari, madaniyatlilikgi (o'qituvchi o'z o'quvchilarida shakllantirishi lozim bo'lgan axloqiy kategoriyalar).

2. Pedagogik faoliyatga ijobiy munosabat, shaxsning pedagogik yo'nalganligi – o'qituvchining o'zini pedagogik faoliyatga bag'ishlashga bo'lgan intilishi.

3. Kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma, malakalar (ta'lim-tarbiyani olib borish uchun zaruriy usul, vositalarni bilishi).

4. Pedagogik qobiliyatlari – ta'lim-tarbiyaviy maqsadlari va o'quvchilar xususiyatlarini inobatga olgan holda zaruriy usul, vositalarni samarali qo'llay olishi [M.Uralova, 6-bet].

O'qituvchining mahorati. Mahorat – bu bolalar bilan ishlashni seva oladigan har bir pedagog uchun zarur bo'lgan bilim berish va tarbiyalash san'atining takomillashgan va yuqori cho'qqisi. Pedagog, o'z ishining ustasi – bu yuqori madaniyatli mutaxassis, o'z o'quv fanini chuqur biladigan, yangiliklari bilan tanishadigan, bolalar psixologiyasini amaliy biladigan, ta'lim-tarbiya metodikasini yuqori darajada egallab olgan shaxs.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida o'qituvchi mahoratiga ikki xil qarash mavjud. Birinchisi, ta'lim-tarbiyada uning metodlari emas, balki o'qituvchi yetakchi rol o'ynaydi deb hisoblaydilar. Ikkinchisi esa, faqat tug'ma talant egalari bo'lganlarga mahoratli o'qituvchi bo'lishi mumkin. O'qituvchi bo'lib tug'ilmoq kerak deb qarashdir. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, har bir odamda tabiiy tarbiyachilik xislatlari mavjud bo'lib, uni o'z vaqtida aniqlash, kerakli tomonga yo'naltira olish, yuksak darajaga ko'tara olish lozim. Bu vazifani pedagogika o'quv yurtlari, pedagogik jamoalar, hamda o'qituvchi shaxsining ichki imkoniyatlari, jamiyatning ta'limga bo'lgan ehtiyojini va talablari darajasi hal etadi.

O'qituvchi mahorati eng avvalo o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda, ish faoliyatida yuqori natijalarga erishishda namoyon bo'ladi.

Mahoratli pedagog – bu o'z o'quv fani metodikasini yuksak darajada egallagan o'qituvchi. U darslarni, tarbiyaviy soatlarni ustalik bilan tashkil etadi; darslarda o'quvchilarning bilish faolligini oshirish ularning ijodiy qobiliyatlarini, mustaqil fikrlashlarini, bilim olishga qiziqish va intilishlarini o'stirishga osongina erisha oladi. Mahoratli pedagog tarbiya ishlarini samarali yo'lga qo'yib, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy xislatlar, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, milliy g'oya, fuqaroviy burch kabilarni tarkib toptiradi [X.Abdullayev, 108-109-bet].

O'qituvchining mas'uliyati - ma'suliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimning faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchi zimmasiga bolaning shaxs sifatida har tomonlama kamol toptirish ma'suliyati yuklanadi. Muallim o'quvchiga chuqur nazariy bilim berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi lozim. Shu bilan birga o'quvchidagi mavjud layoqat va qobiliyatni o'z vaqtida payqab, individual munosabatda bo'lishi, unda mavjud bo'lgan ijobiy axloqiy sifatlarni avaylab o'stirish darkor [(Zuhra Ismoilova) J.Xasanboyeva va b., 609-610-bet].

O'qituvchining pedagogik takti. Takt axloqiy tushuncha bo'lib, u insonlarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solish, insonparvarlik g'oyalarga asoslangan bo'lib, andishali xulq, har qanday ziddiyatli vaziyatlarda ham inson hurmati saqlanib qolishini talab qiladi. Har bir insondan, ayniqsa o'qituvchidan andishali bo'lish talab qilinadi.

Boshqacha qilib aytganda **pedagogik takt** bu o'qituvchining o'quvchilar oldida o'zini tutishni bilishi, bolaning holatini, intilishlari, qiziqishlarini tushuna olishi va eng samarali ta'sir yo'lini topa olishidir.

Shunday qilib, **pedagogik takt** bu o'qituvchining o'quvchilarga nisbatan amalga oshiradigan ta'sirining mezonidir. [M.Uralova, 13-bet].

Prinsip – bu so'z lotin tilidan olingan bo'lib, asos, dastlabki, xatti-harakat va faoliyatning asosiy negizi kabi ma'nolarni bildirib, rahbarlar va o'qituvchilarning o'z faoliyatidagi bir so'zligi va qat'iyatligidir. Ularning prinsipliligi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda, sub'yektlar faoliyatini muvofiqlashtirishda hamda

pedagogik jarayonlarda ijodiy muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Professiogramma – ta'lim mazmuniga ko'ra kasbni samarali egallash va rivojlanish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-psixologik, psixofiziologik, mediko-biologik xususiyat va sifatlar miqdorini o'lchovchi tizim.

Professiogramma. Ma'lum tizimga keltirilgan, mehnatni psixologik tomonidan o'rganishga va undan kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan qisqa va har tomonlama batafsil ko'rsatib berilgan hujjatga **professiogramma** deyiladi. [M.G.Davletshin va b., 113-bet].

Passiv, passivlik (lot.passivus – befarq, irodasiz, faoliyatsiz) – atrofidagi narsa va hodisalarga, kishilarga nisbatan befarq munosabatda bo'lish, faoliyatsizlik holati [O'zME 7-jild, 8-bet].

Pedagog quyidagicha kasbiy xislatlarga ega bo'lishi lozim:

Pedagogning kasbiy xislatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: mehnatsevarlik, ishchanlik, intizomlilik, mas'uliyatlilik, maqsadni belgilay olish, maqsadga erishish vosita va yo'llarini aniqlash, tahlil eta olish, sabotlilik, o'zining kasbiy pedagogik saviyasini doimiy oshirib borishga intilish kabilar.

O'quvchilarning muhim insoniy fazilatlari sifatida insoniylik, g'amxo'rlik, mehr-shavqatlilik, halollik, haqqoniylik, adolatlilik, boshqalarga nisbatan hurmat, ma'naviy yetuklik o'z hissiyotini boshqara olish, tanishuvga intilish, yangilikka intilish, ziyolilik va boshqalar [X.Abdullayev, 107-bet].

Pedagogik faoliyat – davlatning ta'lim-tarbiyaga bo'lgan talabini, jamiyatning esa ehtiyojini qondirish maqsadida uuminsoniy sifatlar va milliy fazilatlarni shakllantirishni imliy asoslangan reja va dasturga asosan amalga oshirish jarayonidir [J.Xasanboyeva va b., 404-bet].

Pedagogik jarayon – bu shaxslararo munosabatlarda, bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatish jarayonida (tarbiyaviy munosabatlar) insonlarning shaxsiy sifatlarining shakllanishi va rivojlanishiga, xatti-harakati va dunyoqarashini o'zgarishiga, tajribasining boyishi, bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladigan omillar mavjmuini tashkil qiluvchi ta'limiy muhit.

Pedagogik madaniyat. Yuqori saviyali madaniyat pedagogik

mehnatning zaruriy sharti hisoblanadi. Madaniyat so'zining ma'nosi ishlov berishdir.

Pedagogik madaniyat – pedagogik o'quv va mahorat, umumiy rivojlanish hamda kasbiy pedagogik sifatlari, pedagogik odobi va ko'p qirrali munosabatlari tizimi, faoliyati va huquqiy bilimlar to'plamidir [X.Abdullayev, 110-bet].

Pedagogik mahorat – 1) kasbiy ko'nikmalarning yuksak darajada rivojlanishi; 2) shaxsning kasbiy sifatlari, layoqat qobiliyatlari majmui; 3) san'at darajasidagi mahorat; 4) pedagogik mohirlik, san'at va bilimdonlik [R.X.Djurayev va b., 96-97-bet].

Pedagogik mahorat – o'qituvchilar tomonidan pedagogik jarayon sub'yektlarining imkoniyatlari, qobiliyati va boshlang'ich tushunchalarini inobatga olgan holda milliy qadriyatlarimizni, hayotiy tajribalarni, fan va texnika sohalaridagi yutuqlarimizni o'rgatishni ta'minlaydi hamda ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik mahorat (PM) – o'qituvchining ustoz-murabbiylik fazilatlarini, o'qituvchilik kasbining sirlarini chuqur egallaganligi, insoniylik va iste'dodi hamda intellektual salohiyati va shu kabilari asosida undagi kasbiy bilim, tushuncha, ko'nikma va malkalarning mukammal shakllangan kasbiy faoliyati.

PMdan ko'zlangan maqsad darsning sifati va samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, o'qituvchining kasbiy-ijodiy faoliyatidir. Bunda o'qituvchining mahorati ta'lim oluvchilar ichidan kimga nimadir tushunarsiz bo'lganligini tezda (o'z vaqtida) ilg'ay olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik mahoratli o'qituvchida kamida quyidagi qobiliyatlar mujassam bo'lmog'i lozim:

- o'qituvchi dars materialini aniq va ravshan bayon qila olishi kerak;
- o'qituvchi o'z ta'lim oluvchilarini iloji boricha o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir xil fikrga keltira olishi kerak;
- o'qituvchi mavzu mohiyatini to'la ochib bera olishi kerak va kerak bo'lganda ularga bu mavzuning o'z kasbiy faoliyatidagi o'rni va roli haqida tushuncha bera olish kerak;
- dars davomida befarq qatnashayotgan talabani tezda dars mazmunini o'rganishga jalb qila olish kerak;

- o'qituvchining darsini yana davom ettirishini xohlovchi ta'lim oluvchilar soni auditoriyadagi jami ta'lim oluvchilarning qancha qismini tashkil etishini baholab borish va bu orqali o'z dars o'tish texnologiyasini takomillashtirib borish imkoniyatiga ega bo'lish;

- o'qituvchining dars maqsadiga erishganligini baholay bilishi va xulosalash qobiliyati va shu kabilar [J.Xasanboyeva va b., 398-399-bet].

Pedagogik mahorat – o'qituvchining fanlarini o'rganishda erishgan tajribalarini o'z faoliyatida ijodiy qo'yilgan holda o'quv-tarbiya ishining hamma qirralarida eng yuqori darajada erishilgan yutuqlaridir [J.Xasanboyeva va b., 398-399-bet].

Pedagogik mahorat pedagogik faoliyatning yuqori darajasi bo'lib, u pedagogning belgilangan vaqt ichida optimal natijalarga erisha olishida namoyon bo'ladi (Kuz'mina N.V., Kuxarev N.V.) [M.Uralova, 5-bet].

Pedagogik mahorat - yuqori va uzluksiz sayqallanib boradigan tarbiya va o'qitish san'ati (Pedagogik ensiklopediya) [M.Uralova, 5-bet].

O'qituvchining ilmiy bilimlari, ko'nikmalari; metodik san'ati va shaxsiy fazilatlarini sintezi (Sherbakov A.I.).

Kasbiy faoliyatning yuqori darajada tashkillanishini ta'minlovchi shaxs xususiyatlari kompleksi (o'qituvchi faoliyatining gumanistik yo'naltirilganligi, kasbiy bilimlari, kasbiy qobiliyatlari va pedagogik texnikasi) (I.A.Zyazun) [M.Uralova, 5-bet].

Pedagogik qobiliyat – bu boshqaruv jarayonida rahbarlar va o'qituvchilar uchun eng zaruriy xususiyatlardan bo'lib, ularning pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini, shuningdek, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqara olishini belgilaydi.

Pedagogik qobiliyat – boshqaruv jarayonida ta'lim muassasasi rahbari yoki xodimining pedagogik faoliyatga xos bo'lgan zaruriy xususiyatlari majmuasidan iborat bo'lib, unda shu xususiyatlar negizida pedagogik faoliyat bilan samarali shug'ullana olishlik, shuningdek, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqara olishlik muhim sanaladi [J.Xasanboyeva va b., 405-bet].

Pedagogik qobiliyat – o'qituvchining bolalar bilan ishlash, ularni

sevish o'z kasbidan qoniqish layoqatlari majmui.

O'qituvchining pedagogik qobiliyatini yo'nalishlari sifatida:

- jamoani tuzish, jipslashtirish va boshqarish ko'nikmalarini o'zida mujassamlashtirgan tashkilotchilik;
- bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilarga samarali o'rgatish bilan bog'liq didaktik;
- o'quvchilarning ruhiy olamiga ta'sir eta olish, baholay olish bilan bog'liq perseptiv;
- o'quvchilar bilan maqsadga muvofiq mulohazaga kirisha olish kirishimlilik;
- o'quvchilarga hissiy ta'sir eta olish qobiliyati – suggestiv;
- pedagogik vaziyat va jarayonlarni o'rganish va xolisona baholay olish – tadqiqotchilik qobiliyati;
- o'z dunyoqarash va bilimlarini doim kengaytirib, boyitib borishga yo'naltirilgan ilmiy-bilish qoiliyati va boshqalarni ko'rsatish mumkin [X.Abdullayev, 107-bet].

Pedagogik san'at. Pedagog mahoratining muhim belgilaridan biri o'qituvchining pedagog san'ati hisoblanadi. Pedagogik san'at – bu ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda o'qituvchi qo'llaydigan maxsus bilim, ko'nikma va malakalar majmui. Pedagogik san'atni egallab olish va takomillashtirish uchun o'qituvchi maxsus pedagogik, psixologik va amaliy tayyorgarlikdan o'tishi talab etiladi.

Eng avvalo, pedagog bolalar bilan muloqot qilish san'atini egallab olishi ularning har biriga mos keladigan munosabatni topa olishi zarur.

Pedagogik san'atning tarkibiy qismlaridan biri – tarbiyachi o'zining va tarbiyalanuvchilarning diqqatini boshqara olishdir. Ayniqsa o'quvchilarning ruhiy holatini ularning tashqi xatti-harakatlariga qarab tez aniqlash ko'nikma va malakalarini bilish lozim.

Pedagogik xatti-harakatlarni tezlikda hal qilish pedagogik san'atning muhim tamoyili hisoblanadi. Ayniqsa o'zining sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga nisbatan muayyan hissiyoti, sub'yektiv munosabatini turli shakl, darajalarda ifoda eta olishi muhim ahamiyatga ega [X.Abdullayev, 109-110-bet].

Pedagogik tajriba – o'qituvchi va murabbiylar tomonidan pedagogik tamoyillar va ta'lim-tarbiya berishning muayyan usul va uslublarini to'liq o'zlashtirib hamda ularni amalga yo'llashdagi real

shart-sharoitlarni, ta'lim oluvchi va tarbiyalanuvchilarning o'ziga xosligini hisobga olgan xolda amaliyotga tatbiq etish. [J.Xasanboyeva va b., 400-401-bet].

Pedagogik texnika – o'qituvchiga faoliyat jarayonida o'zi tanlagan pedagogik ta'sir usullarini samarali qo'llashi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka yig'indisidir.

Pedagogik texnikaga quyidagilar kiradi:

1. Nutq ko'nikmalari (savodli, tushunarli, chiroyli so'zlay olish). Nutqning ifodaliligi, so'z orqali fikr va hissiyotlarni aniq ifodalay olishlik.
2. Mimik va pantomimik ifodalilik – aniq imo-ishora, ma'noli qarash, tabassum.
3. O'z hissiyotlarini boshqara olish, hushmuomalalik, xayrixohlik.
4. Rejissyorlik va aktyorlik ko'nikmalari. [M.Uralova, 8-9-bet]

Pedagogik xayol – bu kishining o'quvchilar shaxsini tarbiyaviy tomondan loyihalashtirishda o'z ish-harakatlarining natijasini oldindan ko'ra bilishda namoyon bo'ladigan qobiliyatdir. Bu qobiliyat o'qituvchi ma'lum o'quvchidan kelgusida kim chiqishini ko'z oldiga keltirishda, tarbiyalanuvchilarda u yoki bu xildagi xislatlarni o'sib rivojlanishi oldindan ko'ra bilishida namoyon bo'ladi. Bu qobiliyat pedagogik optimizm, tarbiyaning kuchiga, o'quvchilarga bo'lgan ishonch bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham o'quvchilar ayrim o'qituvchilar to'g'risida: «Ahmad akamlar, chamasi ichimizdagi eng yaramaslarga ham ishonchlarini yo'qotmasdilar, shuning uchun ham biz ularni hurmat qilardik», degan fikrlarni izhor qiladilar. [M.G.Davletshin va b., 123-bet]

Pedagogning bilish qobiliyati – fanning muayyan sohalariga tegishli qobiliyat bo'lib, unda o'qituvchi nafaqat o'quv kursiga tegishli bilimlarni, balki shu fan sohasiga tegishli yangilik va kashfiyotlarni muntazam ravishda kuzatib borish kerak bo'lgan jarayon mahsuli [(Zuxra Ismoilova), J.Xasanboyeva va b., 405-bet].

Pedagogning birinchi funksiyasi – pedagogni faoliyat maqsadini belgilash va uni amalga oshirishga intilishdir. Maqsad pedagogik faoliyatni, o'qituvchi va o'quvchilar xatti-harakatini ko'zlagan natijaga erishishga yo'naltirishda bosh omil hisoblanadi.

Pedagogik jarayonni **boshqarish** o'quvchilar bilimdonligi va tarbiyalanganlik darajalarini tashxislash (diagnostika) hamda tuzatish

(korreksiya) ishlari natijalariga tayanadi. Pedagogik tashxis va tuzatish metodi o'qituvchidan o'z faoliyati natijalarini oldindan bajara olish, zarur didaktik shart-sharoitlar, usul va uslublarni tanlay olish mahoratini talab etadi.

O'qituvchining pedagogik faoliyatni **loyihalashtira olish funksiyasi** – ko'zlangan maqsadga erishish jarayoni usul, uslub va vositalarni, natijani oldindan modellashtirishni o'z ichiga oladi.

Tashhislash natijani oldindan modellashtirishni o'z ichiga oladi.

Tashxislash natijani oldindan ko'ra bilish, loyihalashtirish o'quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish imkonini beradi.

O'quv-tarbiya jarayonida o'qituvchi:

- tashkil etuvchi;
- axborotlar beruvchi;
- nazorat etuvchi;
- baho beruvchi;
- tuzatuvchi funksiyalarni bajaradi.

Pedagogning diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – pedagogning diqqatini barcha xususiyatlari (hajmi, kuchi, kuzatuvchanligi, idora qilina olishi, safarbarligi)ni puxta bilganligi va unga amal qilinishiga oid sa'y-harakatlar majmui mahsuli [(Zuxra Ismoilova). J.Xasanboyeva va b., 405-bet].

Pedagogning istiqbolni belgilay olish qobiliyati – pedagogning o'z xatti-harakatlarining oqibatini ko'ra bilishi, o'z ta'lim oluvchilarining kelgusida qanday salohiyat egasi bo'lishini tasavvur qilishi, ta'lim oluvchilardagi qanday fazilat va xislatlarni yanada rivojlantirish lozimligini oldindan aytib berish qobiliyatidir. Bu pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga bog'liqdir [(Zuxra Ismoilova). J.Xasanboyeva va b., 406-bet].

Pedagogning kuzatuvchilik qobiliyati – pedagogning ta'lim oluvchi yoki tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati bo'lib, unda ta'lim oluvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi chuqur tushuna olish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlik qat'iy talab etiladi. Bunday jarayonda pedagog ta'lim oluvchi ruhiyatidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham tez sezib oladi [(Zuxra Ismoilova). J.Xasanboyeva va b., 406-bet].

Pedagogning kasbiy madaniyati – uning kasbiy faoliyat

doirasidagi shaxsiy sifatleri tasnifining mohiyatida namoyon bo'ladi. O'qituvchining pedagogik madaniyatini tashkil etuvchi ko'rsatkichlar: intellektual rivojlanish darajasi (pedagogik tafakkurning rivojlanishi); pedagogik faoliyatning har tomonlama tashkil etilishi va kasbiy mahorat darajasi; asosiy kasbiy pedagogik axloq, ma'naviy madaniyati, xulq va odob madaniyati; o'zaro munosabat, so'zlashuv, tashqi ko'rinish madaniyati va boshqalar [J.Xasanboyeva va b., 406-bet].

Pedagogning kasbiy nazokati – o'quvchilar bilan bo'lgan muloqotda me'yorni (chegarani) bilish. **Nazokat** – tarbiyachining bir joyga to'plangan aqli tuyg'usi va umumiy madaniyati in'ikosidir. **Pedagog nazokatining mag'zi** – tarbiyalanuvchilarning shaxsga bo'lgan hurmatidir. [J.Xasanboyeva va b., 406-bet].

Pedagogning ma'naviy-axloqiy madaniyati – shaxsning qobiliyatlari, his-tuyg'ulari, bilimlari, malakalari, e'tiqodi va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish darajasini belgilovchi, uning shaxsiy sifatlarining murakkab integral tizimidir [(Xalilova Sh). J.Xasanboyeva va b., 406-407-bet].

Pedagogning nutq qobiliyati – pedagogning nutq yordamida va imo-ishora vositasida hamda o'zini bayon qilayotgan holatga mos tuta bilish asosida o'z fikr-mulohazalarini aniq va ravshan ifoda qilish qobiliyatidir. Bunda pedagog yangi darsni bayon qilayotganda ham, ta'lim oluvchining fikrini tahlil qilayotganda ham, uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan ma'lumotga qiziqqanligi va e'tiqodi bilan ajralib turishi kerak [J.Xasanboyeva va b., 407-bet].

Pedagogning nutqsiz munosabati – pedagogning asosiy qudratlaridan biri bo'lib, unga pedagogning o'quvchi bilan munosabatda bo'lishi uchun nutqsiz vositalarning majmui kerak [J.Xasanboyeva va b., 407-bet].

Pedagogning to'g'ri muomala qilish qobiliyati – pedagogning ta'lim oluvchilarni hurmat qila olish va ularga ta'lim-tarbiya berishda to'g'ri yondasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali ikki tomonlama munosabatlar o'rnata bilishdan iborat bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy jarayon [(Zuhra Ismoilova). J.Xasanboyeva va b., 408-bet].

Pedagogning tushuntira olish qobiliyati – pedagogning o'quv

materialini ta'lim oluvchilarga tushunarli qilib bayon qilishi bilan birga ta'lim oluvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyati hamdir [(Zuhra Ismoilova). J.Xasanboyeva va b., 408-bet].

Pedagogning tashkilotchilik qobiliyati – pedagogning ta'lim oluvchilar jamoasini ma'lum maqsad asosida uyushtirishi va jipslashtirishi, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantira olishi va o'z ishini to'g'ri samarali uyushtira olish kabi ijobiy xislatlari majmuidir [J.Xasanboyeva va b., 408-bet].

Pedagogning obro' ortira olish qobiliyati - ta'lim oluvchilarga bevosita emotsional-ifodaviy ta'sir etish va shu asosda obro' ortira olishga tegishli xatti-harakatlar majmuasi mahsuli. Bunda pedagogning fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi, ta'lim oluvchilar shaxsini hurmatini joyiga qo'ya olishligi, darsda o'zini tuta bilishi jihatidan o'z ta'lim oluvchilariga ibrat-namuna bo'lishligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qobiliyat pedagog shaxsiy sifatlarining butun bir yig'indisiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga, shuningdek, ta'lim oluvchilarga ta'lim-tarbiya berish mas'uliyatini his etishga, o'zining haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni ta'lim oluvchilarga yetkaza olish kabilarga bog'liq [J.Xasanboyeva va b., 408-bet].

Perseptiv bilim – bilimning hissiy bilim shakli.

Perseptiv qobiliyat – o'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilarining ma'naviy dunyosiga kirib borish yordamida ularning emotsional holatini baholash va ruhiy xususiyatlarini aniqlash mahoratining natijaviy mahsulidir, [J.Xasanboyeva va b., 408-bet].

Perseptiv qobiliyat – o'qituvchining ruhiy holatini his qilish, tushuna olish orqali yuzaga chiqariluvchi qobiliyat.

Pertseptiv qobiliyatlar – bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchi shaxsining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog'liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatdir.

Qobiliyatli o'qituvchi bolalarning har qanday mayda-chuyda xatti-harakatlarida, yorqin ifodalanadigan ayrim tashqi holatlarida hamda ularning ichki dunyosida yuzaga keladigan o'zgarishlarni sezdirmasdan bilib oladi. Ana shunday hollarda o'quvchilar "Muhabbat opa kimningdir kayfiyatida o'zgarishlar bo'lsa yoki kimdir darsga tayyorlanmagan bo'lsa ko'ziga qaraboq bilib oladi", "Bizning

o'qituvchimiz hech qayoqqa qaramasa ham, hamma narsani ko'rib turadi" deyдилar [M.G.Davletshin va b., 118-119-bet].

Pog'onaviylik – tashkiliy tuzilishga ko'ra ta'lim muassasasining yuqori bo'g'ini (rahbarlar) bilan quyi bo'g'ini (ijrochilar) o'rtasidagi masofaning katta-kichikligini ifodalaydi, ya'ni rahbar bilan oddiy ijrochi o'rtasidagi masofa qanchalik katta bo'lsa (darajalar soni) ta'lim muassasalaridagi pog'onaviylik darajasi shunchalik katta bo'ladi.

Qobiliyat – bu shaxs faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga keladigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyatidir [E.G'G'oziyev, 181-bet]

Qobiliyat – insonning bilim, ko'nikma va malakalarini orttirish xususiyatlariga bog'liq bo'lib, mazkur xususiyatlar bilim, ko'nikma va malakalarga taalluqli bo'lmaydi, ya'ni qobiliyatlar bilim, malaka va ko'nikmalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ladi. Qobiliyat insonlarni sifat jihatidan bir-biridan farqlaydigan individual-psixologik xususiyatlardir. Qobiliyatlar insonlarning aniq bir faoliyatidan tashqarida mavjud bo'lmaydi, balki ularning tarkib topishi ta'lim va tarbiya jarayonida sodir bo'ladi.

Kommunikativlik qobiliyati – bu samimiy muloqotda bo'lishga, muloqotini to'g'ri tashkil etishga, o'quvchi o'qituvchilar bilan do'stona muloqot o'rnatish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan qobiliyatdir.

Qobiliyat – insonning individual salohiyati, imkoniyatlari [O'zME 11-jild, 31-bet].

Rivojlanish – bu insonning ruhiyati va organizmidagi sifatii o'zgarishlaridir. Bu o'zgarishlar ijtimoiy muhit, uy-joy sharoitlari, uni qurshab turgan kishilarning ta'siri natijasida yuz beradi.

Rivojlanish – bu ob'yektiv jarayon bo'lib, tashqi va ichki boshqariluvchi omillar tomonidan miqdor va sifat jihatidan fizik va ma'naviy shakllanish, ya'ni, shaxsning fazilatlar, sifatlar va xulqlarning shakllanishi, tushunchalarning chuqurlashishi, kengayishi, osondan - qiyinga, oddiydan – murakkabga, mavhumdan – bilishga, oddiy hayot kechirish shakllaridan – oliy faoliyatga o'tish jarayonidir.

Rahbar madaniyati – rahbar odobi va iqtidori o'rtasidagi dialektik

bog'lanish. Bu bog'lanish odob, iymon, insof, adolat va iqtidor kabi fazilatlar majmuidan iborat bo'ladi. Rahbarning kasbiy madaniyati deganda rahbarning professionalligi, uning professional boshqaruv faoliyatini bajarishga tayyorgarlik darajasi tushuniladi. Bunda rahbarlarning maqsadga muvofiq u yoki bu kasbiy sifatlari alohida vaziyatlarda har bir rahbarning "ideal modelini" shakllantirishga asoslanadi.

Rahbarlik – insonlarga maqsadli ta'sir o'tkazishga qaratilgan, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatdir. Rahbarlar qator funksiyalarni bajaradi: jamoa faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, mazkur faoliyatni rejalashtiradi, rag'batlantirish vositalari va usullarini belgilaydi, ularni nazorat qilishni amalga oshiradi.

Rahbarlik – odamlarga maqsadli ta'sir o'tkazishga qaratilgan, ularning xulqini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan boshqaruvning tarkibiy qismidir.

Rahbarlik uslublari – rahbar o'zining boshqaruv faoliyatida afzal bilgan va asoslangan barcha usullar va xatti-harakatining taktika va strategiyalaridan tashkil topgan tizim sifatida qaraladi. Bunda bir tomondan strategiyalar bilan boshqaruv faoliyati mazmuni, boshqa tomondan bu tizimning o'zi, inson faoliyati muhitida turli ahamiyatga ega bo'lgan harakatlar va shu qatori professional faoliyat boshqaruv sub'yektining rivojlanishida hamda uning professional mutaxassis sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Rahbarning o'z ishini tashkil qila bilishi deganda uning boshqaruv faoliyatini to'g'ri rejalashtirishi, ya'ni buyruq berish, topshiriq ijrosini tekshirish, xodimlar faoliyatini baholash hamda turli xil qarorlar qabul qilishi va uni nazorat qila olishi nazarda tutiladi.

Refleksiv boshqaruv. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi turli xil omillar bilan o'zaro aloqaga kirishadi, bunda xatti-harakatlarning mazmun-mohiyati va maqsadga yo'naltirilgan o'zgartiruvchi faoliyatning ehtiyojini anglash mumkin bo'ladi, chunki o'z-o'zini chuqur anglab yetish natijasida jamoada o'z o'rnini aniqlash, o'zini namoyon qilish (o'zini ko'rsata bilish), o'z-o'zini (harakatlarini, fe'l-atvorini) ma'qullash, o'zining ichki imkoniyatlaridan, qobiliyatidan foydalanish, o'z-o'zini idora qilish vujudga keladi.

Refleksiya. Muloqot jarayonida suhbatdoshning tasavvurini anglashga harakat qilish, ya'ni uning o'rnida turib o'ziga baho berishga harakat qilish, ya'ni bu ikkinchi shaxsning idrokiga taalluqli bo'lib, o'ziga bironing ko'zi bilan qarashga harakat qilish.

Shaxs obro'si – shaxsning jamoa a'zolari tomonidan tan olinishi va hurmat qilinishi, uning sub'yektiv sifatlarining jamoa faoliyatining ob'yektiv talablariga mos kelishini bildiradi. Bunda shaxsning bilimi, tajribasi, kasb mahorati, uddaburonligi, tadbirkorligi, faolligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs-faoliyat yondashuvi. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda shaxs-faoliyat yondashuvi ham zarur hisoblanib, pedagogik jarayonlarda sub'yektlar faolligini ta'minlash va aniq maqsadlarga ko'ra belgilangan vazifalarni bajarishga sub'yektlarni motivlashtirish yo'nalishi sifatida vujudga keladi.

Shaxs-faoliyat yondashuvida shaxsning va faoliyatning komponentlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda o'rganiladi, chunki bu yondashuv asosida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda o'quvchilar sub'yekt sifatida faoliyat ko'rsatadi va o'z navbatida, o'quvchi shaxsining sub'yekt sifatida rivojlanishi uning faolligi, mustaqil, erkin, tanqidiy, tahliliy va samarali fikrlashining rivojlanishi orqali aniqlanadi.

Shaxslararo munosabatlar – bu bir jamoa yoki guruhning a'zolari bo'lgan insonlar o'rtasidagi ob'yektiv aloqalar, muloqot va o'zaro ta'sirlarni ifodalab, rasmiy va norasmiy turlarga, xizmat va shaxsiy munosabatlarga bo'linadi. Xizmat munosabatlari biror ijtimoiy foydali faoliyat bilan – o'quv, mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Shaxslararo munosabatlar o'zaro ta'sir ko'rsatish, muloqot, hamkorlikdagi faoliyatda vujudga keladi va shakllanadi.

Sifat (tilshunoslikda) – predmet belgisini bildiruvchi so'zlar turkumi. Sifat (falsafada) – ob'yektning muhim belgilarini ifodalaydigan falsafiy tushuncha. [O'zME 7-jild, 657-bet].

Strategik rajalashtirish. Ta'lim muassasasining maqsadlaridan kelib chiqib amalga oshirish zarur bo'lgan vazifalarni belgilash, mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun boshqaruv funksiyalari, metodlari hamda maqsadlarini aniqlash va amalga oshirish yuzasidan strategik rejalar ishlab chiqish jarayoni bo'lib, bunda maqsad va vazifalarning

ilmiy asoslanganligi, belgilangan muddatlarning aniqligi va ob'yektivligi, ijrochilarning bilimi va kasb mahorati, tashqi muhit ta'siri, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, muassasa imkoniyatlari, shuningdek, boshqaruv strategiyasi, ya'ni strategiyani amalga oshirishni boshqarish yo'nalishlari o'rganilib tahlil qilinadi.

Strategik reja – bu muassasada ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagogik jarayonda ko'zlangan maqsadlarga erishish – raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash yo'nalishida uzoq (besh, o'n yil va undan ko'proq muddatlarni o'z ichiga oladi) muddatlarga mo'ljallangan vazifalarni o'z ichiga olgan dastur (istiqbol reja) bo'lib, u ta'lim muassasasining hamda rahbar xodimlarning yillik va joriy rejalari uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Tarbiya – insonlar rivojlanishida asosiy rol o'ynaydigan jarayon bo'lib, bir avlod ijtimoiy tajribasining keyingi avlodlar tomonidan o'zlashtirilishi va ularning ijtimoiy hayotga qo'shilishlarini ta'minlab beruvchi zaruriy faoliyatdir.

San'at – ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq xolda vujudga kela boshlagan [O'zME 7-jild, 501-bet].

Tizim – aloqa, munosabatlar, integratsiya, yaxlitlik, tashkil etuvchi qismlar kabi tushunchalar orqali ifodalanadi. Bu tizimning bir-biri bilan bog'liq bo'lgan, o'zaro ta'sir etuvchi qismlarining majmui yaxlit ob'yektni tashkil etadi. Har bir qism yaxlit tizimning o'zgarishiga o'z hissasini qo'shadi.

Tizimli yondashuv – bunda pedagogik jarayonlar tizim sifatida, ya'ni tashqi muhitda xizmat qilayotgan murakkab pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Bunda uning aloqalari va vositalarining mazmun va mohiyatiga ko'ra ob'yektni bir butun, ya'ni yaxlit holda tasavvur qilish talab etiladi.

Pedagogik jarayonlar samaradorligini o'rganishda alohida xususiyatlarga ega bo'lgan bir necha qismlarga ajratib, ular o'rtasidagi aloqalar hamda o'zaro bog'liqlik xususiyatlari aniqlanadi, chunki har bir qism yaxlit tizimning o'zgarishiga o'z hissasini qo'shadi.

Tushuncha – narsa va xodisalarning muhim xususiyatlari,

aloqalari va munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkur shakli. Tushuncha bilish maxsulidir, bu bilish oddiydan murakkabga ko'tarila borib, eski tushunchalarni mukammallashtiradi, aniqlashtiradi va yangilarini shakllantiradi. Tushunchaning asosiy mantiqiy vazifasi biron narsani boshqa narsadan fikran ajratishdan iborat [O'zME 8-jild, 685-bet].

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi...

Ta'lim mohiyat-e'tibori bilan dars berish jarayonini, ya'ni pedagog (o'qituvchi) faoliyatini, umuman o'quvchining bilish, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda o'qish jarayonini, ya'ni o'quvchi faoliyatini bildiradi.

Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi – o'qituvchi va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat [O'zME 8-jild, 307-308-bet].

Ta'lim – muayyan maqsadga yo'naltirilgan va tartibga solingan o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyat [X.Abdullayev, 12-bet].

Ta'lim – tajribalar almashinishi jarayoni bo'lib, rejali ravishda amalga oshiriladigan "o'qituvchi-o'quvchi" muloqoti, uning natijasida ma'lumot, tarbiya va rivojlanish amalga oshadi.

Ta'lim muassasalarini boshqarish – jamoa a'zolarini hamda ularning faoliyatini boshqarishdan iborat bo'lib, ular o'z navbatida ta'lim jarayonini va vositalarini boshqaradilar. Boshqaruv yuqori saviyada olib boriladigan muassasalarda intizom, pedagoglarning mehnat unumdorligi, ta'lim jarayoni samaradorligi va o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori darajada bo'ladi hamda ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyatida majburiy itoatkorlik o'rnini ijodiy yondashuvlar egallaydi.

Ta'lim muassasasi funksiyalari – pedagogik jarayonlarda quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi: ta'limiy (tushunchalar tizimi, dunyoviy tushunchalar, fanlar bo'yicha umumiy bilimlar, ko'nikma va malakalar; mustaqil ta'lim); tarbiyaviy (ta'lim jarayoni ishtirokchilarida dunyoqarash, o'zini-o'zi anglash va ijtimoiy mavqe, motivlashtirish, tajriba va axloqiy odat, muhim ijtimoiy ko'nikma va malaka, xulq va

muomala, ma'naviy va axloqiy madaniyat, o'zini-o'zi tarbiya ko'nikmalarini shakllantirish); psixologik rivojlanish (oliy psixologik funksiyalar: idrok, hissiyot, iroda, ruhiy kechinmalar, o'zini-o'zi anglash, shaxsiy faolligini shakllantirish), ta'lim jarayoni ishtirokchilarida yaratuvchanlikni rivojlantirish; ijodiy faoliyatga tayyorlash; sog'lom turmush tarziga odatlantirish; ta'lim muassasasi bitiruvchilarini ijtimoiy-shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan turli xil faoliyatga tayyorlash; pedagogik jarayonlarni tashkil etish, o'zaro aloqalarni o'rnatish va muvofiqlashtirish, barcha bo'g'in va bo'limlar o'rtasida vazifalar taqsimoti, rahbar xodimlar o'rtasida mas'uliyatlarni belgilash, boshqarishning aniq uslubini tanlash va qaror qabul qilishda ish tartibi izchilligi, axborotlar oqimini tashkil qilish.

Tafakkur. Insonlarning aqliy faoliyatining va ongli xatti-harakatlarining yuksak shakli hisoblanib, sotsium va ijtimoiy muhitni, mavjud jarayonlarning vujudga kelish sabablari va voqelikni anglash vositasi, shuningdek, barcha insonlarning ehtiyojlarini qondirish yo'nalishidagi faoliyatlarini muvofiqlashtiruvchi fikrlar, g'oyalar va qarashlar natijasida vujudga kelgan xulosa yoki qabul qilingan qaror.

Tafakkur sezgi, idrok, tasavvurlarga nisbatan mavjud jarayonlarni, hodisalarni aniq va ravshan, ob'yektiv aks ettiruvchi bilish jarayoni. Pedagogik jarayonlarda o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarning yoki o'quvchilar tomonidan o'qituvchilarning o'rganilishi va xulosalar chiqarilishi, shuningdek, o'zaro munosabatlar, aloqalar va axborotlar almashinuvi mazkur tushuncha orqali amalga oshiriladi.

Tajriba – voqelikni amaliy jihatdan hissiy-empirik bilish jarayoni. Tajriba keng ma'noda – uquv, malaka va bilimning birligidan iborat [O'zME 8-jild, 225-bet].

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi [O'zME 8-jild, 270-bet].

Tarbiyachi – inson, avlodlar tajribasini egallash uchun majburiy yoki zaruriy ta'minotchi.

Tarbilyalanganlik – shaxsning sifat ko'rsatkichi, tajribalarni yaxshi o'zlashtirganligi, tarbiyaviy-rivojlantirish maqsadida yo'naltirilganlik.

Tarbiyalanuvchi – tajribalarni egallaydigan va o'rganadigan shaxs.

Tarbiyaviy jarayon. O'sib kelayotgan avlodning katta yoshdagilar tajribasini egallab borish jarayoni bo'lib, u insonlar rivojlanishini boshqaradi hamda ularning shaxsiy xislatlarini shakllanishiga zarur sharoitlar yaratib beradi.

Tarbiyaviy munosabatlar – insonlar o'rtasidagi doimiy munosabat (aloqalar) bo'lib, ular inson shaxsini rivojlantirishga, ya'ni mustaqil ma'lumot, mustaqil ta'lim olish va o'zini-o'zi tarbiyalashni shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, bu boshqaruv jarayonida rahbarlar bilan xodimlar o'rtasidagi munosabatlarda turli shakllarda namoyon bo'ladi, ya'ni, rahbarlarning bilimi, muomala va muloqot madaniyati, kiyinishi, gavda harakatlari, boshqaruvchilik qobiliyati, fan-texnika, san'at va tabiatga bo'lgan munosabati hamda qiziqishi xodimlarning faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tartibga solish-muvofiqlashtirish funksiyasi o'qituvchilar va boshqa pedagog xodimlarning tushunchalari, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini muntazam rivojlantirib borish, ularni yangiliklar bilan qurollantirish, uzluksiz malaka oshirish va tajriba almashinish jarayonlarini tashkil etish asosida ularning kasbiy kompetentligini muntazam rivojlantirib borish va ularning xatti-harakatlarini, innovatsion faoliyatini muvofiqlashtirish, o'zini-o'zi rivojlantirish va o'z imoniyatlari va qobiliyatlarini erkin namoyon etishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish uchun xizmat qiladi.

Mazkur funksiya yordamida o'qituvchilarning o'zini-o'zi rivojlantirish, yangiliklar yaratish va amaliyotga tatbiq etish yo'nalishlaridagi xatti-harakatlari, intilishlari muvofiqlashtiriladi, moyilligi va qiziqishlari rivojlantiriladi.

Tashkiliy ta'sir ko'rsatish – pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning tashkiliy tuzilishlarini belgilash, ichki tartib-qoidalarni o'rnatish; boshqariluvchi va boshqaruvchi tizimlar o'rtasida muvofiqlik va oqilona nisbatni o'rnatish kabilarni o'z ichiga oladi. Pedagogik jarayonlarni samarali amalga oshirish uchun tashkil etilgan ta'lim muassasasining tarkibi, tashkiliy tuzilishi (struktura) va tarkibiy qismlarini (komponentlar) aniqlashda faoliyat jarayonlarining xususiyatlari inobatga olinadi.

Bu jarayonlarni asosan quyidagi turlarga bo'lish mumkin. Asosiy (pedagogik) jarayon ta'lim muassasasining asosiy maqsadlariga, ko'zlangan natijalarga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi va ta'minlovchi jarayon ta'lim muassasasining natijalariga to'g'ridan-to'g'ri o'z ta'sirini ko'rsatmasa-da, uning asosiy vazifalarini bajarishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratadi va ta'minlab beradi. Ta'lim muassasasida pedagogik jarayonlar ikkita kichik tizimlar doirasida, ya'ni darsda va darsdan tashqari (tarbiyaviy) faoliyat jarayonlarida amalga oshiriladi.

Tashkiliy ta'sir ko'rsatish shakllari – loyihalash, reglamentlash, me'yorlash, qo'llanmalar tayyorlash va h.k. Ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etishda motivlashtirish, tashabbuslarni ishlab chiqish va tahlil qilish uchun shart-sharoitlar yaratish, barcha tarkibiy qism va bo'limlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, ijtimoiy amaliyot va ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda natijalarning samaradorligini tahlil qilishni hamkorlikda tashkil etish, davlat talablari asosida pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish orqali amalga oshirish zarur.

Tashkiliy-ijrochilik funksiyasi rahbar faoliyatining barcha yo'nalishlarida o'z ifodasini topadi. Ya'ni, u kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish, o'qituvchilarning reytingini aniqlash, kasbiy tayyorgarligiga, kasbiy mahorati va qobiliyatiga, tajribasi va imkoniyatlariga ko'ra vazifalar taqsimlash, ta'lim muassasasida o'qituvchilarning o'zaro ta'sir etish tizimini shakllantirish, o'qituvchilarning ehtiyojlari, imkoniyatlari, bir so'z bilan aytganda kasbiy kompetentligi darajasi bo'yicha axborotlar to'plash va ularga ishlov berish faoliyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Buning natijasida u yoki bu pedagogik tizimga xos tarkibiy tuzilish vujudga keladi. Uni samarali amalga oshirish o'zaro ishonch va yordam, har kimga tanlash huquqini berish, faqat maqsadni belgilash emas, balki unga erishish mezonlarini ham belgilash, o'qituvchilarning shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'la namoyon etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, bajarilgan ishlar uchun rag'ballantirish va har bir o'qituvchining mehnati natijalari va imkoniyatlarini ob'yektiv baholash bilan bog'liq bo'lib, ta'lim muassasasida muhim ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Tashkiliy-ma'muriy metodlar. Ushbu metodlar ham iqtisodiy metodlar bajaradigan vazifalarni bajaradi, faqat ularning ta'sir

ko'rsatish usullari va shakllari o'zaro farq qiladi. Iqtisodiy metodlarda belgilangan masalalarni hal qilish uchun rahbarlar ta'sir ko'rsatishning turli xil usul va shakllarini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Tashkiliy-ma'muriy metodlar qarorlar, buyruqlar, farmoyishlar va ko'rsatmalar tayyorlash, ularni o'z vaqtida tegishli shaxslarga yetkazish va bajarilishini nazorat qilish orqali ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi.

Tashkilotchilik qobiliyati - bu birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtira bilish, bunda jamoani jipslashtira olish va ikkinchidan, o'zining shaxsiy ishini to'g'ri tashkil qila olish qobiliyatidir. O'quvchilar o'z o'qituvchilari haqida turlicha fikrda bo'ladilar. Jumladan, ayrim o'quvchilar: "...Biz Azim akani juda yaxshi ko'ramiz. Ular sinfimizda bir vaqtning ichida, juda tezlik bilan ishchanlik kayfiyatini uyushtirib, barchamizning o'zining puxtaligi, ozodaligi, epcilligi va tadbirkorligi bilan hayratda qoldiradilar" desalar, ayrim o'quvchilar: "Sobir akamlar bizning ixlosimizni qaytarib, hafsalamizni bir pul qiladilar. Ular ko'p ishga urinadilar-u, ammo birortasini ham oxiriga yetkazmaydi..." deyдилar. Ba'zan ayrim o'quvchilarning o'z o'qituvchisi haqida: "...Nodira opamlar biz bilan xuddi ona tovuqdek ovora bo'ladilar. Agar biz sho'xlik qila boshlasak, ular o'zlarini ko'rmaslikka, payqamaslikka solardilar. Ajoyib ayol edi-yu, ammo uning darsida hech kim hech narsa qilmas edi-da..." degan fikrlarni ham eshitish mumkin.

O'qituvchining o'z ishini tashkil qila bilishi deganda, uning o'z ishini to'g'ri rejalashtirib, uni nazorat qila olishi nazarda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda vaqtga nisbatan o'ziga xos sezuvchanlik - ishni vaqt bo'yicha to'g'ri taqsimlab, mo'ljallangan vaqtdan to'g'ri foydalana olish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Dars davomida, albatta, ko'p hollarda vaqtni behuda yo'qotish ham mumkin. Lekin bu yo'qolgan dars rejasini tuzatish zaruriyati tuzilgan hollarda bo'lishi mumkin. Tajribali o'qituvchilar vaqtni seza bilishni o'rganish uchun dars rejasini yoki matnda vaqtni nazorat qilish uchun belgilar olib borishni tavsiya etadilar. Jumladan: darsning 10, 20, 30 va boshqa daqiqalari davomida mabodo ko'zda tutilmagan vaqt ortib qolgan taqdirda foydalanish uchun qanday qo'shimcha materiallarni tayyorlash yoki vaqt yetmay qolgan taqdirda qanday materialni keyingi darsga qoldirish mumkinligi haqida maslahat beradilar [M.G.Davletshin va b., 120-121-bet].

Tashqi kommunikatsiya. Ta'lim muassasasi bilan tashqi muhit o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni tashqi kommunikatsiyalarni ifodalab, bunga tashqaridan kelgan axborotlar, yuqori boshqaruv organlari, hokimiyat, vazirliklardan kelgan axborotlarni kiritish mumkin.

Tasnif (arab. – saralash, tartibga solish), klassifikatsiya – ilm yoki inson faoliyatining biror sohasiga oid o'zaro bir xil tushunchalar sistemasi. Tasnif har bir fanga xos muhim mantiqiy amal bo'lib, uning vositasida shu fan doirasida to'plangan bilimlar qat'iy tartibga solinadi [O'zME 8-jild, 292-293-bet].

Texnologiya – pedagogik jarayonlarni tashkil etish, uni boshqarish, o'qituvchilarning pedagogik va o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil qilish usullari tavsifi.

Vaziyatli yondashuv – o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni samaradorligini aniq vaziyatlarga ko'ra aniqlashni ko'zda tutadi. Vujudga kelayotgan vaziyatlarga ko'ra sub'yektlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Yangilik – yangi tartib, yangi uslub, yangi metod, yangi ixtirolar bo'lishi mumkin.

Yangilik kiritish – bu yangilikning qo'llanishini bildiradi. Yangiliklarni amaliyotda qo'llash va ommalashtirishga kirishilgan vaqtda u yangi sifatga ega bo'ladi va innovatsiyalar vujudga keladi. Yangilik kiritishni ommalashtirish va ularni tashkil etish innovatsion jarayonning tashkil etuvchi qismlari hisoblanadi.

O'zini-o'zi tarbiya – bu ichki tuyg'ular yordamida milliy qadriyatlarni, inson hayotidagi yutuq va muammolarni, tajribalarni o'rganish, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ya'ni, mustaqil rivojlanish jarayonidir. Pedagogik jarayonni qanday tashkil etilmasin, o'zini-o'zi tarbiyalashsiz uning samaradorligini ta'minlab bo'lmaydi.

Zamonaviy pedagog – ta'lim oluvchining qanday o'qiyotganligi va rivojlanayotganligini to'liq tushunib, his qila oladigan, ya'ni uning hayotini o'z shaxsiy hayoti singari his qilib, o'quvchining ichki, axloqiy-ma'naviy, umummadaniy o'sib rivojlanishiga, bolalar hamda kattalar hamjamiyatining mustahkamlanishiga ko'maklasha oladigan o'qituvchi.

Oldindan ko'rish–rejalashtirish funksiyasi tashkiliy shakllar,

usullar, ta'sir etuvchi vositalarni aniqlaydi, nazoratning me'yori va natijalarini baholashga xizmat qiladi, shuningdek, o'qituvchilarning xatti-harakati va innovatsion faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solishga imkoniyat yaratadi.

Rahbarlar tomonidan o'qituvchilarning tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalari, qobiliyati, kasbiy mahorati, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlari va umuminsoniy xislatlari, kayfiyati holatini, erishgan natijalari, o'zini-o'zi rivojlantirishga moyilligi, imkoniyatlari va intilishlarini aniqlash, jamoadagi ruhiy muhit, o'zaro munosabattlar va ehtiyojlarni o'rganish hamda barcha uchun qulay bo'lgan o'zaro ta'sir jarayonini, innovatsion ta'limiy muhitni vujudga keltirish, ta'lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish va boshqaruvni takomillashtirish strategiyasini belgilash hamda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishda oldindan ko'rish-rejalashtirish funksiyasi amalga oshiriladi.

Xususiyat – biror narsa va hodisaning boshqa narsa va hodisadan farqini yoki ularning umumiyligi ko'rsatib turuvchi xossalari, jihatlari va belgilari [O'zME 9-jild, 523-bet].

Xodimlarni motivlashtirish (undash) – bu usul xodimlarning boshqaruv jarayonida keng miqyosda ishtirok etishiga asoslangan bo'lib, bu usulni qo'llash orqali sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit yaratiladi. Bunda ijtimoiy-psixologik usullar mehnat faolligini oshirishga qaratilgan bo'lib, u xodimlarga, ya'ni ularning ma'naviy va ijtimoiy xulqiga ta'sir etish orqali amalga oshiriladi.

Tashkiliy muhitning sifati uning holatining madaniy namunalalar bilan mos kelishini hamda boshqaruvning tezkorlik va imkoniyat darajasini belgilaydi. Ya'ni, vujudga kelayotgan vaziyatlarni tashkiliy muhitning asosiy tashkil etuvchi elementlari bilan muvofiqlashtirish boshqaruv madaniyatining asosiy ko'rsatkichi sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: "O'zbekiston", 1997.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: "Sharq", 1997.
3. Karimov I.A. Inson baxt uchun tug'iladi. – Toshkent: "Sharq", 1998.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: "O'zbekiston", 1999.
5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2000.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
7. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. – Toshkent: "O'zbekiston", 2004.
8. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – Toshkent: "O'zbekiston", 2005.
9. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. – Toshkent: "O'zbekiston", 2005.
10. "2004-2009 yillarda ta'lim muassasasi ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi" to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21 may 2004 yildagi PF-3431-sonli Farmoni.
11. Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 9 iyuldagi "2004-2009 yillarda ta'lim muassasasi ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 321-sonli Qarori. – Toshkent, 2004.
12. Abdullayev X. "Ta'lim-tarbiya nazariyasi (savol-javoblarda)" FarDU, 2008. 107 bet.
13. Abdurahmonov Q., Yu.Odegov va boshqalar. Personalni boshqarish. Toshkent: "Sharq", 1998.
14. Abdurahmonov Q.H., Rahimova D.N. va boshqalar. Davlat xizmati personalini boshqarish. – Toshkent: "Akademiya", 2002.
15. Adizova T.M. Boshqaruv muloqoti. – Toshkent: Nizomiy nomli TDPU, 2000.
16. Azixzo'jayeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – Toshkent: Nizomiy nomli TDPU, 2000.

17. Axloq-odobga oid hadislar. – Toshkent, 1990.
18. Ahlidinov R.Sh., Nosirova F.A., Rajabova M.R. Ta'lim muassasasi boshqaruvida ichki nazorat. – Toshkent: "Sharq", 1996.
19. Ahlidinov R.Sh. O'zbekiston Respublikasida ta'lim muassasasi ta'limi tizimini boshqarish xususiyatlari (nazariy-metodologik jihatlar). – Toshkent: O'zPFITI, 1997.
20. Bezrukova V.S. Pedagogika. – Yekaterinburg, 1994.
21. Burxonov A., Turg'unov S.T. "Mutaxassislik psixologiyasi" fanidan ma'ruzalar to'plami. – Namangan: NamMPI, 2000.
22. Burxonov A., Turg'unov S.T. Psixologiya: Ma'ruzalar to'plami. – Namangan: NamMPI, 2000. – 94 b.
23. Valijonov R., Qobulov O., Ergashev A. Menejment asoslari. – Toshkent: "Sharq", 2002.
24. Davletshin M.G. Zamonaviy ta'lim muassasasi o'qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1999.
25. Davletshin M.G., Sh.Do'stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To'ychiyeva "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya" o'quv metodik qo'llanma. T.: 2004. 118- b.
26. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. – Toshkent: "Fan", 2006.
27. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – Toshkent: "Voriz", 2006.
28. Ильин Е.П.. Мотивация и мотивы. СПб.: Питер, 2000. – С. 512.
29. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1994.
30. Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Педагогический словарь. – М.: Академия, 2000. – С. 130.
31. Komilov N., Begmatov A., Quronov M. Rahbar va xodim. – Toshkent: "Akademiya", 1998.
32. Лазарев В.С., Поташник М.М. Управление развитием школы. – Москва, 1995.
33. Менеджмент в управлении школой. Под ред. Т.И.Шамовой. – Москва: «НВ Магистр», 1992.
34. Mirqosimov M. Ta'lim muassasasini boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1995.
35. Моисеев А.М. Качество управления школой: каким оно должно быть. – Москва, 2001.

36. Munavvarov A.K. Pedagogika. – Toshkent: "O'qituvchi", 1996.
37. Murakayev I.U., Saifnazarov I.S. Menejment asoslari. – Toshkent: "O'zbekiston", 2001.
38. Ожегов С.И. Словарь русского языка. Под ред. Н.Ю.Шведовой. 2-е изд-е – Москва: «Русский язык», 1990.
39. Пономаренко В.А. Психология духовности профессионала. – Москва: «Русский язык», 1997.
40. Поташник М.М. Управление современной школой. – Москва, 1995.
41. Pedagogik atamalar lug'ati. Tuzuvchi mualliflar: R.X.Djurayev, O'.Q.Tolipov, R.G'.Safarova, X.O.To'raqulov, M.E.Inoyatova, M.S.Divanova. FA "Fan" nashriyoti, T.: 2008. 198 bet.
42. Слободчиков В.И. О возможных уровнях анализа проблемы рефлексии // Проблемы логической организации рефлексивных процессов. – Новосибирск, 1986. – С. 130.
43. Словарь иностранных слов. – 16-е изд., испр. – Москва: «Русский язык», 1988.
44. Сухобская Г.С., Горбунова Л.Л. Взаимосвязь теории и практики в процессе подготовки и повышения квалификации педагогических кадров. – М.: НИИ ИОО АПН, 1990. – 92 с.
45. Temur tuzuklari / So'z boshi muallifi va mas'ul muharrir Muhammad Ali, forschadan tarj. A.Sog'uniy va H.Karomatov. – Toshkent: Sharq, 2005. – 160 b.
46. Топоровский В.П. Аналитическая деятельность руководителя образовательного учреждения. – Санкт-Петербург, 2000.
47. Топоровский В.П. Развитие исследовательской культуры директора школы. – Санкт-Петербург, 2000.
48. Tursunov I.Y. Xalq pedagogikasining dolzarb muammolari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1990.
49. Tursunov I.Y., Nishonaliyev U.N. Pedagogika kursi. Darslik. – Toshkent: "O'qituvchi", 1997.
50. Turg'unov S.T. "Pedagogika" fanidan ma'ruzalar to'plami. – Namangan: NamMPI, 1999.
51. Turg'unov S.T. Ta'lim muassasasini boshqarishda pedagogikaning asosiy tushunchalari va tadqiqot metodlari. – Namangan: NVPQTMOI, 2003.
52. Turg'unov S.T. Zamonaviy ta'lim muassasasi rahbarlarining funksional vazifalari. – Namangan: NVPQTMOI, 2004.
53. To'xtaboyev A. Ma'muriy menejment. – Toshkent: "Moliya", 2003.

54. Управление – деятельность профессиональная. Сборник статей. – Санкт-Петербург, СПбГУПМ, 2001.

55. Uralova M. "Pedagogik madaniyat va texnika" fanidan tarqatma materiallar to'plami (Magistraturaning barcha mutaxassisliklari uchun) FarDU, 2007, 68 bet.

56. Шакуров Р.Х. Социально-психологические проблемы руководства педагогическим коллективом. – Москва, 1982.

57. Шамова Т.И., Тюлю Г.М. и другие. Как руководителю школы оценить свою управленческую деятельность. Методические рекомендации. – Москва: МПГУ, 1994.

58. Sharifxo'jayev M., Abdullayev Yo. Menejment. Darslik. – Toshkent: "O'qituvchi", 2001.

59. O'zbek tilining izohli lug'ati. / Begmatov E., Madvaliyev A. va boshqalar.; A.Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 2-jild. 606-b.

60. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild Zebunniso-Konigil. Tahrir hay'ati: M.Aminov, T.Daminov, T.Dolimov va b. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 704 b.

61. Xasanboyev J., X.To'raqulov, M.Haydarov, O.Xasanboyeva, N.Usmanov. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T.: "Fan va texnologiya", 2009. 672 bet.

62. Qurbonov Sh., Seytxalilov E., Quronov M., Ahlidinov R., Majidov I. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar. – Toshkent: "Akademiya", 2002.

63. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1990.

64. G'oziyev E.G'. Psixologiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. T.: 2008. 181 bet.

65. G'ulomov S.S. Menejment asoslari. – Toshkent: "Sharq", 2002.

66. Haydarov F.I. O'quv faoliyati motivatsiyasi: Monografiya. – Toshkent: Fan, 2005. – 122 b.

MUNDARIJA

Kirish	3
O'qituvchilarning kasbiy kompetentligi va uning komponentlari	6
Pedagogik kompetentlik ko'rsatkichlari va baholash mezonlari	15
O'qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning korporativ asoslari	37
O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodlari	49
Pedagogik mahorat va kompetentlikni rivojlantirish jarayonlari	54
O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish vositalari	62
Kasbiy mahorat va kompetentlikni rivojlantirish jarayonida motivlashtirish	73
Pedagogik innovatsion faoliyat	82
O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda uzluksiz malaka oshirish jarayoni	89
Asosiy tushunchalar, tayanch so'z va iboralar	105
Adabiyotlar	167

O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutining
Ilmiy Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

TURG'UNOV SOBITXON TOSHPO'LATOVICH
DANIYAROV BAXTIYOR XUDOYBERDIYEVICH
UMARALIYEVA MUXAYYO ABDUGAFFAROVNA
SHODMONOVA SHOIRA SAIDOVNA
TURG'UNOVA SHOXISTA MUXAMMADJANOVNA
TOJIBOYEVA HILOLAXON MAXMUTOVNA

**O'QITUVCHILARNING
KASBIY MAHORAT VA KOMPETENTLILIGINI
RIVOJLANTIRISH**

"Sano-standart" nashriyoti, Toshkent – 2012

Nashriyot litsenziyasi: № AI 177, 03.01.2011.
Terishga 29.12.2012 yilda berildi. Bosishga 23.01.2013 yilda ruxsat etildi.
Bichimi: 60x84^{1/16}. Ofset bosma. Times garniturasida.
Shartli b.t. 9,99. Nashr b.t. 16,58. Adadi: 1200. Buyurtma №1648.
Bahosi shartnoma asosida.

"Sano-standart" nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,
Yunusobod-9, 13-54. E-mail: sano-standart@mail.ru

"Sano-standart" MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shiroq ko'chasi, 100-uy.
Telefon: (371) 228-07-94, faks: (371) 228-07-95